UMARALIYEVA MUXAYYO ABDUGAPPAROVNA

O‘QITUVCHILAR INKLYUZIV MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK HAMKORLIK STRATEGIYALARI

Monografiya

Toshkent – 2026
“Science and Innovation” nashriyoti

UO‘K: 376:37.015.4
KBK: 74.50
U 51

Umaraliyeva Muxayyo Abdugapparovna. O‘qituvchilar inklyuziv madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik hamkorlik strategiyalari. Monografiya. – Toshkent: “Science and Innovation” nashriyoti, 2026. – 244 b.

Muallif mazkur monografiya orqali o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlashda qadriyatlarning o‘rni va tarbiyaviy imkoniyatlarini yanada chuqurroq anglash, aksiologik yondashuvning pedagogik salohiyatidan samarali foydalanish hamda ta’lim-tarbiya jarayonini insonparvarlik va qadriyatlar ustuvorligi asosida tashkil etishga muayyan ilmiy-metodik hissa qo‘shishni maqsad qilgan.

Monografiya oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, tadqiqotchilar, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi mutaxassislari, umumta’lim maktablari rahbarlari va o‘qituvchilari hamda pedagogika yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan. Kitobda keltirilgan g‘oyalar va tavsiyalar inklyuziv ta’lim amaliyotini takomillashtirishga, o‘qituvchilarning bu boradagi kasbiy tayyorgarligini oshirishga muayyan hissa qo‘shadi va ular uchun foydali ilmiy-metodik manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Mas’ul muharrir:
R.H. Djurayev – akademik

Taqrizchilar:
R.G. Safarova – p.f.d, prof.
O.R.Jamoliddinovna – p.f.d, профессор

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Kengashining 2026-yil 2026-yil 6-apreldagi 3/5.2-sonқарори билан нашрга тавсия этилган.

ISBN 978-9910-338-22-9

© Umaraliyeva Muxayyo Abdugapparovna, 2026
© “Science and Innovation” nashriyoti, 2026

SO‘Z BOSHI

Bugungi ta’lim tizimida har bir bolaning sifatli ta’lim olish huquqini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarni umumta’lim muhitiga qamrab olish endi ayrim maktablarning tajribasi emas, balki butun ta’lim tizimidan yangi yondashuvni talab qiladigan ijtimoiy zaruratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori bilan inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasining tasdiqlanishi, 2021-yilda Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi BMT Konvensiyasining ratifikatsiya qilinishi bu yo‘nalishdagi islohotlarning huquqiy asosini mustahkamladi. Shu bilan birga, amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, inklyuziv ta’limning muvaffaqiyati faqat me’yoriy hujjatlar, moslashtirilgan binolar yoki maxsus jihozlar bilan belgilanmaydi. Hal qiluvchi omil o‘qituvchining o‘zi: uning har bir bolani qadrlashga tayyorligi, o‘quvchilar o‘rtasidagi farqlarni to‘siq emas, balki ta’lim jarayonining tabiiy holati sifatida qabul qila olishi va bu qarashni kundalik pedagogik faoliyatda amalga oshira bilishidir. Ana shu qadriyatlar, bilimlar va amaliy ko‘nikmalar majmuini biz o‘qituvchining inklyuziv madaniyati deb ataymiz.

O‘qituvchi bu vazifani yolg‘iz hal eta olmaydi. Inklyuziv muhitni yaratish maktab ma’muriyati, defektolog, psixolog, tyutor, ota-onalar, mahalla va tibbiyot muassasalarining muvofiqlashgan harakatini talab etadi. Amaliyotda esa bu subyektlarning hamkorligi ko‘pincha tasodifiy, rasmiy va bir martalik xarakterga ega bo‘lib qolmoqda. O‘qituvchilar inklyuziv madaniyatini rivojlantirishni ijtimoiy-pedagogik hamkorlik nuqtai nazaridan tadqiq etish zarurati aynan shu ziddiyatdan kelib chiqadi.

Mazkur monografiyada o‘qituvchilar inklyuziv madaniyatining mohiyati, tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish omillari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Ta’lim muassasasi, oila, mahalla va mutaxassislar o‘rtasidagi hamkorlikning samarali strategiyalari asoslab berilgan. Inklyuziv madaniyatning shakllanganlik darajasini aniqlashga oid diagnostik vositalar taklif etilgan. Tajriba-sinov ishlari natijalari asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqotda xorijiy mamlakatlar

tajribasi bilan bir qatorda milliy ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, jumladan, mahallaning tarbiyaviy salohiyati va oilaviy qadriyatlarimiz ham inobatga olingan.

Monografiya oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, tadqiqotchilar, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi mutaxassislari, umumta’lim maktablari rahbarlari va o‘qituvchilari hamda pedagogika yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan. Kitobda keltirilgan g‘oyalar va tavsiyalar inklyuziv ta’lim amaliyotini takomillashtirishga, o‘qituvchilarning bu boradagi kasbiy tayyorgarligini oshirishga muayyan hissa qo‘shadi, degan umiddamiz.

Monografiyani tayyorlashda qimmatli maslahatlari bilan yordam bergan taqrizchilarga, tajriba-sinov ishlarida faol ishtirok etgan ta’lim muassasalari jamoalariga muallif samimiy minnatdorlik bildiradi. Kitob yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar va takliflar mamnuniyat bilan qabul qilinadi.

I-BOB. UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARI O‘QITUVCHILARINING INKLYUZIV MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1-§. Zamonaviy ta’lim muhitida inklyuziv ta’limning zarurati

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishga qaratilgan strategik hujjatlarda ta’limning ustuvor vazifalaridan biri sifatida yosh avlodni har tomonlama rivojlantirish, xususan, uning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish va mustahkamlash belgilangan. Shuningdek, “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy bilim va kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash mamlakat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida qayd etilgan.

Mazkur strategik maqsadlarning izchil amalga oshirilishi ta’lim jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar hamda shaxsga yo‘naltirilgan metodlar asosida takomillashtirishni taqozo etadi. Ayniqsa, ta’lim oluvchilarning individual imkoniyatlari, ehtiyojlari va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish ta’lim samaradorligini ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, inklyuziv ta’limni rivojlantirish zamonaviy ta’lim siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Inklyuziv yondashuv rivojlanishida turli xil xususiyatlarga ega bo‘lgan, shu jumladan, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilarning umumiy ta’lim muhitida teng huquqli ishtirok etishi uchun zarur pedagogik va tashkiliy sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Bunda ota-onalarning farzandi uchun ta’lim shakli va muassasasini tanlash imkoniyatlarini kengaytirish, o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ta’lim sharoitlarini tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Inklyuziv muhitda pedagogik faoliyatni tashkil etish o‘qituvchidan ta’lim jarayonini differensiallashtirish, individual yondashuvni qo‘llash, o‘quvchilarning turli qobiliyat va imkoniyatlarini hisobga olish hamda ular o‘rtasida samarali ijtimoiy-pedagogik munosabatlarni

shakllantirishni talab etadi. Bunday muhitda umumiy ta’lim maktablari nafaqat odatiy rivojlanish xususiyatlariga ega o‘quvchilar, balki alohida ta’lim ehtiyojlari mavjud bo‘lgan bolalar uchun ham qulay, xavfsiz va rivojlantiruvchi ta’lim makoniga aylanishi lozim. Shu bois inklyuziv muhitda pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, o‘qituvchilarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirish, ta’lim mazmuni va metodlarini o‘quvchilarning individual xususiyatlariga moslashtirish bugungi pedagogik tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda oliy ta’lim va qo‘shimcha kasbiy ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni amalga oshirish uchun bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash masalasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar soni sezilarli darajada oshdi.

Milliy strategik maqsadlardan kelib chiqib, umumiy o‘rta ta’lim tizimidan turli obyektiv sabablarga ko‘ra chetda qolayotgan nogironligi bo‘lgan bolalar ulushini ularning umumiy soniga nisbatan 20 foizgacha kamaytirish vazifasi belgilangan. Mazkur maqsad inklyuziv ta’limni rivojlantirish, ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarni umumiy ta’lim jarayoniga samarali jalb etishni nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonunida inklyuziv ta’limni tashkil etish bilan bog‘liq bir qator muhim tushunchalarning huquqiy jihatdan mustahkamlanishi mazkur yo‘nalishning me’yoriy asoslarini yanada takomillashtirdi. Xususan, inklyuziv ta’lim, inklyuziv muhit, alohida ta’lim ehtiyojlari kabi tushunchalarning amaliyotga joriy etilishi ta’lim jarayonida o‘qituvchining kasbiy faoliyatiga qo‘yiladigan talablarni ham yangicha mazmun bilan boyitdi” [4].

Inklyuziv ta’limning rivojlanishi o‘qituvchidan nafaqat ta’lim berish, balki har bir o‘quvchining individual imkoniyatlari, ehtiyojlari va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini moslashtirishni ham talab etadi. Shu jihatdan o‘qituvchining funksional vazifalari kengayib, uning kasbiy kompetensiyasi bilan bir qatorda

kommunikativ, empatik, refleksiv va pedagogik-diagnostik ko‘nikmalarining ahamiyati ortadi.

Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari va zamonaviy pedagogik talablar inklyuziv muhitda faoliyat yurituvchi o‘qituvchidan barcha o‘quvchilar uchun teng ta’lim imkoniyatlarini yaratishni, ularning individual farqlarini pedagogik jarayonni tashkil etishda inobatga olishni hamda ta’lim mazmuni va metodlarini mavjud ehtiyojlarga moslashtirishni taqozo etadi. “Bunda o‘quvchining rivojlanish darajasi yoki nogironligi ta’lim jarayonida uning imkoniyatlarini cheklovchi omil sifatida emas, balki individual pedagogik yondashuvni belgilovchi jihat sifatida qaralishi muhimdir. Shuningdek, o‘qituvchilar turli ijtimoiy va ta’limiy ehtiyojlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarning xususiyatlarini aniqlash, ularni qo‘llab-quvvatlashning maqbul usullarini tanlash, individual yondashuv asosida ta’lim dasturlarini moslashtirish va ularning bajarilishini monitoring qilish kompetensiyalariga ega bo‘lishlari zarur. Shu asosda inklyuziv muhitda o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi barcha o‘quvchilarning ta’lim jarayonida faol ishtirokini ta’minlashga yo‘naltirilgan yaxlit kompetensiyalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi” [4].

Shu bilan birga, pedagog mutaxassislarning kasbiy salohiyati va pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, ularning shaxsiy hamda kasbiy kamoloti uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni belgilashga qaratilgan ilmiy izlanishlar salmoqli bo‘lishiga qaramay, umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilarini inklyuziv ta’lim muhitida samarali faoliyat yuritishga tayyorlash masalasi hanuzgacha dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

“Umumiy o‘rta ta’lim tizimida pedagogik faoliyat mazmuni va vazifalarining kengayib borishi o‘qituvchilarni inklyuziv ta’lim sharoitida kasbiy faoliyat olib borishga tayyorlash mazmunini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, pedagogning nafaqat inklyuziv ta’lim muhitida samarali ishlashga oid kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, balki bo‘lajak o‘qituvchilarda ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik va korreksion

yo‘nalishdagi vazifalarni amalga oshirishga tayyorgarlikni shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi” [6].

Bunda pedagoglarda alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar bilan ishlash, ularning rivojlanish xususiyatlarini inobatga olish, ta’lim jarayonini moslashtirish hamda inklyuziv muhitda pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur yondashuv rivojlanishida o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lgan o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga faol jalb etilishi, tengdoshlari bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishishi va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi uchun qulay pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda asosiy e’tibor umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagoglarining inklyuziv ta’limga umumiy tayyorgarligini ta’minlash masalalariga qaratilganligi kuzatiladi. “Natijada alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar bilan bevosita ishlaydigan pedagoglarning kasbiy ehtiyojlari, amaliy faoliyatda yuzaga keladigan muammolari hamda maxsus pedagogik yondashuvlarni egallash zarurati yetarli darajada yoritilmagan. Bu esa inklyuziv ta’lim sharoitida o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini differensial va ehtiyojga yo‘naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi” [17].

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilarining inklyuziv ta’lim sharoitida kasbiy faoliyat olib borishga tayyorgarligini shakllantirishning nazariy asoslari va amaliy holatini o‘rganish natijalari mazkur jarayonda mavjud bo‘lgan qator muammoli jihatlar hamda qarama-qarshi tendensiyalarni aniqlash imkonini berdi. Jumladan, quyidagi asosiy ziddiyatlar mavjudligi kuzatildi:

– Zamonaviy jamiyatda inklyuziv sharoitlarda samarali faoliyat yurita oladigan ta’lim mutaxassislarini tayyorlashga bo‘lgan talabning ortib borishi, shuningdek, hozirgi ta’lim standartlariga muvofiq o‘rta maktab o‘qituvchilarini bunday sharoitlarda ishlash uchun tayyorlash uchun zarur bo‘lgan muhim kompetensiyalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi;

Inklyuziv ta'lim muhitida o'qitish metodologiyasini amalga oshirish davlat umumiy majburiy oliy ta'lim standartiga muvofiq umumiy o'rta maktab o'qituvchilari uchun professional mas'uliyat sifatida tan olingan. Shunga qaramay, o'qituvchilarni bunday inklyuziv ta'lim sharoitida malakali ishlashga tayyorlash uchun nazariy jihatdan asoslangan va empirik jihatdan tasdiqlangan pedagogik yondashuvlarning sezilarli darajada yetishmasligi;

– Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarga inklyuziv muhitda ularning roli uchun beriladigan tayyorgarlik sifatini baholash zarur. Biroq, ushbu tadbirlarni amalga oshirishga tayyorgarlikning zarur tarkibiy qismlarini rivojlantirishni baholash uchun nazariy jihatdan asoslangan va empirik jihatdan tasdiqlangan diagnostika vositalari mavjud emasligi.

Mavjud nazariy qarashlar hamda amaliy tajribalarni tahlil qilish jarayonida aniqlangan muammoli jihatlar umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagoglarida inklyuziv madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish masalasini ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotning asosiy muammosi o‘qituvchilarda inklyuziv madaniyatni rivojlantirishning pedagogik mazmuni, ilmiy-nazariy asoslari, samarali mexanizmlari hamda ularni amaliyotga tatbiq etishning metodik ta’minotini aniqlashdan iborat etib belgilandi. Mazkur muammoning nazariy va amaliy ahamiyati tadqiqot mavzusini “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining inklyuziv madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish” tarzida belgilashga asos bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi qonunining 4-moddasida ta’limni tartibga soluvchi asosiy tamoyillarga kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik va ta’lim olish uchun teng imkoniyatlarni ta’minlash kirishi bayon etilgan. Bundan tashqari, mazkur qonunning 9-moddasida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarning ta’lim olish imkoniyatlari huquqiy jihatdan kafolatlangan. Unga ko‘ra, jismoniy, ruhiy yoki sensor rivojlanishida o‘ziga xosliklari mavjud bo‘lgan, shuningdek, uzoq muddatli davolanishni talab qiladigan bolalar o‘z ta’lim ehtiyojlaridan kelib chiqib, ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalarida, umumiy

o‘rta hamda o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim sharoitida yoki individual tartibda, uyda ta’lim olishlari mumkin. Mazkur norma inklyuziv ta’limni tashkil etish orqali har bir bolaning ta’lim olish huquqini ta’minlashning huquqiy asoslarini belgilab beradi” [4].

Prezidentimizning 2017-yil sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyani ta’sis etishga qaratilgan taklifi bu borada muhim qadam bo‘ldi. “Yoshlar huquqlari o‘z ichiga ularning tinch va sog‘lom hayot kechirish hamda ta’lim olish huquqini oladi. ...yosh avlodning barkamol muhitda kamol topishi, sifatli va har tomonlama ta’lim olishini ta’minlash bizning doimiy ustuvor vazifamizdir”

Inklyuziv ta’lim tamoyili "inklyuziv jamiyat" tushunchasiga asoslanadi, bunda shaxslar irqi, dini, madaniyati va nogironligidan qat’i nazar, boshqalarni ijtimoiy faoliyatda faol va teng huquqli ishtirok etishga jalb qilishga rag‘batlantiriladi. Bunday yondashuv barchaning manfaatini ko‘zlaydi, ularning mustaqil yashash imkoniyatlarini oshiradi va barchaning teng huquqliligini kafolatlaydi.

Inklyuziv ta’limning shakllanishi va rivojlanishi xalqaro miqyosda uzoq tarixiy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, keyingi yillarda turli mamlakatlarda inklyuziv ta’limni joriy etish tajribasi, uning rivojlanish tendensiyalari hamda ta’lim jarayoni ishtirokchilariga ko‘rsatadigan ta’sirini ilmiy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur yo‘nalishda xorijiy tadqiqotchilar tomonidan monografiyalar, ilmiy asarlar va tadqiqot natijalari e’lon qilinib, inklyuziv ta’limning nazariy hamda amaliy jihatlarini yoritishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Yevropa mamlakatlarida inklyuziv ta’limni tashkil etishning mazmun-mohiyati va asosiy tamoyillarini belgilovchi konseptual yondashuvlar shakllantirilgan. Shu bilan birga, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarning ta’lim olishi uchun zarur pedagogik, ijtimoiy va tashkiliy shart-sharoitlarni ta’minlashga qaratilgan davlat maktab ta’limining tegishli me’yoriy-huquqiy asoslari yaratilgan. Rossiya ta’lim siyosati inklyuzivlikni ta’lim sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni o‘zgartirishga qaratilgan tamoyil sifatida ta’kidlaydi.

Hozirgi vaqtda maxsus ta’lim modelini o‘zgartirish zarurligi ko‘rinib turibdi. Ushbu qayta ko‘rib chiqilgan modelda maxsus va umumiy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik yanada samarali tashkil etish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

Inklyuziv jarayonni resurslar bilan ta’minlash umumiy ta’limdagi tashkiliy va mazmunli o‘zgarishlarning muhim tizimli tarkibiy qismidir. Rossiyaning inklyuziv amaliyotdagi tajribasi ta’lim muassasalarida uzoq vaqt davomida eksperimental va loyihaviy yondashuvlar bilan bog‘liq bo‘lib, unda muallif ta’lim sharoitlarini imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlariga moslashtirgan. Shu sababli, turli toifadagi bolalar uchun inklyuziya jarayonining sifati va samaradorligini professional baholash masalasi muhim ahamiyatga ega.

Eng yuqori darajalarda qabul qilinadigan qarorlar bilan tavsiflanadigan yuqoridan pastga o‘zgarishlar strategiyasi doirasida muayyan ta’lim muassasasining inklyuziv yondashuvni qabul qilishga va xatolarni tuzatishga tayyorligini baholash juda muhimdir. Hozirda maktab ikkita asosiy bosqichni boshdan kechirayotgani e’tirof etilmoqda: inklyuziv rivojlanish strategiyasiga tayyorgarlik bosqichi hamda ta’lim jarayoni, madaniyati va amaliyotini boshqarishda o‘zgarishlarni amalga oshirish bosqichi.

Xorijiy tadqiqotchilar qarashlarida inklyuziv ta’lim har bir bolaning individual xususiyatlari va ta’limiy ehtiyojlarini e’tiborga olishga asoslangan yondashuv sifatida talqin etiladi. Bunda alohida ta’lim ehtiyojiga ega, turli milliy-etnik muhitdan kelib chiqqan yoki muayyan ijtimoiy guruh vakili bo‘lgan o‘quvchilarning shaxsiy qadr-qimmati hurmat qilinib, ularning sifatli ta’lim olishlari uchun teng imkoniyatlar yaratish ustuvor vazifa sifatida qaraladi.

Inklyuziv ta’limni rivojlantirishning mintaqaviy modellari mazkur jarayonning ijtimoiy-pedagogik, tashkiliy-boshqaruv va moliyaviy jihatdan ta’minlanganlik darajasiga ko‘ra o‘ziga xos xususiyatlar kasb etadi. Turli hududlarda inklyuziv ta’limni tashkil etish va takomillashtirish mexanizmlari, avvalo, ta’lim tizimining institutsional imkoniyatlari, pedagogik jamoaning inklyuziv qadriyatlarga tayyorgarligi, psixologik-pedagogik xizmatlarning rivojlanganlik holati

hamda jamoatchilik institutlarining ushbu jarayondagi ishtiroki bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, mintaqaviy modellarni o‘zaro farqlashda ta’lim jarayonining mazmuni bilan bir qatorda, uni amalga oshirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari va resurs imkoniyatlarini ham kompleks baholash muhimdir.

Moskvada inklyuziv ta’limning shakllanishi va rivojlanishi turli pedagogik izlanishlar, tajriba-sinov loyihalari hamda innovatsion yondashuvlarning bosqichma-bosqich joriy etilishi bilan tavsiflanadi. Jamiyatda axborot-kommunikatsiya vositalari va ommaviy axborot manbalari orqali inklyuziv ta’limning mazmun-mohiyati to‘g‘risida xabardorlikning ortib borishi natijasida umumiy rivojlanayotgan bolalarning ota-onalarida ham mazkur ta’lim shakliga nisbatan qarashlar va munosabatlar transformatsiyalanib bormoqda. Shu bilan birga, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarning ota-onalari tomonidan ta’lim tashkilotlaridan individual ehtiyojlarni hisobga oluvchi moslashtirilgan ta’lim sharoitlari, pedagogik-psixologik ko‘mak va zarur qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini taqdim etish talabi tobora kuchaymoqda. Bunday yondashuvda inklyuziv ta’limning muhim natijalaridan biri sifatida bolaning ta’lim muhitiga ijtimoiy-pedagogik moslashuvi, mustaqil faoliyatga tayyorligi va tengdoshlar jamoasida to‘laqonli ishtirokini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Kattalarning jamiyatdagi mavqei o‘zgarmoqda, ota-onalar orasida nogironligi bo‘lgan shaxslarni jamiyatga integratsiya qilishning ijtimoiy ahamiyati haqida xabardorlik ortib bormoqda, biroq bu umumiy ijobiy o‘zgarishlar ba’zan alohida hodisalar soyasida qolishi mumkin. Har qanday ijtimoiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda ommaviy axborot vositalarining roli hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xorijlik olimlarning ta’kidlashicha, inklyuziv imijning samaradorligi o‘qituvchining "universalligi" bilan bog‘liq. Bu davlat maktablarida pedagoglarni tayyorlashning yangi tamoyilidir. U o‘qituvchining akademik malakasi bilan bog‘liq emas, balki umumpedagogik kompetensiyalar va ko‘nikmalar bilan bog‘liq bo‘lib, ular konfessional xarakterga ega. Rossiya Federatsiyasida mazkur ta’lim standartlari talablarini amaliyotga tatbiq etayotgan oliy ta’lim

muassasalarining tegishli o‘quv-uslubiy tuzilmalarida maxsus va inklyuziv ta’limning psixologik-pedagogik jihatlarini tadqiq etishga yo‘naltirilgan kafedralar faoliyat yuritadi. Ushbu bo‘linmalarning ustuvor vazifalari inklyuziv ta’lim mazmunini zamonaviy pedagogik talablar asosida takomillashtirish, ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va muntazam yangilab borish, shuningdek, mazkur yo‘nalishda faoliyat olib boruvchi pedagoglar hamda boshqa mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi o‘quv-metodik majmualar, darslik va o‘quv qo‘llanmalarni yaratishdan iborat. Mazkur faoliyat inklyuziv ta’limni tashkil etishning nazariy va amaliy asoslarini uyg‘unlashtirish hamda pedagog kadrlarni kasbiy faoliyatga kompleks tayyorlashga qaratilgan.

Alohida e’tiborga muhtoj bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish va tushkunlik hissining oldini olish uchun o‘qituvchilar ushbu bolalarning ota-onalari bilan hamkorlik qilishlari zarur. Inklyuziv ta’lim sharoitida pedagoglar sinfdagi barcha o‘quvchilarning o‘quv muhitini yaxshilash uchun mas’uliyat hissini shakllantirishlari shart. Bu o‘qituvchilarning boshlang‘ich tayyorgarligi va ta’lim tizimining har bir bola uchun foydali bo‘lishini nazarda tutadi. Alohida e’tiborga muhtoj o‘quvchilarning qiziqishlari, bilim va qobiliyatlariga moslab o‘qitish umumiy sinf sharoitida olib boriladi.

Alohida ehtiyojli bolalarga yo‘naltirilgan inklyuziv ta’lim jamiyat uchun ham afzalliklar yaratadi. Bu jismoniy yoki aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolaning oddiy bolalar bog‘chasiga yoki maktabga integratsiyalashuviga ko‘maklashish yo‘lidagi dastlabki qadamdir. Integratsiyalashgan jamiyatda barcha insonlar teng huquqlarga ega bo‘lib, birlik hissini shakllantiradi. Inklyuziv ta’lim orqali jamiyat yanada integratsiyalashgan jamiyatga aylanadi va har bir bolaga foyda keltiradigan samarali pedagogik amaliyotlarni rag‘batlantiradi. Shaxslarning bir-biridan farq qilishi normal holat hisoblanadi va ta’lim jarayonini moslashtirish ta’lim tizimi talablariga emas, balki bolaning ehtiyojlariga moslashtirilishi lozim.

Agar barcha tipik bolalar umumta’lim maktablariga qabul qilinsa, u holda alohida e’tibor talab qiladigan bolalarni ham kiritish kerak.

Inklyuziv ta’lim oila va maktabgacha ta’limdan boshlanishi kerak. Bunday yondashuv bolalarning boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarini osonlashtiradi, ularning ijtimoiy muhit talablariga javob berishlariga imkon beradi va shu bilan birga, ularda kundalik hayotlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirish, atrof-muhitga moslashish, umumta’lim maktablarida tengdoshlari bilan hamqadam bo‘lish va o‘z vazifalariga nisbatan mas’uliyat hissini shakllantirishga yordam beradi. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limning asosiy mazmuni har bir o‘quvchining ta’lim olish huquqini teng asosda ta’minlash, uning individual ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish hamda barcha bolalar uchun qulay pedagogik muhit yaratishga qaratiladi. Mazkur yondashuv alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan, ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlashga muhtoj, xulq-atvorida muayyan qiyinchiliklar kuzatiladigan yoki turli hayotiy sharoitlar sababli ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ham umumiy ta’lim jarayoniga to‘laqonli jalb etishni nazarda tutadi. Shuningdek, inklyuziv ta’lim o‘quvchilarni milliy yoki etnik mansubligi, irqi, tashqi ko‘rinishi, ijtimoiy kelib chiqishi, oilasining moddiy imkoniyatlari, ma’naviy-ijtimoiy holati, oilaviy sharoiti, jismoniy yoki psixofiziologik rivojlanish xususiyatlariga ko‘ra tabaqalashtirishni inkor etadi. Aksincha, unda har bir bolaning shaxsiy qadr-qimmati, ta’lim olish ehtiyoji va individual rivojlanish imkoniyatlarini e’tirof etish asosida teng huquqli ishtirokini ta’minlash, ta’lim mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini o‘quvchilarning individual xususiyatlariga moslashtirish ustuvor pedagogik tamoyil sifatida qaraladi.

Shuningdek, u har bir bola uchun mavjud bo‘lgan turli imkoniyatlarni targ‘ib qiladi va qo‘llab-quvvatlaydi.

Umumta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni amalga oshirish turli xil muammolarni keltirib chiqaradi va bu sohada mas’ul shaxslar hamda pedagoglardan katta umidlar kutiladi. Bu ta’lim modelida sinf rahbari, fan o‘qituvchilari, tarbiyachilar va kasbiy mahorat trenerlari yordam beradi. Oddiy rivojlanayotgan bolalar va alohida e’tibor talab qiladigan bolalarning farqi shundaki, ular tengdoshlari bilan muloqot qila olmaydilar, bu esa jismoniy nuqsonlari, uyatchanligi, tortinchoqligi yoki

kamsitish tajribasidan kelib chiqishi mumkin. Bundan tashqari, ba’zi bolalar uy sharoitida haddan tashqari erkalanish natijasida qaysarlik va injiqlik qilishlari mumkin.

Inklyuziv ta’limni amalga oshirayotgan har bir umumta’lim muassasasida maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan pedagog ishlaydi. Ushbu muassasalar obro‘sining ahamiyati maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan o‘qituvchilar bilan chambarchas bog‘liq. Bu ularning guruh tarbiyachilarini yo‘naltirish va qo‘llab-quvvatlash, ularni maxsus o‘quv materiallari va resurslar bilan ta’minlash, ota-onalar va o‘qituvchilar bilan axborotli mashg‘ulotlar o‘tkazish, zarur hollarda dars jadvallari va o‘quv dasturlarini tegishli asoslar bilan o‘zgartirishdagi roli bilan bog‘liq. Bundan tashqari, ushbu tizim pedagoglarning ushbu sohada kasbiy o‘sishiga, bilimini oshirishga, tibbiy xizmatni tashkil etishga va qo‘llab-quvvatlovchi psixologik muhitni shakllantirishga yordam beradi. Ta’lim dasturiga turli xil o‘ziga xos, hududiy va bosqichli omillar ta’sir ko‘rsatadi. Bu omillar jamiyatning istiqbollari, ehtiyojlari, resurslarga bo‘lgan talabi va mutaxassislar tayyorlash masalalarini hal qiladi.

Mamlakatimizda izchil amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri – yosh avlodni har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega shaxslar sifatida tarbiyalashdan iborat. Mazkur jarayonda yoshlarning zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni puxta egallashi, raqobatbardoshligini oshirishi hamda xalqaro miqyosda munosib natijalarga erisha oladigan barkamol avlod sifatida shakllanishi uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan, nogironligi bo‘lgan va rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni himoya qilish doimo davlat va jamiyatning ustuvor yo‘nalishi bo‘lib kelgan. O‘zbekiston Respublikasida rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va teng imkoniyatlarini ta’minlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ularning kundalik hayotidagi to‘siqlarni bartaraf etish, ta’limni tashkil etish va boshqarishning zamonaviy usullarini o‘zlashtirish, uning sifati va samaradorligini oshirish, aholining turli

qatlamlari uchun ta’limning uzluksizligini ta’minlash shular jumlasidandir.

Bugungi kunda jamiyatning nogironligi bo‘lgan bolalarga nisbatan ijtimoiy-pedagogik munosabatida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, ularning individual imkoniyatlari va o‘ziga xos jihatlarini e’tirof etish, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish hamda ta’lim olishdagi teng huquqlarini ta’minlashga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Mazkur yondashuvning amaliy va g‘oyaviy ifodasi inklyuziya tamoyillariga asoslangan ta’lim konsepsiyasida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Inklyuziya bugungi ta’lim tizimini takomillashtirishning muhim konseptual yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lib, uning samarali amalga oshirilishi jamiyatning ijtimoiy munosabatlari, qadriyatlar tizimi hamda inson huquqlariga bo‘lgan qarashlarning yangilanishini taqozo etadi. Mazkur yondashuv xalqaro miqyosda e’tirof etilgan tenglik, inson qadr-qimmati va ijtimoiy hamkorlik tamoyillariga asoslanadi. Uning mohiyati har bir shaxsning jismoniy, psixologik, ijtimoiy yoki boshqa individual xususiyatlaridan qat’i nazar, jamiyat hayotining turli sohalarida faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan, inklyuziv yondashuv jamiyatning barcha a’zolarining manfaatlarini uyg‘unlashtirish, ularning mustaqil hayot kechirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ta’lim, mehnat, ijtimoiy va madaniy faoliyatda teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlashga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik mexanizm sifatida qaraladi.

N. M. Nazarovaning ta’kidlashicha, “interaktiv yondashuv” sifatida umumlashtirilgan inklyuziyaning ko‘plab xorijiy falsafiy asoslari shuni ko‘rsatadiki, maxsus o‘quv ehtiyojlari bo‘lgan o‘qituvchining o‘zini o‘zi rivojlanishi va o‘zini o‘zi anglashi faqat doimiy va faol o‘zaro ta’sirning dialogik jarayonida, ijtimoiy-madaniy muhitda mumkin[105, 6-12 betlar].

“Inklyuzivlik ijtimoiy hayotning, ijtimoiy tuzilmaning yangi paradigmasini o‘rnatadi, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy jarayonlar va ijtimoiy amaliyotda jiddiy o‘zgarishlarni talab qiladi, jamiyatdagi har bir kishining maksimal ijtimoiylashuviga erishishni o‘z ichiga oladi. Jamiyat alohida ehtiyojli bolalarni inklyuziv sharoitda ta’lim olishga tayyorlash

bilan shug‘ullanmasligi kerak, jamoat ongidagi odatiy paradigmani o‘zgartirish zarur” [8, 5-16-betlar].

Inklyuziv ta’limning samaradorligini ta’minlashda asosiy e’tiborni alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolani mavjud ta’lim tizimiga moslashtirishga emas, balki ta’lim muhitining o‘zini ularning individual imkoniyatlari va ehtiyojlariga muvofiq qayta tashkil etishga qaratish maqsadga muvofiqdir. “Shu nuqtayi nazardan, o‘quv rejalari, dasturlar, pedagogik yondashuvlar hamda ta’lim resurslarini moslashuvchan tarzda takomillashtirish, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish va zarur resurslarni jalb etish ko‘lamini kengaytirish inklyuziv ta’limni rivojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi” [8].

Inklyuzivlik ijtimoiy institutlarni o‘zgartirishni talab qiladigan ijtimoiy tuzilishga yangicha qarashni anglatadi. Uni sun’iy ravishda o‘stirib bo‘lmaydi. Uning evolyutsiyasi ijtimoiy hayotning barcha sohalarida har bir shaxsning nafaqat biologik, balki ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarini ham qondirishga mo‘ljallangan ijtimoiy institutlarni barpo etishdan boshlanadi [80].

Ravshanki, inklyuzivlikni qo‘llab-quvvatlovchi muhitni shakllantirish va unga nisbatan ijtimoiy xavf-xatarlarni bartaraf etish inklyuziv jarayonlarni boshlash va ularni doimiy ravishda rivojlantirishni, shuningdek, jamoaviy darajada jamiyat ongidagi to‘siqlarni bartaraf etishni taqozo etadi. Qo‘shilish mexanizmlari o‘z-o‘zidan ijtimoiy xususiyatga ega.

Xalqaro olimlarimiz ta’kidlaganidek, ijtimoiy chetlanish shaxsning biologik yoki ruhiy buzilishlaridan emas, balki jamiyatning ichki tuzilmalaridagi turli disfunksiyalardan kelib chiqadi [74, 51-58-betlar].

E.V. Ketrishning fikriga ko‘ra, “inklyuzivlik ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilariga taalluqlidir: alohida ta’limga muhtoj bolalar va ularning ota-onalari, normal rivojlanishi bo‘lgan o‘quvchilar va ularning oila a’zolari, o‘qituvchilar va ta’lim sohasidagi boshqa mutaxassislar, ma’muriy xodimlar” [151].

“Inklyuziv ta’lim umumiy pedagogika falsafasi, konseptual asoslari, tamoyillari va qoidalariga asoslanadi. Shu bilan birga, uning asosiy tamoyillari” [144, 14-bet]:

1. Shaxsning qadr-qimmati uning mahorati va yutuqlariga bog‘liq emas. Har bir inson o‘ziga xos!

2. Har bir inson his qilish va fikrlash qobiliyatiga ega.

3. Har kim boshqalar bilan muloqotda bo‘lish va o‘z fikrini bildirish huquqiga ega.

4. “Haqiqiy tarbiyaga faqat haqiqiy munosabatlarni yaratish orqali erishish mumkin: hamma odamlar bir-biriga muhtoj, hamma odamlar tengdoshlarining yordami va do‘stligiga muhtoj” [144, 14-bet].

Inklyuziv ta’lim – muqobil ravishda inklyuziya deb ham ataladi, asosiy ta’lim muassasalarida maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarni o‘qitish jarayonini tavsiflash uchun qo'llaniladigan pedagogik yondashuvni anglatadi. Inklyuziv ta’lim barcha o‘quvchilar uchun ochiq bo‘lishi uchun mo‘ljallangan o‘ziga xos ta’lim metodologiyasini ifodalaydi. Ushbu doirada o‘quvchilarning individual farqlari va o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan o‘rganishdagi to‘siqlar muntazam ravishda bartaraf etiladi va shu bilan ularning to‘liq salohiyatini rivojlantirish va ro‘yobga chiqarishga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi umumta’lim maktablarining Davlat ta’lim standartida shunday deyilgan: “Inklyuziv ta’lim – bu barcha o‘quvchilarning turli ehtiyojlarini qondiradigan va ularga ta’sir ko‘rsatadigan, muvaffaqiyatli ta’lim olish va ijtimoiylashuv uchun qulay shart-sharoitlar yaratadigan, shu orqali bolalarni ajratishning barcha shakllarini rad etadigan dinamik jarayondir”.

Inklyuziv ta’lim barcha o‘quvchilarning xilma-xil o‘rganish qobiliyatlari va individual farqlarini e’tirof etadigan va shu bilan har bir bola uchun eng mos o‘qitish usullarini tanlaydigan pedagogik yondashuvni anglatadi. Ushbu tizim moslashuvchanligi bilan ajralib turadi va nafaqat rivojlanishda nuqsonlari bo‘lgan bolalarning, balki jinsi, millati, dini, til kelib chiqishi yoki turli madaniy kelib chiqishidan qat’i nazar, barcha bolalarning ehtiyojlarini qondirish uchun mo‘ljallangan. Boladan tizimga moslashishni talab qilish o‘rniga, tizimning o‘zi bolani moslashtirish uchun moslashadi. Barcha o‘quvchilar uchun ta’limni amalga oshirishda turli xil innovatsion metodologiyalar,

tabaqalashtirilgan ta’lim dasturlari va individual o‘quv dasturlari qo‘llaniladi.

Inklyuziv ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri unda ishtirok etuvchi subyektlar tarkibining kengligi va xilma-xilligidir. Mazkur ta’lim jarayonining asosiy ishtirokchilari sifatida turli individual xususiyat va ta’limiy ehtiyojlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar, jumladan, alohida ta’lim ehtiyojlari mavjud bolalar, rivojlanishida psixofiziologik o‘ziga xosliklar kuzatiladigan hamda rivojlanish imkoniyatlari turlicha bo‘lgan tarbiyalanuvchilar, shuningdek, ularning ota-onalari yoki qonuniy vakillari namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, inklyuziv ta’limni samarali tashkil etishda umumiy ta’lim pedagoglari bilan bir qatorda psixolog, ijtimoiy pedagog, maxsus pedagog, logoped, tiflopedagog, oligofrenopedagog, jismoniy tarbiya mutaxassisi, terapevt va boshqa tegishli soha vakillarining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, ta’lim muassasasi rahbariyati ham inklyuziv muhitni shakllantirish, ishtirokchilar o‘rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirish hamda ta’lim jarayonining barcha subyektlari uchun zarur tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratishda muhim subyekt hisoblanadi. Har bir ishtirokchi inklyuziv ta’lim jarayoniga o‘zining kasbiy vazifalari, ijtimoiy mavqei, ehtiyojlari va manfaatlari nuqtayi nazaridan yondashadi. “Shu sababli ularning o‘zaro hamkorligi, inklyuziv ta’limning insonparvarlik va tenglikka asoslangan qadriyatlarini anglash hamda amaliy faoliyatga tatbiq etish jarayonning yaxlitligini ta’minlovchi muhim omillardan biridir. Mazkur yondashuv ta’lim jarayonida barcha ishtirokchilarning manfaatlarini uyg‘unlashtirish, individual imkoniyatlarni hisobga olish va inklyuziv ta’limga bo‘lgan ijtimoiy-pedagogik ehtiyojni amaliy jihatdan ro‘yobga chiqarish imkonini beradi” [153].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki “...nazariy-uslubiy ma’noda har bir shaxsda ma’lum bir o‘rtacha me’yordan ma’lum bir og‘ishlar mavjud va shu bilan bog‘liq holda u boshqalardan ajralib turadigan mustaqil shaxsdir. Har bir shaxsning o‘ziga xos ehtiyojlari bor, jamiyat tashqi sharoitlarga moslashishi kerak. Butun ijtimoiy hayot – bu shaxslar, guruhlar va jamiyat o‘rtasidagi faoliyat tashkilotda muntazam murosa

sifatida qaraladi. Shu bilan birga, shaxslarning huquqlarini hurmat qilish jamiyat huquqlarining tan olinishini ta’minlaydi – deb yozadilar” [155].

“Bugungi kunda alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarni jamiyat hayotiga faol jalb etish, ularning maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tizimida teng ta’lim imkoniyatlaridan foydalanishini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ijtimoiy siyosatning insonparvarlik va inklyuzivlik tamoyillari asosida rivojlanib borayotganini ko‘rsatadi. Unda ta’kidlanishicha, maxsus (korreksion) qo‘llab-quvvatlashning butun tizimining asosiy maqsadi va huquqiy asosi alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni jamiyatga jalb qilishdir” [105].

Tadqiqotchi alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni tarbiyalashda bunday yondashuvning muhimligini ta’kidlaydi, uni ilg‘or madaniy, huquqiy va iqtisodiy maqomni aks ettiruvchi jamiyat va hukumat imperativi sifatida ko‘radi. Muallifning ta’kidlashicha, “bu bosqich jamiyat va davlatning alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga, shu jumladan nogironligi bo‘lgan bolalarga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishni, nafaqat ularning teng huquqlarini tan olishni, balki ularning hayotning turli sohalariga jalb etilishiga imkon berishni talab qiladi.” [105, 67-bet].

“Inklyuziv ta’limning mazmuni faqat alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash bilangina cheklanmaydi. U har bir bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ta’lim jarayonida teng ishtirok etishi, zarur sharoitlardan foydalanishi hamda o‘z salohiyatini to‘laqonli namoyon etishi uchun qulay pedagogik muhitni yaratishni nazarda tutadi” [105]. Asosiy tarkibiy qismlarga quyidagilar kiradi:

• Ota-onalar bilan hamkorlik qilish, chunki ular farzandlarini qo‘llab-quvvatlash va ularning salohiyatini rivojlantirishda ajralmas qismdir.

• Ota-onalar o‘rtasida ijtimoiy hamkorlik va qo‘llab-quvvatlashni rag‘batlantirish.

• Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachilar bilan tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali ularning guruhdagi har bir bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda pedagogik va psixologik

ko‘mak ko‘rsatish bo‘yicha zarur bilim, ko‘nikma hamda kompetensiyalarini rivojlantirish.

Agar amaliyotda inklyuziyani amalga oshirishdagi to‘siqlar haqida gapiradigan bo‘lsak, unda bu yerda turli mualliflarning fikrlari o‘xshashdir.

Masalan, LG Korol inklyuziv ta’lim uchun quyidagi to‘siqlarni aniqlaydi [66, 106–111-betlar]:

1.1.-jadval

Inklyuziv ta’limdagi to‘siqlar (L. G. Korol bo‘yicha)

To‘siqlar	**Sababi**
“Oddiy” bolalar va ularning ota-onalari tomonidan salbiy munosabat	Inklyuzivlik odatda rivojlanayotgan va muammoli bolalar o‘rtasida ijtimoiy muloqotni yaratishga yordam beradi. Biroq, ba’zida bu “oddiy” bolalar va ularning ota-onalari uchun muammolarni keltirib chiqaradi. Buning sababi, ota-onalar alohida ehtiyojli bolalarning sinfda bo‘lishi bolaning rivojlanishini kechiktirishi mumkinligidan xavotirda.
Noaniq chegaralar	Qo‘shilish chegaralarini belgilash muammosi asosiy to‘siq bo‘lib, ko‘pincha savol tug‘iladi: biz aqliy nuqsonlari bo‘lgan barcha bolalarni, shu jumladan, harakat va xatti-harakatlarning buzilishini murakkablashtiradigan aqliy nuqsonlari bo‘lgan bolalarni ham qamrab olishga harakat qilishimiz kerakmi?
Oddiy rivojlanayotgan bolalar va alohida ta’limga muhtoj bolalar bilan teng darajada muvaffaqiyatli ishlay oladigan mutaxassislarning yetishmasligi	Inklyuziv ta’limni rivojlantirish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar va boshqa mutaxassislar ta’limning ushbu shakli uchun zarur bo‘lgan kasbiy rollarga darhol mos kelmaydi. Bu to‘siqni yengib o‘tish o‘qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirishga prinsipial jihatdan yangicha yondashuvni taqozo etadi.
Huquqni tan olish	Barcha bolalar tengligi, ularning ta’lim olish imkoniyatlari va jamiyatda to‘laqonli hayot kechirish huquqini tan olish postulatini qabul qiladigan ijobiy jamoatchilik fikrining yo‘qligi. Ushbu to‘siqning mavjudligi inklyuziv ta’lim falsafasini qabul qilish bilan bog‘liq uzoq muddatli muammolarni keltirib chiqaradi.


Amerikalik olimlar E.K.Slicker va D.J.Palmer inklyuziv ta’limni mazmunli tushunish uning tarkibiy xususiyatlarini aniq tushunishga asoslanishini ta’kidladilar, inklyuziv ta’limning tarkibiy ahamiyatini qo‘llab-quvvatladilar va barcha bolalar uchun ta’limning umumiy tarkibiy qismlarini aniqladilar. O‘qitishda ushbu to‘plamlarning mavjudligi ta’lim jarayonining inklyuzivligidan dalolat beradi. 1.2-jadvalda inklyuziv ta’limning tarkibiy xususiyatlarining tarkibiy qismlarini amalga oshirish maqsadlari va natijalari keltirilgan.

1.2.-jadval

Inklyuziv ta’limning tarkibiy xususiyatlari

№	Komponent	Maqsad	Natija
1	maktab dasturi	Moslashuvchan va izchil o‘quv mazmuni bilan bolaning individual ehtiyojlariga e’tibor qaratish.	Bolaning individual ehtiyojlari hisobga olinadi. Trening mazmuni moslashuvchan va izchil.
2	mavjudligi	Ta’lim olish imkoniyatini amalga oshirish	Asosiy e’tibor maktab jamoasining barcha a’zolarining ishtirokini rag‘batlantiruvchi strategiyani ishlab chiqishga qaratilgan.
3	kompetensiya	Maktab jamoasi a’zolarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish.	Inklyuziv ta’limning ahamiyatini ifodalash uchun kasbiy kompetensiyani rivojlantiradi.
4	hamkorlik	Jamiyatning inklyuzivligini ta’minlash.	Inklyuziv ta’lim muhitini yaratishda idoralararo hamkorlik yaxshilanadi.
5	ijtimoiylashuvga yo‘naltirish	Barcha bolalarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta’minlaydigan dasturlar yaratish.	Ta’limda alohida ehtiyojli bola sinfning ijtimoiy hayotida, ta’lim faoliyatining barcha turlarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.
6	turli xillik	Bolaning o‘z imkoniyatlarini ochib berish uchun atrof-muhitda munosabatlarni o‘rnatishni o‘rganish.	Bu bolaning o‘z salohiyatiga erishish uchun maksimal yo‘lni ochadi. Asosiy e’tibor ijtimoiy faoliyat uchun jozibali tanlovga qaratilgan.
7	monitoring	Sinf hayotiga maqbul qo‘shilish uchun o‘qituvchilarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish.	Har bir bolaning individual muvaffaqiyati hisobga olinadi. Umumiy inklyuziv jarayonning natijalari nazorat qilinadi.
8	taxmin qilish	Pedagoglarning inklyuziv ta’lim haqidagi qarashlarini bashorat qilish qobiliyatini rivojlantirish.	Ular inklyuziv usullar va o‘qitish usullaridan foydalanadilar.

Maktablarda vaziyatni yaxshilashning muhim yo‘nalishlari bo‘lgan inklyuzivlikning o‘zaro bog‘liq uchta jihatini bor: inklyuziv madaniyatni yaratish, inklyuziv siyosatni ishlab chiqish va inklyuziv amaliyotni joriy etish (1-rasm).



1.1-rasm. Inklyuziyaning uchta jihati

Umumta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni joriy etishning muvaffaqiyati yoki zaifligi maktab jamoasi tomonidan qabul qilingan qarorlarning maqsadga muvofiqligi darajasi bilan belgilanadi. Shuning uchun inklyuziya indeksining asosiy vazifasi maqsadga muvofiqlikni o‘rganishdir. Inklyuziv maktab muhitini shakllantirish jarayonida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilarning tengdoshlari orasida to‘laqonli a’zo sifatida e’tirof etilishiga alohida e’tibor qaratiladi. Bunday muhitda o‘zaro hurmat va qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, har bir bolaning individual jihatlarini qadrlash hamda ta’lim jarayonida tengdoshlar bilan faol hamkorlik qilishga undovchi ijobiy munosabatlarni rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Uchala jihat ham ta’lim tashkilotida inklyuzivlikni rivojlantirish uchun muhimdir.

Ushbu nazariy xususiyatlar shuni ko‘rsatadiki, barcha bolalarning ta’lim tizimidagi ishtiroki qadriyat bo‘lib, o‘rganishni tarbiya jarayonidagi ijobiy o‘zgarishlarga yo‘naltiradi.

Ta’lim tashkilotida inklyuziv madaniyatni qaror toptirish barcha ishtirokchilar o‘rtasidagi hamkorlik, o‘zaro hurmat va qo‘llab-quvvatlashga asoslangan ijobiy muhitni yaratishni nazarda tutadi. Bunday ta’lim muhiti har bir shaxsning imkoniyatlarini namoyon etishi, rivojlanishi va jamoa hayotida faol ishtirok etishi uchun teng sharoit

yaratadi. Shu bilan birga, har bir a’zoning shaxsiy qadri va jamoaga qo‘shadigan hissasi umumiy rivojlanishning muhim omiliga aylanadi. Natijada maktab faoliyatini takomillashtirish bir martalik tadbir emas, balki muntazam va uzluksiz rivojlanish jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi. Inklyuziv muhitni mustahkamlashda darsdan tashqari mashg‘ulotlar, umum-maktab tadbirlari, turli bayram va sport musobaqalari, shuningdek, maxsus pedagoglar, o‘quvchilar, ota-onalar hamda boshqa ijtimoiy hamkorlar bilan tizimli hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda boshlang‘ich va yuqori sinf o‘quvchilarining maktab hayotidagi tadbirlarga faol jalb etilishi o‘zaro muloqot, hamjihatlik va ijtimoiy mas’uliyatning rivojlanishiga xizmat qiladi. Barcha darslar va tadbirlar alohida ta’limga muhtoj va nogiron o‘quvchilarga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Inklyuziv siyosatni shakllantirish o‘quvchilar uchun turli imkoniyatlarni yaratadi va barcha shaxslarga xizmat qiladigan maktablarni tashkil etishni nazarda tutadi. Qo‘llab-quvvatlash talabalarning keng qamrovli ta’lim ehtiyojlarini qondirish va ta’limning eng yaxshi natijalariga erishish uchun mo‘ljallangan barcha chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Yordamning barcha shakllari yagona tizimga birlashtirilgan. Qo‘llab-quvvatlash tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun quyidagilar zarur:

1. Maktab faoliyatini inklyuziv yondashuv asosida tashkil etish, ushbu yo‘nalishdagi ustuvor vazifalarni belgilash hamda inklyuziv ta’limni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqib, uni belgilangan muddatlarda tasdiqlash va zarur mahalliy me’yoriy-huquqiy hujjatlarni joriy etish.

2. Muayyan guruhning emas, balki maktabdagi barcha o‘quvchilarning farovonligiga e’tibor qaratadigan o‘zgartirishlar kiritish.

3. O‘quvchilar o‘rtasidagi xilma-xillik ta’lim tajribasini yaxshilash uchun katalizator bo‘lib xizmat qilishini tan olish.

4. Ta’lim inklyuziyasi ijtimoiy integratsiyaning muhim tarkibiy qismi ekanligini qabul qilish.

Inklyuziv amaliyotlarni yaratish ta’lim jarayonini samarali boshqarish va resurslarni safarbar etishni taqozo etadi. O‘qitish o‘quvchilarning o‘ziga xos qobiliyatlarini tan olishga, ularning o‘quv jarayoniga jalb etilishiga, amaliy va hayotiy tajribalarini hisobga olishga yo‘naltiriladi.

O‘quv muhitini moslashtirish quyidagilarni o‘z ichiga olishi lozim:

- ta’lim resurslaridan jismoniy foydalanishni kafolatlash.
- inklyuziv ta’limga ko‘maklashuvchi pedagoglarni tayyorlash.
- o‘quvchilarning talablariga ko‘ra individual va qo‘shimcha yordam ko‘rsatish.
- shaxsiylashtirilgan dasturlar bo‘yicha o‘qishni davom ettirish imkoniyatini beradi.
- xususiy dasturlarda tahsil olayotgan talabalarni baholash va attestatsiyadan o‘tkazish tamoyillari va tartiblarini o‘zgartirish.

Ta’lim muhitining moslashuvi ta’lim organlaridan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarning ta’lim olishi yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan muhim qarorlar qabul qilishni talab qiladi.

Inklyuziv madaniyat pedagogik madaniyat bilan chambarchas bog‘liq. Ta’lim falsafasi tadqiqotchilaridan biri N.B.Krilova pedagogik madaniyatga quyidagi ta’rifni beradi – “bu bolaga bo‘lgan qadriyat munosabatlari va ta’lim jarayonida amalga oshiriladigan ta’lim (nafaqat miqdor, balki tizim).

Pedagogik madaniyatning ko‘rsatkichlari ta’limning holati va sifati, jamiyatning ta’lim darajasi, muayyan maktabda ta’limni tashkil etish madaniyati, o‘qituvchining shaxsiy mahoratidir” [93].

Inklyuziv madaniyat – “bu bir-biriga nisbatan insonparvar, sabr-toqatli va xavfsiz munosabatda bo‘lish, hamkorlik qilish va har bir insonni qadrlashni ko‘rsatadigan jamiyatning yutug‘idir. Psixologik va pedagogik adabiyotlarni o‘rganish orqali biz o‘qituvchining inklyuziv madaniyatini o‘rganishning turli xil innovatsion usullarini aniqladik” [105].

V.V.Xitryuk inklyuziv ta’limni inklyuziv madaniyatning dastlabki bosqichi sifatida tavsiflaydi. Uning ta’kidlashicha, “Inklyuziv ta’lim — bu o‘qituvchilarga inklyuziv ta’lim muhitida samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalarni, bilim va

ko‘nikmalarni shakllantirish, shuningdek, inklyuziv ta’lim qadriyatlari va texnologiyalarini o‘zlashtirish imkonini beruvchi shaxsiy xususiyatdir”[165].

Akademik bo‘lajak o‘qituvchilarda inklyuziv madaniyatni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan turli xil ta’lim sharoitlarini ta’kidlaydi:

1. Ta’lim jarayonini kompetensiyaviy asosda tuzish.

2. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarning inklyuziv madaniyatini rivojlantiruvchi didaktik modelni ishlab chiqish.

3. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarda inklyuziv madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan dasturni yaratish va amalga oshirish[172, 80-84-betlar].

Inklyuziv tayyorgarlikning tarkibiy qismlari sifatida: aksiologik, istiqbolli, shaxsiy va xulq-atvor komponentlarini keltirib o‘tgan [57, 38-41-betlar].

Inklyuziv ta’limning ustuvor yo‘nalishi – “alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalarni umumiy ta’lim jarayoniga to‘laqonli jalb etish, ular uchun teng va qulay o‘quv sharoitlarini yaratish hamda sifatli ta’lim olish huquqini ta’minlashdan iborat. Ushbu g‘oyaning amalga oshirilishi ko‘rsatilgan toifadagi bolalarning ijtimoiylashuviga yordam beradi” [105].

Ta'lim jarayonida barcha o‘quvchilar uchun tengni olish o‘qituvchisi inklyuziv madaniyatga oid muhim kompetensiyalariga bevosita bog‘liq. Inklyuziv ta’limni samarali tashkil etishda pedagogik ega bo‘lgan asosiy kompetensiyaga kerak (1.2-rasm).



1.2-rasm. Inklyuziv madaniyatning tarkibiy kompetensiyalari

Birinchi kompetensiya - motivatsion-qadriyatli va axboriy yuksalish kompetensiyasidir. Ush kompetensiya o‘qituvchining inklyuziv

ta’limlarini chuqur anglagan holda qabul qilishi, insonparvarlik va tenglik qadriyatlariga tayanib faoliyat yuritishi hamda har bir o‘quvchining ta'lim olish huquqini e’tirof etishi bilan tavsifi [71].

Ikkinchi kompetensiya - shaxsiy-kasbiy kompaniya kompetensiyasi. Inklyuziv madaniyatni egallagan pedagog bag‘rikenglik, mehr-oqibat, empatiya, sabr-toqat va ijtimoiy mas'uliyat kabi muhim shaxsiy sifatlarni namoyon etadi. Shu bilan birga, o‘z kasbiy mahoratini muntazam ravishda takomillashtirib borishga, yangi pedagogik ishlab chiqarishlarni o‘zlashtirishga va amaliy faoliyatga tatbiq etiladi.

Uchinchi kompetensiya - kognitiv-amaliy kompetensiyadir. Ushbu kompesiya o‘qituvchining in ta'limni tashkil etish o‘rganish, metodik tayyorgarligi va amaliy ko‘rinishini o‘z ichiga oladi.

“Motivatsion-qadriyatli, shuningdek, shaxsiy-kasbiy, kognitiv va amaliy kompetensiyalarning o‘zaro uyg‘unligi o‘qituvchida inklyuziv madaniyatning shakllanishiga zamin yaratadi. Bunday kompetensiyaviy tayyorgarlik barcha o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ular uchun teng, qulay va sifatli ta’lim muhitini tashkil etishga imkon beradi” [70].

Ta’limdagi alohida ehtiyojlarning xilma-xilligi nafaqat maktab jamoasida bag‘rikenglikni rivojlantiradi, balki o‘quvchilar resurslarini ko‘paytirishga ham yordam beradi.

Inklyuziv ta’limning muvaffaqiyatli joriy etilishini tekshirish uchun britaniyalik tadqiqotchilar inklyuziya indeksiga tayanish haqida yozadilar [28, 12-bet].

Belgilangan komponentlar orasida baholash komponenti pedagogik faoliyatning to‘g‘ri turlarini yaratish uchun ijtimoiy rag‘batni ta’minlaydi va inklyuziv ta’lim muhitida o‘qitish va tarbiyaning har bir sub’ektiga nisbatan sezgir munosabatni yaratishga yordam beradi. Inklyuziv sinf har bir bola va o‘qituvchining ijtimoiy qiymatini tan oladigan ikki bosqichli yondashuvdir.(1.3-rasm)

Barcha o‘quvchilarning faol ishtiroki. Inklyuziv maktab muhitida har bir bolaning ta’lim, tarbiya va ijtimoiy hayotda faol qatnashishi uchun teng imkoniyatlar yaratish muhim hisoblanadi. Bunda o‘quvchining sinf jamoasiga ijtimoiy moslashuvini kuchaytirish, maktabning umumiy

madaniy muhitiga jalb etilishini ta’minlash hamda chetda qolish holatlarining oldini olish ko‘zda tutiladi. Shuningdek, bolaning individual xususiyatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning mavjud salohiyatini to‘liq namoyon etishiga sharoit yaratish zarur.

“Inklyuziv madaniyatni shakllantirish, pedagogik tajribani boyitish hamda ta’lim jarayonidagi individual ehtiyojlarni nazariy jihatdan anglash inklyuziv muhitni barpo etishning muhim asoslarini tashkil etadi. Bunday yondashuv maktab jamoasiga o‘quvchilarning turli imkoniyat va ehtiyojlarini hisobga olgan holda mavjud qarashlarni qayta ko‘rib chiqish hamda inklyuziv ta’limni izchil takomillashtirishning barqaror mexanizmlarini shakllantirish imkonini beradi” [105]. Ushbu komponent uchun rag‘bat sifatida biz ta’lim jarayonini insonparvarlashtirishning sifat jihatidan yangi usullarini ishlab chiqishni aniqladik. Natijada: shuni aytish mumkinki, u inson qadr-qimmatini hurmat qilish va qabul qilish strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi, hayot faoliyatining atipik ko‘rinishlariga bag‘rikenglik ko‘rsatadi.

“To‘siqlar komponenti texnikasi jismoniy hamda ijtimoiy-pedagogik to‘siqlarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilib, turli cheklovlarni kamaytirish hamda zarur sharoitlarni yaratish orqali shaxsning hayotiy barqarorligi va moslashuvchanligini mustahkamlashga xizmat qiladi” [106]. Ushbu komponent tarkibiga kirish va qo‘llab-quvvatlovchi ta'lim muhitini kuzatish orqali har bir o‘quvchining o‘z vaqtida namoyon bo‘lishi va ta’minlanishi jarayoniga faol ishtirok etish ta’minlanadi. To‘siqlarni o‘rnatishga yo‘naltirilgan pedagogik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash vositalari ta’lim hamjamiyatining rivojlanishida barcha bolalarning teng ishtirokini rag‘batlantiradi. jismoniy, o‘quvchilar maktab hayotining ta’limiy, tarbiyaviy va ijtimoiy faoliyat to‘laqonli qatnashishlarida ularga ega bo‘ladilar.



Ta’lim strategiyalari komponenti har bir o‘quvchining mavjudligini to‘liq namoyon etish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu komponent o‘quvchilarning erishgan manbalarini qo‘llab-quvvatlash, to‘siq va ishlab chiqarish jarayonini tartibga solishga ko‘ra qabul qilish ko‘nikmasini hisobga olgan holda ichki manbalar va tarkibiy qismlardan samarali yuklashga ko‘maklashishni nazarda tutadi. Shu asosda lim jarayonida o‘quvchilarning individual ta’siriga mos keluvchi turli pedagogik strategiyalar tizimli ko‘rinishdagi ko‘rinish.

Turli xillik komponenti ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ehtiyojlari, individual imkoniyatlari va shaxsiy xususiyatlari bir-biridan farq qilishini e’tirof etishga asoslanadi. “Mazkur yondashuv maktab jamoasida har bir o‘quvchining o‘ziga xos qobiliyati, rivojlanish sur’ati va ta’lim olish imkoniyatlarini hisobga olgan holda moslashuvchan hamda shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik hamkorlikni tashkil etishni nazarda tutadi” [93]. Ko‘rsatilgan komponentni amalga oshirish o‘quv jarayonida individual va differensial yondashuvni qo‘llash uchun turli xil texnologiyalarga olib keladi.

Ta’lim komponenti bolalarning doimiy huquqiy bilimiga tayanadi. Natijada ta’lim sohasining barcha ishtirokchilariga davlat tomonidan kafolatlangan sifatli ta’lim huquqini tushunishga yordam beradi.

O‘z-o‘zini anglash komponenti bolalarning kognitiv qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan ta’lim strategiyalarini amalga oshirish imkoniyatini beradi. Natijada, u alohida ta’limga muhtoj bo‘lgan bolaning ta’lim olish huquqini ta’minlashning tabiiy jarayoni sifatida emas, balki xayriya harakati sifatida ko‘rilishining oldini oladi.

Ekologik komponent maktabni tashkilot va ichki xavfsizlik tizimi bilan uzviy bog‘liq, ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida rivojlantirish qaratiladi. Ushbu komponent ta’lim muhitining pedagogik tizimini ta’minlash, o‘zaro ta’sir mexanizmlarini ta’minlash hamda ta’lim sub’ektlarining samarali hamkorligini rag‘batlantirish orqali amalga oshirish. Natijada, o‘qituvchining o‘z ish uslubi va rejimini atrof-muhit talablariga qarab yetarlicha tez o‘zgartirish qobiliyati ortadi.

Jamiyat qurilishi komponentining mazmuni maktabning muvaffaqiyatli jamoa tajribasini amalga oshirishdan iborat. Barcha bolalar, agar ular alohida ta’limga muhtoj bo‘lgan bolalar bilan munosabatlarni o‘rnatish tajribasiga ega bo‘lsalar, kelajakda normadan chetga chiqishni qabul qiladilar.

Amaliy ko‘nikmalar va ijtimoiy ko‘nikmalarning yetishmasligini bartaraf etish muloqot komponentining mazmuniga kiritilgan. Rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalar maktabda olgan bilim va ko‘nikmalarini real hayotda qo‘llashda muammolarni oldindan ko‘ra

bilishlari tavsiya etiladi. Natijada, ijtimoiy ko‘nikmalar orqali hayotdagi ijtimoiy muloqot tajribasi ortadi.

Kompleks inklyuziya mexanizmlari bolaning hayotning turli sohalariga qo‘shilishi uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan. Inklyuziv ta’limni jamiyatga har tomonlama qo‘shilish mexanizmining tarkibiy qismi sifatida qabul qilish uchun rag‘bat bo‘ladi. Inklyuziyaning uzluksizligini ta’minlash ushbu komponentni amalga oshirish natijasidir. Ushbu komponentning maqsadi bolani hayotning turli sohalari bilan tanishtirish uchun qulay muhit yaratishdir.

Ko‘rsatilgan komponentlar inklyuziv ta’limni yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqishga yordam beradi va agar uning doirasida bitta vazifa yetarli darajada bajarilmasa, boshqa tarkibiy qismlarga zarar yetkazilishini tushuntiradi. Pedagogik nazorat tashkiloti inklyuziv ta’lim nazoratini yuritayotgan o‘qituvchiga o‘quvchilar jamoasini samarali tashkil etish, sinfdagi hamkorlik muhitini hamda barcha o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlarini yaxshilashni yaxshilash.

Maxsus ta’limga muhtoj bolalar o‘zlarining rivojlanish xususiyatlari tufayli maktabga borishda ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ammo asosiy muammo - sog‘lom tengdoshlar bilan muloqot qilish muammosi. Bunday bolalar ko‘pincha o‘z tengdoshlari bilan gaplashishdan qo‘rqishadi va zaiflashadilar. Boshqa tomondan, normal rivojlangan bolalar ushbu toifadagi bolalar bilan muloqot qilishga tayyor emaslar. Inklyuziv ta’limning asosi bo‘lgan qadriyatlarga quyidagilar kiradi:

1. Har bir bola individualdir.

2. Barcha bolalar o‘qiy oladi.

3. Har bir bolaning o‘ziga xos xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va o‘rganish ehtiyojlari mavjud.

4. Diskriminasiyaning barcha shakllari taqiqlanadi.

5. Har bir inson jamiyat hayotida ishtirok etish huquqiga ega.

6. Bir-biriga nisbatan sabrli munosabat: bir-biri bilan tinch-totuv yashashga tayyorlik; odamlarni barcha kamchiliklari bilan qabul qilish.

7. Bag‘rikenglik ruhidagi tarbiya “xilma-xillikdagi uyg‘unlik” deb izohlanadi.

Inklyuziv ta’limni samarali amalga oshirishda o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan tamoyillarga ustuvor ahamiyat berilishi shubhasiz.

Tadqiqotlarimiz doirasida T.But, M.Aynskou, A.Dyson tomonidan aniqlangan inklyuziyaning quyidagi uchta o‘zaro bog‘liq jihati ko‘rib chiqiladi, ular maktablardagi vaziyatni yaxshilash uchun muhim yo‘nalishlarni ifodalaydi[142]:

1) inklyuziv madaniyatni yaratish;

2) inklyuziv siyosatni ishlab chiqish;

3) inklyuziv amaliyotni amalga oshirish.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarni investitsion ta’lim samaradorligini oshirishga kasbiy faoliyatlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu muammo bo‘yicha tahlil qilish jarayonida quyidagi asosiy tushunchalar va xulosalarni keltirish mumkin:

1. O‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi, ularning inklyuziv muhitda ishlashga qanchalik tayyor ekanini belgilaydi.

2. O‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Inklyuziv ta’lim sharoitida pedagoglardan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlardan samarali foydalanish ko‘nikmasi talab etiladi. Xususan, o‘quvchilarning individual imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga oluvchi differensial ta’lim, shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuv hamda o‘zaro hamkorlikka asoslangan ta’lim strategiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Pedagoglarning inklyuziv kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish. O‘qituvchilarning inklyuziv ta’lim muhitidagi faoliyatini samarali tashkil etish uzluksiz, tizimli va amaliy yo‘nalishga ega bo‘lgan kasbiy rivojlanish jarayonini talab etadi. Shu sababli malaka oshirish dasturlari, metodik seminarlar, treninglar, vebinarlar hamda amaliy mashg‘ulotlarni muntazam yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir. “Bunday faoliyatlar orqali pedagoglarning inklyuziv ta’limning nazariy asoslari bo‘yicha bilimlarini mustahkamlash, turli ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar bilan ishlashga doir amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish va kasbiy kompetensiyalarini izchil takomillashtirish imkoniyati yaratiladi” [94].

4. O‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida oila va jamoa ishtirokini ta’minlash muhim. Oila va jamoa bilan hamkorlik qilish, o‘qituvchilarga talabalar va ularning muammolari haqida yaxshiroq tushuncha beradi.

5. O‘qituvchilar, inklyuziv muhitda ishlash uchun emotsional va psixologik tayyorgarlikka ega bo‘lishlari zarur. Bu ularning o‘quvchilar bilan muloqot qilish, ularning ehtiyojlarini tushunish va qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini oshiradi.

6. Inqlyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlash uchun zarur bo‘lgan resurslar va infratuzilmani yaratish muhimdir. O‘qituvchilar uchun qo‘shimcha materiallar, texnologiyalar va mutaxassislar bilan hamkorlik imkoniyatlari taqdim etilishi kerak.

7. O‘qituvchilarning inklyuziv muhitda ishlashini baholash va monitoring qilish tizimini yaratish zarur. Bu jarayon, ularning malakasini oshirish va tajribalarini baholashga yordam beradi.[142].

Xulosa qilib, umumiy o‘rta ta’lim pedagoglarini in'ektsiyalarini samarali bajarishga ko‘p qirrali va tizimli ishlab chiqarishni talab qiladi. “Mazkur vazifalarni samarali hal etish uchun, avvalo, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini muntazam ravishda takomillashtirib borish, ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlarni izchil joriy etish zarur. Shuningdek, ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish hamda ta’lim muassasasida mavjud moddiy, metodik va pedagogik resurslardan oqilona foydalanish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi” [142]. Ushbu amaliyot uyg‘unligi pedagoglarning ta’lim muhitida yuqori darajaga erishishga xizmat qiladi.

1.2-§. Inklyuziv ta’limning ijtimoiy-madaniy muammolari: xorijiy va mahalliy tajriba

Dunyo miqyosida alohida ta’limga muhtoj bolalarni, jumladan, nogironligi bo‘lgan eng zaif bolalarni o‘qitishning turli amaliyotlari mavjud.

XX asrning o‘rtalarigacha bo‘lgan davrda ko‘plab mamlakatlarda bolalar uchun ta’lim olish imkoniyatini teng ta’minlashga hujjatlar qonunchilik hujjatlari qabul qilingan bo‘lsa-da, amaliyotda nogironligi

bo‘lgan bolalarning ta’lim tizimi va ijtimoiy hayotdan ajratilgan holda ta’lim olishi keng holatda qoldi.

Bugungi kunda iqtisodiy taraqqiy etgan ko‘plab mamlakatlarda yordam va e'tiborga muhtoj, xodimlarni qo‘llab-quvvatlashga ko‘ra zamonaviy tarzda shakllantiriladi. “3-sonli ijtimoiy integratsiyani ta'minlash va teng jalb qilish bilan bog‘liq ijtimoiy integratsiyani ta’minlash. Xususan, Germaniya, Kanada, Norvegiya, AQSh va Shvetsiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, alohida ehtiyojga ega shaxslarni himoya qilish va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati inson huquqlarini ta’minlash, ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirish hamda barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratish asosida izchil takomillashtirib borilmoqda” [115].

So‘nggi Norvegiya integratsiyalashuvi ijtimoiy va ta’lim siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida keng qo‘llanilmoqda. Inklyuziv muhitni rivojlantirish jarayonida o‘zaro hamkorlikka ikki tomonlama yordam beradi. Bunda turli xil yagona mexanizmning o‘zaro bog‘liq qismlari sifatida ishlaydi. Ta’lim olishda undan samarali foydalanish esa butun tizimni qayta tashkil etish va ta’minlashni talab qiladi.

Integratsiyalashuv jarayonida individual, ijtimoiy, siyosiy va global miqyosdagi har bir alohida e’tiborni qaratishni talab o‘ziga xos xususiyat ega. Shu tufayli samarali va tizimni murakkablashtirish. Chunki inklyuziv ta’lim muhitida ta’lim oluvchilarning o‘rganish va turlicha bo‘lish, ularga mos narsalarni qo‘llash zarur. Jismoniy amalga oshirilayotgan ta’lim sohasiga, balki ijtimoiy xavfsizlik, sog‘liqni saqlash, huquqiy tizim va boshqaruvning turli darajalariga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Inklyuziv ta’lim deganda bunda mavjud tizimning to‘laligicha o‘zgarishini tushinishimiz mumkin. Bunda barcha ta’lim va xizmat ko‘rsatish muassasalari an’anaviy yondashuvdan innovasion faoliyatga o‘tadilar. “Ko‘pgina davlatlarda imqoniyati cheklangan o‘quvchilar bilan inklyuziv muhitda olib borilayotgan ishlar tahlili o‘tkazildi” [105]:

Jumladan, bugungi kunda Norvegiyada alohida faoliyat yurituvchi maxsus maktablar soni keskin kamayib, ularni umumta’lim maktablari tizimiga integratsiya qilish jarayoni jadallashgan. Mazkur islohotlar

doirasida maxsus ta’lim muassasalarida faoliyat yuritgan pedagoglarni yangi ta’lim sharoitlariga moslashtirish maqsadida kasbiy qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlari joriy etilgan. Hozirda maxsus ta’lim xizmatlari umumta’lim maktablarini qo‘llab-quvvatlovchi qo‘shimcha tizim sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda. Shunga qaramay, bunday xizmatlar mamlakatdagi barcha ehtiyojlarni to‘liq qamrab olish imkoniga ega emas. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, bolalarning katta qismi umumiy ta’lim muassasalarida tahsil olib, jamiyatning ijtimoiy va siyosiy hayotida faol ishtirok etmoqda. Biroq maxsus ta’lim xizmatlarini saqlab turish va rivojlantirish muayyan moliyaviy xarajatlarni talab qiladi. Norvegiya hamda Sweden tajribasi shuni ko‘rsatadiki, dastlabki bosqichlarda maxsus muassasalar tarmog‘ining kengayishi muhim ahamiyat kasb etgan. Integratsiyaga asoslangan yondashuv natijasida ushbu muassasalar bir tomondan maxsus ehtiyojli shaxslarni qo‘llab-quvvatlash vazifasini bajargan bo‘lsa, ikkinchi tomondan umumta’lim maktablari pedagoglari hamda boshqa ijtimoiy xizmatlar xodimlari faoliyatiga metodik va amaliy yordam ko‘rsatgan[154].

Asos: Narvegiyada maxsus maktab o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi juda ahamiyatli. Hozirda Norvegiyada inklyuziv ta’lim tizimi rivojlanmoqda. Integrativ yondashuvga asoslangan. Lekin ularda yangi tizimga o‘tish juda katta qiyinchilik tug‘dirmoqda, chunki har bir toifadagi nogironligi bo‘lgan shaxsga bekam-u ko‘st xizmat ko‘rsata oladigan darajada bo‘lish lozimligini anglatadi. “Eshitish yoki ko‘rish imkoniyatlari cheklangan, shuningdek, jismoniy harakatlanish, intellektual rivojlanish yoki ruhiy-emotsional holat bilan bog‘liq alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarni yagona ta’lim muassasasida o‘qitish va ularga zarur pedagogik xizmatlarni ko‘rsatish ko‘p qirrali, individual yondashuvni hamda maxsus shart-sharoitlarni talab etadigan murakkab pedagogik jarayon hisoblanadi” [78]. Muammoga inklyuziv tarzda yondashuvning o‘ziyoq butun tizimni o‘zgartirishni anglatadi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida maxsus ta’lim muassasalari xizmatlaridan butunlay voz kechilmagan, biroq ulardan asosan murakkab va alohida yondashuvni talab qiladigan holatlarda foydalaniladi.

Inklyuziv ta’lim tamoyillariga amal qiluvchi har bir muassasa xizmatlarni rejalashtirish jarayonida ta’lim oluvchilarning ehtimoliy ehtiyojlarini oldindan aniqlashi hamda individual yondashuvga asoslangan qo‘llab-quvvatlash choralarini dastlabki bosqichdayoq nazarda tutishi lozim. Bunday faoliyatni tashkil etish uchun ishlab chiqiladigan ish rejalari amaliy jihatdan bajarilishi mumkinligi, kutilayotgan natijalarning erishuvchanligi, monitoring va baholash mexanizmlarining mavjudligi hamda faoliyat samaradorligi kabi mezonlarga tayangan holda shakllantiriladi[128].

Ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning inklyuziv ta’lim muhitiga jalb etilishi turli darajalarda amalga oshirilishi mumkin. “Mazkur ta’lim shakllari o‘quvchining individual ta’limiy ehtiyojlari, psixofiziologik rivojlanish darajasi, mavjud imkoniyatlari hamda mustaqil faoliyat yurita olish qobiliyatini hisobga olgan holda differensial tarzda belgilanadi” [128]. Bunda ta’lim jarayonini tashkil etishning quyidagi ko‘rinishlaridan foydalanish mumkin:

– o‘quvchini umumiy ta’lim sinfiga to‘liq jalb etish, uni tengdoshlari bilan birgalikda o‘qitish va maktabning o‘quv, ijtimoiy hamda jamoaviy faoliyatida teng ishtirokini ta’minlash;

– umumiy sinf sharoitida ta’lim olish jarayonini pedagog yoki tegishli mutaxassisning individual ko‘magi bilan tashkil etish, shuningdek, o‘quvchining ijtimoiylashuviga xizmat qiluvchi qo‘llab-quvvatlovchi guruhlar faoliyatiga jalb qilish;

– o‘quvchining ta’lim vaqtini moslashtirilgan tarzda taqsimlash, ya’ni mashg‘ulotlarning bir qismini umumiy ta’lim muhitida, boshqa qismini esa maxsus pedagogik yoki korreksion-rivojlantiruvchi markazlarda tashkil etish;

– maxsus pedagoglar, psixologlar va boshqa malakali mutaxassislarning maslahat hamda amaliy yordami asosida individual ehtiyojlarga moslashtirilgan ta’lim xizmatlaridan foydalanish;

– o‘quvchining rivojlanish ehtiyojlarini kompleks qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat reabilitatsiya dasturlari doirasida pedagog, psixolog, defektolog va boshqa mutaxassislarning muntazam hamrohligida ta’lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish.

Mazkur yondashuvlar inklyuziv ta’limning moslashuvchanligini ta’minlab, har bir o‘quvchining ta’lim olish huquqini ro‘yobga chiqarish hamda uning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

AQShda “inklyuziv ta’lim siyosati har bir shaxsning, xususan, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan fuqarolarning ham sifatli ta’lim olishi va zarur ijtimoiy xizmatlardan teng foydalanishi uchun qulay, ochiq hamda kamsitishlardan xoli muhitni shakllantirishga yo‘naltirilgan” [128]. Shu sababli ta’lim muassasalari va boshqa tashkilotlarda xizmatlar har bir insonning ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Zarurat tug‘ilganda esa muassasalar imo-ishora tilini biluvchi mutaxassislar, individual ko‘mak ko‘rsatuvchi assistentlar hamda ijtimoiy-psixologik maslahat beruvchi mutaxassislar bilan ta’minlanib, foydalanuvchilarga har tomonlama qo‘llab-quvvatlash xizmatlari ko‘rsatiladi[128].

Ushbu tuzilmalar tomonidan turli ijtimoiy loyihalar, seminarlar va amaliy tadbirlar tashkil etilib, inklyuziv muhitni rivojlantirishga ko‘mak berilmoqda. Integratsiya jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan uni amalga oshiruvchi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi va kompetensiyalariga bog‘liqdir. Inklyuziv ta’lim sohasidagi dolzarb masalalarni hal etish va amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha bir qator universitetlar tomonidan ilmiy-uslubiy va amaliy ishlar izchil olib borilmoqda. Mutaxassislar tomonidan tashkil etiladigan trening va seminar mashg‘ulotlarida quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratiladi:

– ta’lim va tarbiya jarayonini yanada qulay hamda samarali tashkil etish yo‘llarini o‘rgatish, shuningdek, bu boradagi tavsiyalarni ota-onalarga yetkazish;

– o‘smirlik va o‘tish davrida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish hamda oiladagi o‘zaro hamjihatlik va qo‘llab-quvvatlash muhitini mustahkamlash;

– nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga intilayotgan ko‘ngillilar, jamoatchilik vakillari va turli tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ularni samarali hamkorlikka yo‘naltirish;

– nogironligi mavjud bo‘lgan yoshlar ongida hayotga ijobiy munosabatni shakllantirish, o‘z imkoniyatlariga ishonchni kuchaytirish va hayotning qadr-qimmatini anglashga ko‘maklashish.

Institut har bir o‘tkazilgan trening mashg‘ulotlaridan so‘ng anonim tarzda so‘rovnomalar tarqatadi va olingan natijalar tahlil etiladi. Keyinchalik so‘rovnoma xulosalari tegishli hukumat organlariga jo‘natiladi va islohotlar amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ushbu tizim yordamida institutda ta’lim olayotgan bo‘lajak mutaxassislarning ham tajribasi ortib boradi. AQSh tajribasining aynan shu jihati, ya’ni ta’limning hayotiyligi mamlakatning barcha uchun teng imkoniyatlar berishi bilan ahamiyatlidir. Aholi hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan ushbu tizim alohida e’tiborga muhtoj shaxslarning jamiyatda maksimal darajada integratsiyalashuviga yordam beradi. Shuningdek, ushbu qatlam doimiy ravishda jamiyat nigohida bo‘lgani uchun ham jamiyat tomonidan qabul qilinishida qiyinchiliklarni yuzaga keltirmaydi[118].

Ijtimoiy ishlarni amalga oshirishda moslashuv va reabilitasion dasturlar kompleks yondashuv asosida tuzilganligi hamda mutaxassislarning turli sohalardagi bilimlarini birlashtirganliklari muhim rol o‘ynaydi.

Tizimning benuqson ishlashida esa, albatta keng jamoatchilikning amalga oshirilayotgan ishlarni qo‘llab-quvvatlashi muhim rol o‘ynaydi. AQSh hukumati xalqning nogironlarga nisbatan munosabatlarini o‘zgartirish uchun ommaviy axborot vositalarida psixologlar va boshqa mutaxassislar tomonidan puxta o‘ylangan targ‘ibotni keng ko‘lamda amalga oshirdilar. Bunda targ‘ibotga diniy tus berilishi uning tez suratlarda insonlar ongiga ta’sir etishiga olib keldi. Shu tariqa AQSh jamiyatning barcha jabhalarida nogironligi bo‘lgan fuqarolarga keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Bunda turli xil jamoat fondlari, nogironlar klublari hamda xayriya tashkilotlari hukumatga yaqindan yordam berdi. Integrasiyalashuv jarayonining katta mablag‘ talab etishini hisobga olinsa, bu eng maqbul yo‘l ekanligi ayon bo‘ladi. Endilikda barcha zaruriy ishlar turli xil fondlar zimmasiga tushishi bilan hukumatning qo‘l ostida faqatgina jarayonni standart asosida nazoratga

olish majburiyatigina qoldi xolos. Shu sababli, Qo‘shma Shtatlarda u nogironligi bo‘lgan shaxsning qonuniy talablariga javob beradigan xizmatlarni taqdim etish uchun mas’ul bo‘lgan tashkilot hisoblanadi[99].

Asos: Amerika Qo‘shma Shtatlarida jamoat fondlarining tashkil qilinishi va ulardan foydalanish bizda olib borilayotgan rivojlantirish ishlariga o‘xshashlik alomatlarini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, soliq to‘lash masalalarida ham imtiyozlar berilgan. Bu ham bizning qonunchiligimizda ham mavjud.

Tahlil natijasida nogironligi bo‘lgan bolalarni oddiy bola sifatida qabul qilish, ularga yakka tartibda reabilitasion tadbirlarni amalga oshirish, nogironligi bo‘lgan shaxslarga diniy nuqtai nazardan ta’sir o‘tkazish bo‘yicha Amerika Qo‘shma Shtatlari tajribasidan foydalansak yaxshi natija beradi.

Kanadada nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashda inklyuziv yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etadi. Biroq mazkur model ayrim Yevropa davlatlarida qo‘llanilayotgan tizimlardan o‘zining mazmuni va amaliy mexanizmlari bilan farqlanadi. Kanada jamiyatida har bir bolaning jismoniy yoki psixologik holatidan qat’i nazar, o‘ziga xos qobiliyatlari, ehtiyojlari va rivojlanish sur’ati mavjudligi keng e’tirof etiladi.

Mamlakatda ta’lim va ijtimoiy xizmatlar tizimi umumiy standartlardan tashqari, har bir shaxsning ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Ushbu yondashuv mutaxassislarning moslashuvchan faoliyati va individual rejalashtirish tamoyillariga asoslanadi. Natijada har bir bola zarur pedagogik, psixologik va ijtimoiy yordam bilan ta’minlanadi. Kanadada alohida maxsus maktablar soni juda kam bo‘lib, ayrim hollarda maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun tashkil etilgan ixtisoslashgan sinflar faoliyat yuritadi.

Germaniyada inklyuziv ta’lim siyosati doirasida imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyat hayotiga to‘laqonli jalb etish va ularning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mamlakatda bunday bolalarning umumta’lim maktablarida sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda ta’lim olishi, zarurat tug‘ilganda esa uy sharoitida sifatli ta’lim xizmatlaridan foydalanishi uchun keng

imkoniyatlar yaratilgan. Davlat va ta’lim muassasalari o‘quvchilar hamda ularning ota-onalarida insonparvarlik, o‘zaro hurmat va bag‘rikenglik qadriyatlarini shakllantirish orqali ijtimoiy ajralishning oldini olishga intiladi[119].

Asos: Kanadada maxsus maktablar deyarli tashkil qilinmagan. Aksincha, oddiy maktablarda sinflar tashkil etilgan. Nogironligi bo‘lgan bolalarni yakkalanib qolmasligi uchun kattiq haraqat qilishadi. Ularning ta’lim olishlari oddiy bolalar bilan bir xil.

Inklyuziv g‘oyalar bu butun bir tizimni o‘zgartirishni talab etadi. Bu maktab dasturiga, o‘quv materiallariga, pedagog kadrlarga, ijtimoiy yordam xizmatlarining an’anaviy ishlash prinsipiga va boshqalarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. BMTning “Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari” konvensiyasiga ko‘ra, Germaniyada ushbu huquqlar himoyasi har ikki yilda bir marta milliy miqyosda amalga oshirilgan tadbirlar bo‘yicha BMTga hisobotni taqim etadi. Ushbu hisobotlar hamda olib borilayotgan ishlar uchun mas’ul tashkilot Germaniya inson huquqlari institutidir[86].

Barcha ta’lim va ijtimoiy xizmat muassasalari davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Germaniya ta’lim siyosatida bolalarning uzluksiz va sifatli ta’lim olishini ta’minlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli davlat tomonidan ota-onalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida turli ijtimoiy imtiyozlar, moddiy yordam dasturlari hamda qo‘shimcha xizmatlar yo‘lga qo‘yilgan. “Xususan, alohida ta’lim ehtiyojlari mavjud bo‘lgan bolalar uchun qulay ijtimoiy-pedagogik sharoitlarni yaratish, ularning farovonligini oshirish va jamiyat hayotiga to‘laqonli qo‘shilishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida turli soha mutaxassislarining o‘zaro hamkorligiga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Mazkur jarayonda pedagog, psixolog, tibbiyot xodimi hamda ijtimoiy xizmat vakillarining birgalikdagi faoliyati bolaning individual ehtiyojlarini aniqlash va unga kompleks ko‘mak ko‘rsatishning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi” [129].

Ushbu tizim doirasida ishlab chiqilayotgan me’yorlar va standartlar o‘zaro bog‘liq bo‘lgan yagona mexanizmning tarkibiy qismlari sifatida amaliyotga tatbiq etilmoqda. Shunga qaramay, mutaxassislar tomonidan

birlamchi yordam va qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini samarali tashkil etish masalasi dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Shu bois mazkur sohada faoliyat yuritadigan kadrlarni tayyorlash, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat muassasalarining ota-onalar bilan hamkorlik olib borishlari nihoyatda muhim masaladir. Chunki bolalar faqatgina muassasalarda o‘qib-o‘rganmaydilar, balki asosiy ko‘nikmalarni oila muhitida shakllantiradilar. Darsliklar butun dunyo bo‘ylab umumiy ta’riflangan bo‘lsa-da, ular ayni paytda har bir o‘rganuvchi uchun individualdir. Nogironligi mavjud bolalar uchun inklyuziv tizim ham barcha bolalarning ehtiyojlarini birdek qondirishi zarur.

Butun dunyoda nogironligi mavjud bo‘lgan bolalarning 70% dan ortig‘i qishloq joylarda yashaydilar. Bu bolalarning barchasiini dasturlashtirilgan maxsus ta’lim, yoki maxsus ijtimoiy xizmat turlari bilan ta’minlash juda ham mushkul vazifadir. Ba’zi davlatlarda buning uchun yetarlicha moddiy-texnik baza ham mavjud emas. Yechim mavjud tizimni ehtiyojlar asosida qayta dasturlash va amaliyotga tadbiq etishdir. “Ushbu tizim barcha uchun teng imkoniyatlarni taqdim etadi. Garchi sinfda turli nogironlik darajasiga ega bo‘lgan bolalar to‘plangan bo‘lsa-da, bu ularni ijtimoiy rivojlantirishning ayni paytdagi yagona samarali yo‘lidir. Germaniyada, boshqa davlatlardagidan farqli ravishda, nogironligi bo‘lgan bolalarning ota-onalariga mutaxassis sifatida qaraladi hamda o‘z farzandlari uchun barcha tanlovlarni amalga oshirishni ota-onalar zimmasiga yuklanadi” [129].

Bizning fikrimizcha, yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, nogironligi bo‘lgan bolalarni ijtimoiylashtirishda Germaniya tajribasidan foydalanilsa yaxshi natija beradi.

Britaniya tajribasi. Aksariyat hollarda yosh oilalar nogironligi farzandlariga g‘amxo‘rlik qilishda tajribasizligi tufayli ko‘plab xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yadilar. Chunki bunday vaziyatda bolaga muntazam alohida e’tibor hamda mutaxassisning nazorati zarurdir.

Vaholanki, mamlakatda har bir bolaning huquqlari davlat tomonidan kafolatlangan bo‘lib, tegishli xizmat va mutaxassis mahalliy hukumat tomonidan ta’minlanishi qonun bilan belgilab qo‘yilgan. Shu bilan birga, hukumatning mazkur vazifasini amalga oshirishda quyidagi bir qator nodavlat tashkilotlar ham aholiga o‘z xizmatlarini taklif etmoqdalar: “Muloqot va oila” “Aloqa va oila, “Har bir nogiron bola muhim” (Bolalar parvarishi bo‘yicha qonun yo‘riqnomasida mahalliy hukumat uchun quyidagicha vazifa yuklatilgan:

“Aqliy yoki jismoniy imkoniyati cheklangan (nogironlik belgilari mavjud) barcha bolalar ota-onalarining to‘lov qobiliyatlaridan qat’i nazar yuqori sifatli boshlang‘ich ta’lim bilan ta’minlanadilar. Chunki sifatli berilgan boshlang‘ich ta’lim – bolalarning ijtimoiy, ruhiy va aqliy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega”.

Britaniya hukumati imkoniyati cheklangan farzanlari bor oilalar uchun (3-4 yosh) har yili 570 soatli tekin boshlang‘ich ta’limni kafolatlaydi.

Asos: Angliyada maktabgacha yoshdagi bolalarni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda uch va to‘rt yoshli bolalar uchun har yili 570 soat hajmida bepul erta ta’lim hamda parvarish xizmatlaridan foydalanish imkoniyati yaratilgan. Ushbu imtiyoz amaliyotda odatda 38 haftalik o‘quv davri davomida haftasiga 15 soat miqdorida tashkil etiladi.

“Boshlang‘ich ta’lim va bolalarni parvarishlash to‘g‘risida”gi me’yoriy hujjatning tegishli qoidalariga muvofiq, ota-onalar ajratilgan 570 soatlik ta’lim xizmatidan o‘z ehtiyojlari va farzandining rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda turli shakllarda foydalanishlari mumkin. Jumladan, mashg‘ulotlar haftasiga uch kun davomida kuniga besh soatdan yoki haftaning besh kunida har kuni uch soatdan tashkil etilishi mumkin. Bunday moslashuvchan yondashuv oilalarga ta’lim va parvarish jarayonini o‘z kundalik faoliyatiga qulay tarzda uyg‘unlashtirish imkonini beradi[85].

Qonunning A 2.4 bandi esa ta’limning ota-onalar uchun moslashuvchan shaklda bo‘lishini ta’minlaydi.

Ikki yoshdagi bolalar odatda umumiy tartibda mazkur dasturlarga jalb etilmasa-da, ayrim holatlarda ular uchun ham erta ta’lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Jumladan, ta’lim dasturlariga quyidagi ehtiyoj va xususiyatlarga ega bo‘lgan bolalarni jalb etish mumkin:

– maxsus ta’lim ehtiyojlari mavjud bo‘lgan hamda individual pedagogik ko‘makka muhtoj bolalar;

– davlat tomonidan belgilangan “Ta’lim, sog‘liqni saqlash va parvarish” yo‘nalishidagi kompleks rejalar asosida tegishli qo‘llab-quvvatlash choralaridan foydalanayotgan bolalar;

– nogironlik holati yoki sog‘lig‘i bilan bog‘liq alohida ehtiyojlari mavjudligi sababli “Disability Living Allowance” dasturi doirasida ijtimoiy nafaqa bilan ta’minlanayotgan bolalar.

Ehtiyojlari alohida e’tibor talab qiladigan ikki yoshli bolalar uchun ham erta ta’lim tizimiga qo‘shilish va zarur pedagogik xizmatlardan foydalanish imkoniyati ta’minlanadi.

Agar oila daromadi past bo‘lib, davlat tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy ko‘mak dasturlari yoki soliq imtiyozlaridan foydalanayotgan bo‘lsa, ular ham mazkur qo‘llab-quvvatlash choralaridan foydalanish huquqiga ega hisoblanadi.

Shuningdek, nogironligi rasmiy ravishda e’tirof etilgan bolalar uchun bir qator ta’lim va parvarish xizmatlari bepul taqdim etiladi. Xususan, mazkur xizmatlardan foydalanish doirasida bolalar quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘ladilar:

– maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ko‘rsatiladigan ta’limiy va tarbiyaviy xizmatlardan foydalanish;

– maktab ta’limiga tayyorgarlikni kuchaytirishga hamda bolalarning rivojlanishini ta’minlashga yo‘naltirilgan o‘yin va mashg‘ulot guruhlarida ishtirok etish;

– bolalarni parvarishlash, ularning kundalik ehtiyojlarini ta’minlash va rivojlanishiga ko‘maklashish bo‘yicha mutaxassislar xizmatidan foydalanish;

– bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, ularning har tomonlama rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga ixtisoslashgan markazlar xizmatlaridan foydalanish;

– yuqorida qayd etilgan xizmatlardan belgilangan tartibda bepul foydalanish.

Mazkur yondashuv alohida ehtiyojlarga ega bo‘lgan bolalarning rivojlanish jarayonini imkon qadar erta bosqichdan boshlab pedagogik va ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, ular uchun ta’lim hamda ijtimoiy xizmatlardan teng va to‘laqonli foydalanish imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan.

Elektron shakldagi hukumat nogironligi mavjud bo‘lgan oilalarga ham yordam beradi. Oila davlat tomonidan berilgan kalit kodini hukumat veb-saytiga kiritish orqali o‘zlari uchun eng yaqin hududda joylashgan ta’lim muassasi manzilini, bola parvarishi bo‘yicha darslar, markazlar havolalarini olishlari mumkin. Britaniya hukumati tomonidan 2014-yilda qabul qilingan “Nogironlik va maxsus ta’lim ehtiyojlari” “SEND” to‘g‘risidagi qonuni 0 yoshdan toki 25 yoshga to‘lgunga qadar nogironligi mavjud insonlarning aqliy salohiyatini oshirish, kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish va mustahkamlashga qaratilgan muhim qaror bo‘ldi deya aytish mumkin.

Yangi tahrirdagi SEND kodeksida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlashning huquqiy asoslari batafsil yoritilgan. Qonun, shuningdek, mazkur masalalar bo‘yicha olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida ota-onalarni xabardor etish maqsadida mahalliy hukumat nashrlarida doimiy tarzda yoritib borilishini ham alohida vazifa sifatida belgilagan. Ushbu vazifaning amalga oshishi natijasida alohida e’tiborga muhtoj farzandli ota-onalarning veb-sahifalariga doimiy ravishda maxsus havolalar va xizmat reklamalari yuboriladi[86].

Shuningdek, SENDda nogiron bolalar o‘qitiladigan ta’lim muassasalari uchun qo‘yiladigan minimal talablar ham belgilab berilgan. Jumladan, muassasa:

– ota-onalar va farzandlarning to‘g‘ri qaror qabul qilishlariga ko‘maklashuvchi xizmatlarni o‘z ichiga olishi zarur;

– bolada turli hollarda yuzaga keluvchi ehtiyojlarni har qanday vaziyatda ham kamchiliklarsiz qondira olish imkoniyatiga ega bo‘lishi;

– avvaldan rejalashtirilgan va aniq ijobiy amaliy natija beruvchi dasturga egalik qilishi;

– inklyuziv amaliyotga e’tibor qaratilganligi;

– xizmatlarni baholash, rejalar va amaliyot o‘rtasidagi muvofiqlashtirish tajribasiga egaligi.

Nogironligi mavjud bo‘lgan bolalarning boshqa bolalar bilan teng huquqli ekanligini ta’minlash majburiyati mahalliy organlar zimmasiga yuklatilgan. Xususan, SENDning 4.37-bandida quyidagilar qayd etilgan.

“Mahalliy hokimiyat organlari ikki, uch va to‘rt yoshli bolalarga moliyalashtirilgan erta ta’limni ta’minlashda nogiron bolalar uchun imkoniyatlar tengligini ta’minlashi lozim. Bunda kichik yoshdagi bolalarning zaruriy ko‘nikmaga ega bo‘lishi uchun ular va ularning ota-onalari bilan ham individual tarzda zaruriy mashg‘ulotlar olib borilishi kerak. Mahalliy hukumat organlari zarur darajadagi xizmat ta’minotini va ishlaydigan ota-onalar ehtiyojlarini qondirish uchun tegishli muassasalar bilan har tomonlama doimiy hamkorlikni amalga oshirishlari lozim”.

Ota-onalarning hukumat tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlardan foydalanish huquqi 2015 yilda qabul qilingan “Bolalarni parvarish qilish to‘g‘risida”gi qonun bilan tartibga solingan;

1- bo‘lim. Markaziy hukumat barcha mahalliy hokimiyat organlaridan o‘z hududida zaruriy xizmatlar ko‘rsatishni to‘la ta’minlashni hamda tengsizlikning oldini olishni ta’minlashni talab etadi.

2-bo‘lim. Imkoniyati cheklangan bolalarga hukumat tomonidan moddiy yordam berilishini o‘z zimmasiga oladi. Bu, moddiy yordam nogironligi mavjud bolalarning ota-onalariga ham berilishini ko‘zda tutadi.

3-bo‘lim. Mahalliy hokimiyat organlariga bola parvarishini ta’minlovchi har qanday shaxsga ko‘mak berish, jumladan, moddiy yordam berish huquqini beradi.

2015 yilda qabul qilingan “Bolalarni parvarish qilish to‘g‘risida”gi qonunning eng muhim majburiyati 6-bo‘limda belgilangan bo‘lib, unda mahalliy mehnat organlarida ishlashni yoki o‘qishni xohlovchi nogiron

farzandlari bor ota-onalar o‘z yashash hududlarida farzandlari parvarishi uchun yetarlicha imkoniyatlar mavjud ekanini isbotlashni talab etadi. Bu shuni ko‘rsatadiki, mahalliy hukumat o‘z tarkibini sifatli kadrlar bilan to‘ldirish uchun barcha qatlamlar uchun eng minimal shart-sharoitlarni yaratib berishga majbur.

Shu bilan birga qonunning ikkinchi bandida nogiron farzandi bo‘lgan ota-onalar uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish ham ko‘zda tutilgan. “Ushbu tizimli ishlar samarasida har bir mahalliy hukumat o‘z hududida maxsus e’tiborga muhtoj bolalarning soni xususida aniq ma’lumotga ega bo‘ladi hamda ularning sifatli parvarishi uchun moddiy-texnik baza va kerakli kadrlar muammosini avvaldan ko‘ra bilish imkoniyatiga ega bo‘ladi” [118].

Mahalliy hokimiyat organlari “boshlang‘ich ta’lim va bolalar parvarishi” qonun yo‘riqnomasining 3-bandiga asosan, maxsus tuzilgan komissiyaga bolalar parvarishini ta’minlash hamda tizimda olib borilayotgan ishlar xususida yillik hisobot topshiradilar. Ushbu hisobot barcha ota-onalar uchun ochiq shaklda taqdim etiladi.

Davlat tomonidan oilada nogironligi mavjud bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Mahalliy kengashlar tomonidan oilada nogironligi mavjud bo‘lgan bolalarga quyidagi masalalarda amaliy yordam ko‘rsatadi:

– qisqa muddatli xizmat turlari bilan ta’minlash;

– bayramlar va boshqa ko‘ngilochar tadbirlarni tashkil etish;

– uyda parvarishga muhtoj bemorlarga amaliy yordam ko‘rsatish;

– kasalxona xarajatlari yoki sayohatlar uchun amaliy moddiy yordam ko‘rsatish;

– qo‘shimcha yordam va xizmat turlarini tashkil etish.

1989-yilda qabul qilingan “Bolalar to‘g‘risida”gi qonunga binoan, mahalliy hukumat yuqoridagi xizmatlarni muhtoj aholi qatlamiga ko‘rsatishga majburdir. Aksariyat xizmatlar hech qanday to‘lovlarsiz amalga oshirilsa, ba’zilari uchun ma’lum miqdorda to‘lovlar amalga oshirilishi mumkin.

Nogiron farzandi bor ota-onalar yuqoridagi masalalar bo‘yicha mahalliy hukumatning ijtimoiy xizmatlar bo‘limiga murojaat qilishlari mumkin.

Shundan so‘ng, ijtimoiy xizmatlar bo‘limi vakili oila bilan bog‘lanib, oilaning qaysi soha bo‘yicha (sog‘liqni saqlash, ijtimoiy yordam, ta’lim) ko‘makka muhtoj ekanini aniqlaydi.

Ushbu jarayon “ehtiyojlarni baholash” deb ataladi va bunda ijtimoiy xizmat vakili oilaga keyingi qilinajak ishlari haqida to‘liq yo‘l-yo‘riq va maslahatlar beradi. Shuningdek, hukumat vakili nogiron farzandlari bo‘lgan oilalarga mahalliy qo‘llab-quvvatlash guruhlari haqida ham ma’lumot beradi.

Hukumat tomonidan oiladagi nogironligi mavjud farzand ro‘yxatga olinmaguncha, oila mavjud imtiyozlardan foydalanishi yoki bevosita moddiy ko‘mak olishi mumkin. Ushbu turdagi yordamlar bolaga kerakli xizmatlarni tashkil etishning alternativ vositasi sifatida beriladi. Shuningdek, oiladagi har bir bola uchun nogironlik nafaqalari bilan ham ta’minlanadi. Bundan tashqari, oila nogiron bolalar uchun joriy etilgan maxsus kredit tizimidan ham foydalanishi mumkin.

Mazkur masalada oilalar to‘laligicha barcha zaruriy ma’lumotlarni mahalliy hukumatning “Oila axborot xizmati”dan olishadi. Shuningdek, oila axborot xizmati nogironligi mavjud bo‘lgan bolalarga zaruriy bo‘lgan muolaja va mutaxassislar bilan ishlashda amaliy yordam ko‘rsatadi.

Nogironligi mavjud bolalarning ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topishi hukumatning eng muhim maqsadlaridan biri sanaladi. Bugungi kunda Buyuk Britaniyada mehnatga yaroqli aholining 7.7 millionida nogionlik yoki sog‘ligi bilan bog‘liq muammo mavjud. Avvalgi yillarga oid statistik ma’lumotlar nogironligi bo‘lgan fuqarolarning mehnat faoliyatidagi ishtiroki sog‘lom aholiga nisbatan pastroq ekanligini hamda bandlik darajalari orasida muhim farq mavjudligini ko‘rsatadi.

Nogironligi bo‘lgan bolalarni tarbiyalash va ta’lim berish jarayonida ota-onalarning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday hamkorlikning asosiy maqsadi bolada mavjud imkoniyat va qobiliyatlarni rivojlantirish, uning shaxsiy maqsadlariga erishishiga ko‘maklashish, mustaqil hayot kechirish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda jamiyatda

faol va munosib o‘rin egallay oladigan, o‘z ehtiyojlarini mustaqil qondira oladigan barkamol shaxs sifatida voyaga yetishini ta’minlashdan iboratdir.

Mazkur maqsadlarning amalga oshishi, avvalo, bolaning ijtimoiy muhit bilan faol aloqaga kirishishidan boshlanadi. Ayrim hollarda ota-onalar o‘zlari sezmagan tarzda nogironligi bo‘lgan farzandlarini jamiyat hayotidan cheklab qo‘yishlari mumkin. Bunday yondashuv bolaning muloqot ko‘nikmalarining shakllanishini sekinlashtiradi hamda uning ijtimoiy moslashuv jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ota-onalar farzandining imkoniyat va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratib, uning jamiyatdagi turli faoliyatlarda ishtirok etishini qo‘llab-quvvatlashlari muhim hisoblanadi.

Bolaning jamiyat hayotida o‘zini ishonchli va erkin tutishi, avvalo, oilada yaratilgan muhit bilan chambarchas bog‘liq. Imkoniyati cheklangan bolalarning tengdoshlari bilan doimiy ijtimoiy aloqada bo‘lishi, “jamoaviy mashg‘ulotlarga jalb etilishi hamda turli ijtimoiy-madaniy tadbirlarda faol ishtirok etishi ularning shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish va ijtimoiy muhitga samarali moslashishiga muhim zamin yaratadi” [142]. Shuningdek, ota-onalar tomonidan bolaga mustaqil tanlov qilish va qaror qabul etish imkoniyatining berilishi unda mas’uliyat, tashabbuskorlik va javobgarlik kabi muhim sifatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Oila a’zolarining munosabati, kundalik xulq-atvori va tarbiyaviy yondashuvi bolaning dunyoqarashi hamda xatti-harakatlariga bevosita ta’sir etadi. Shu bois ota-onalar farzand tarbiyasida eng muhim namuna va yo‘l ko‘rsatuvchi shaxslar hisoblanadi.

Farzandda o‘z imkoniyatlari cheklanganligini bahona qilib, bundan manfaat ko‘rishga intilish yoki boshqalarning ortiqcha yon bosishiga tayanish kabi qarashlarning shakllanishiga yo‘l qo‘ymaslik ota-onaning muhim vazifalaridan biridir. Shu sababli ayrim vaziyatlarda bolaning asossiz yoki me’yordan ortiq talablarini qanoatlantirmaslik uning mustaqilligi va mas’uliyat hissini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda pedagoglar hamda tegishli mutaxassislarning tavsiyalariga tayanish va ularni amaliyotda qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Nogironligi bo‘lgan bolani tarbiyalash ota-onadan katta ruhiy bardoshlik hamda jismoniy kuch talab etadi. Bunday vaziyatda ota-onalar o‘z salomatliklariga befarq bo‘lmasdan, hissiy barqarorlikni saqlashlari va hayotga ijobiy qarashni yo‘qotmasliklari muhimdir. Shuningdek, farzandni sog‘lom tengdoshlari bilan doimiy taqqoslashdan saqlanish lozim, chunki bu yondashuv bolaning individual rivojlanishini to‘g‘ri baholashga xalaqit beradi.

Buning o‘rniga ota-onalar farzandining shaxsiy taraqqiyotiga e’tibor qaratib, umumiy me’yorlar bilan emas, balki uning erishayotgan kichik va katta yutuqlari asosida baho berishlari maqsadga muvofiqdir. Nogironligi bo‘lgan bolaning ayrim noodatiy xatti-harakatlari sababli uni jamiyatdan ajratib qo‘yish to‘g‘ri yondashuv hisoblanmaydi. Aksincha, bolani ijtimoiy muhitdan chetlatmasdan, uning rivojlanish jarayonini qo‘llab-quvvatlash muhimdir.

Bundan tashqari, bolaning muammolarini aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini topish uchun tabiiy ijtimoiy va tarbiyaviy muhitni saqlab qolish zarur hisoblanadi.

Nogironligi bo‘lgan farzandlarni tarbiyalayotgan ota-onalar ko‘pincha o‘z hayot tarzlarini tubdan qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘ladilar. “Bunday vaziyatda ular bolalarning tashqi muhitdagi murakkab sharoitlarga moslashib ketishi va mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanishi uchun zarur bo‘lgan barcha pedagogik, psixologik hamda amaliy choralarni ko‘rishga intiladilar” [69].

Farzandning dunyoga kelishi oilada doimo quvonch va hayajon bilan kutib olinadigan voqeadir. Ota-onalar kelajak uchun orzular qilib, farzandiga ism tanlash, uning tarbiyasi haqida reja tuzishadi. Biroq ba’zi hollarda bolaning tug‘ma nogironlik bilan tug‘ilishi ko‘plab oilalar uchun og‘ir ruhiy zarba bo‘lib xizmat qiladi. Bunday vaziyatda har bir ota-ona ham yuzaga kelgan psixologik bosimni yengib o‘ta olmaydi. Ayrimlar chuqur tushkunlikka tushib, farzandni tibbiy muassasalarda qoldirib ketish holatlarini ham uchratish mumkin. Boshqalar esa barcha qiyinchiliklarga qaramasdan bolani o‘z oilasida tarbiyalash yo‘lini tanlaydilar. Bu esa ulardan katta sabr, matonat va mas’uliyatni talab etadi.

Bunday sinovli holat ota-onalarda ko‘pincha vahima, ruhiy iztirob, kelajakdan qo‘rquv hamda o‘zini ayblash kabi hissiyotlarni yuzaga keltiradi. Nogironlik bilan tug‘ilgan farzand oilaning avvalgi hayot tarzini va ichki psixologik muhitini sezilarli darajada o‘zgartiradi. Chunki bunday bola doimiy parvarish, alohida e’tibor va ko‘p vaqt talab etadi. Natijada oila a’zolari ham hissiy jihatdan charchoq va ruhiy bosimni boshdan kechirishi mumkin.

Nogironligi bo‘lgan bolalarni tarbiyalayotgan ota-onalar nafaqat ta’lim jarayoni, balki farzandning kundalik parvarishi, sog‘lig‘ini nazorat qilish, iqtisodiy ta’minot, ijtimoiy moslashuv hamda psixologik bosim kabi turli yo‘nalishlarda murakkab muammolarga duch keladilar. Bunday holatlar oilaning umumiy turmush darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ba’zan ichki ziddiyatlar va muammoli vaziyatlarning yuzaga kelishiga ham sabab bo‘ladi. Shuni ta’kidlash joizki, nogironligi bo‘lgan bolalarning jamiyatga moslashuvi va ijtimoiylashuvida eng muhim va hal qiluvchi omil bu oiladir, chunki uning ta’siri boshqa tarbiyaviy institutlarga nisbatan ancha kuchli bo‘ladi. Biroq ota-onalarda ruhiy zo‘riqish va emotsional bosim ortib borgani sari oilaviy muhitda muvozanat buzilishi, turli inqirozli holatlar yuzaga kelishi mumkin. Mazkur muammolarni samarali bartaraf etish uchun oila a’zolariga moddiy, jismoniy hamda psixologik ko‘mak ko‘rsatish muhim ahamiyatga ega. Bunday qo‘llab-quvvatlash alohida ehtiyojli farzandni tarbiyalayotgan oilalarning barqarorligi va farovonligini ta’minlashda sezilarli yordam beradi.

Nogironligi bo‘lgan farzandi bor oilalar ko‘pincha uzoq muddatli ruhiy bosim va hissiy zo‘riqishni boshdan kechiradilar. Shu sababli ayrim ota-onalar mas’uliyatning bir qismini yoki to‘liq holda boshqalarga yuklashga harakat qilishlari ham uchraydi. Bunday holat ko‘plab mamlakatlarda kuzatiladigan muammolardan biri bo‘lib, u nogironligi mavjud bolalarning rivojlanish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bugungi kunda turli mamlakatlarda nogironligi bo‘lgan bolalarning ta’lim xizmatlaridan teng foydalanishi, kelgusida kasbiy faoliyatga jalb etilishi va jamiyatning ijtimoiy-madaniy hamda fuqarolik hayotida

to‘laqonli ishtirok etishida qator to‘siqlar mavjud. Mazkur holat ularning imkoniyatlarini kengaytirish, mustaqil hayotga tayyorlash va jamiyatga integratsiyalashuvini ta’minlashga qaratilgan samarali yondashuvlarni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu sababli bunday bolalarning jamiyatga moslashuvi va ijtimoiylashuvida oila hal qiluvchi va asosiy rolni bajaradi. Zero, bolaning jamiyatda yashash va o‘z o‘rnini topish ko‘nikmalari dastlab oilaviy muhitda shakllanadi. Boshqa ijtimoiy guruhlar bilan taqqoslaganda, oila o‘zining beqiyos va alohida mavqeiga ega ekanligi bilan ajralib turadi. “Chunki ko‘plab ijtimoiy tuzilmalar ma’lum maqsadlar asosida shakllangan bo‘lsa, oila inson hayotining tabiiy va uzviy qismi sifatida vujudga keladi hamda shaxsning shaxsiy hayoti bilan bevosita bog‘liq holda rivojlanadi” [112].

Shu bois, nogironligi bo‘lgan farzandlarni tarbiyalayotgan oilalarning jamiyatdan ajralib qolmasligi alohida ahamiyatga ega. Bunday oilalar mutaxassislar tomonidan beriladigan psixologik hamda pedagogik qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadilar. Afsuski, ayrim oilalar taklif etilayotgan yordamni qabul qilmasliklari oqibatida mavjud qiyinchiliklarni mustaqil ravishda yengishda qiynaladilar. Keyinchalik xatolarini anglab, bolalarni reabilitatsiya markazlariga yuborishga majbur bo‘ladilar. Biroq mutaxassislar bunday kechikkan choralar ba’zi hollarda bolaning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ta’kidlaydilar.

AQShda nogironligi bo‘lgan farzandlari mavjud oilalarni qo‘llab-quvvatlash tizimi ancha rivojlangan. Amerikalik zamonaviy oilaviy psixologlardan biri Lillian Katz bolaning idrok jarayoniga xos bo‘lgan yettita asosiy xususiyat bevosita oilaviy muhit bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ota-onalar farzandining nutq rivojlanishini kuzatish va uni eshitish imkoniga o‘qituvchilarga nisbatan ko‘proq ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, u ota-onalardan bu jarayonni xolis va ob’ektiv baholay olish muhimligini alohida urg‘ulaydi[86].

“AQSh ta’lim amaliyotida o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishda ota-onalar bilan hamkorlikka alohida e’tibor qaratiladi. Shu maqsadda maktablar, jamoatchilik tashkilotlari va pedagoglar tomonidan ota-onalarning

pedagogik bilimlarini oshirishga qaratilgan seminarlar, maslahatlar, amaliy mashg‘ulotlar hamda treninglar muntazam tashkil etiladi. Ota-onalarning ta’lim jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish uchun maktablar, mahalliy hamjamiyatlar va oliy ta’lim tashkilotlari doirasida turli hamkorlik guruhlari faoliyat yuritadi. Shuningdek, ota-onalar birlashmalari ijtimoiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, xayriya aksiyalarini o‘tkazish va oilalarni umumiy loyihalar atrofida birlashtirish orqali ta’lim muassasasi hamda oila o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga hissa qo‘shadi. Ushbu faoliyatlar Amerika ta’lim tizimining samarali ishlash mexanizmlaridan biri sifatida xizmat qiladi” [86].

“Nogironligi bo‘lgan bolani oilada tarbiyalash katta sabr-toqat, chuqur psixologik bilim hamda pedagogik yondashuvni talab qiladigan murakkab jarayon hisoblanadi. Bunday tarbiya jarayonining o‘ziga xosligi oila ichidagi sharoit, bolaning nogironlik turi hamda ota-onaning mas’uliyatni qay darajada to‘liq anglab, uni amalga oshira olishiga bog‘liq bo‘ladi” [86].

Ota-onaning to‘g‘ri xulq-atvori va ijobiy shaxsiy namunasi natijasida bola jamiyatda qabul qilingan odob-axloq me’yorlarini asta-sekin o‘zlashtiradi. Shu bilan birga, u hayotda muhim o‘rin tutadigan mehr-shafqat, halollik, intizom va mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlarni shakllantirib boradi.

Bolalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi va dunyoqarashining kengayishi ko‘pincha ular ishtirok etadigan birgalikdagi faoliyat hamda muloqot jarayonlarida shakllanadi va mustahkamlanadi. Shu sababli ota-onalar farzandlari bilan muntazam ravishda suhbatlashib, ular bilan ko‘proq vaqt o‘tkazishlari muhim ahamiyatga ega. Bunda bolaning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari va psixologik holati albatta inobatga olinishi kerak. Ayniqsa, oila nogironligi bo‘lgan bolaning rivojlanishida eng asosiy va ta’sirchan muhit hisoblanadi. Shu bois jamiyatda oilaga katta e’tibor qaratiladi va uning har bir a’zosini qadrlash, oilaviy qadriyatlarni hurmat qilish muhim tamoyil sifatida shakllantiriladi.

Nogironligi bo‘lgan bolalarni mustaqil shaxs sifatida tarbiyalash jarayonida ota-onalarning vaziyatga to‘g‘ri va muvozanatli yondashuvi –

ya’ni adekvatlikni saqlashi – alohida ahamiyat kasb etadi. Bola va ota-ona o‘rtasidagi ishonchli munosabatlar uning keyingi hayotida begona muhitga moslashishi va ijtimoiy aloqalarni yo‘lga qo‘yishida mustahkam tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Bunday bolalar ham boshqa tengdoshlaridek tashqi muhit bilan faol aloqada bo‘lishga intiladilar. Ushbu jarayon ularning jamiyat hayotiga to‘laqonli va mustaqil a’zo sifatida qo‘shilishiga zamin yaratadi. Shunga qaramay, oilaviy muhitning o‘zi yetarli emas, bolaga individual ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda mutaxassislarning kasbiy yordami ham zarur bo‘ladi. Mutaxassislar ishtirokining ko‘lami esa bolaning rivojlanish xususiyatlari va nogironlik darajasiga qarab belgilanadi.

Tarbiyaviy jarayonda eng muhim jihatlardan biri – bolada o‘ziga o‘zi xizmat qilish va mustaqil harakatlanish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Shu orqali uning boshqalarga to‘liq qaram bo‘lib qolishining oldi olinadi. Bunday ko‘nikmalarni rivojlantirish odatda oddiy kundalik odatlardan, ya’ni tartib-intizom va shaxsiy gigiyena qoidalarini o‘rgatishdan boshlanadi. Keyinchalik bola asta-sekin uy ishlariga jalb qilinib, uni faol hayot tarziga moslashtirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Bunda bolaning jismoniy yoki aqliy rivojlanishidagi cheklovlar muammo sifatida emas, balki hal etilishi mumkin bo‘lgan vazifa sifatida qaralishi muhimdir. Shu yondashuv uning o‘ziga ishonchini oshiradi va mustaqil hayotga tayyorlanish jarayonini samarali qiladi.

Yaqin o‘tmishda AQSh tajribasida nogironligi mavjud bolalarni shahar tashqarisida joylashgan maxsus ta’lim muassasalarida o‘qitish eng maqbul yondashuv sifatida qaralgan. Biroq keyingi yillarda bu boradagi ijtimoiy, siyosiy va axloqiy qarashlar sezilarli darajada o‘zgardi. Hozirgi kunda esa bunday bolalarni oilasidan uzoqlashtirmasdan, aksincha, maxsus ishlab chiqilgan dasturlar asosida o‘z uy muhitida ta’lim olishlarini ta’minlash ko‘proq qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Ilgari nogironligi mavjud bo‘lgan shaxslarga jamiyatda ko‘proq ojiz, doimiy yordamga muhtoj va nochor inson sifatida qaralgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib ularga teng huquqli, mustaqil hayot kechira oladigan, biroq ayrim sohalarda qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoji bo‘lgan

shaxs sifatida yondashilmoqda. Nogironligi bo‘lgan bolalarni tarbiyalash jarayonida eng muhim masalalardan biri ota-onalarning farzandining holatiga nisbatan munosabatidir. “Ota-onaning bilim darajasi, hayotiy tajribasi, madaniy saviyasi hamda shaxsiy psixologik xususiyatlari bolaning rivojlanish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Agar ota-onada tushkunlik, sarosima yoki ruhiy beqarorlik holatlari kuzatilsa, bu holat bolaga ham o‘tib, unda ruhiy tushkunlik va ishonchsizlik hissini kuchaytirishi mumkin. Natijada bunday oilalarda ichki muvozanatning buzilishi, muammolarning chuqurlashishi kuzatiladi. Ayrim oilalar nogironligi bo‘lgan bolani jamiyatdan ajratib, uni tashqi muhitdan uzoqlashtirishga harakat qilsa, boshqa oilalar esa aksincha, uni tengdoshlari kabi ijtimoiy hayotga faol jalb etishga intiladi. Aynan ota-onaning tanlagan yondashuvi bolaning kelajakdagi ijtimoiy moslashuvi va hayotda o‘z o‘rnini topishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin” [119].

Nogironligi bo‘lgan bolani oilada voyaga yetkazish butun oila a’zolaridan sabr-toqat, mas’uliyat va doimiy e’tiborni talab qiladigan murakkab jarayondir. Bunday farzand dunyoga kelganida ota-onaning vaziyatni to‘g‘ri qabul qilishi va undagi ijobiy jihatlarni ko‘ra bilishi juda muhim ahamiyatga ega. Farzand qanday holatda bo‘lishidan qat’i nazar, u o‘zini ota-onasi tomonidan sevilishi va qabul qilinishini his qilib o‘sishi kerak. Bolalar kattalarning so‘zlari, hissiyotlari va munosabatlariga nihoyatda sezgir bo‘ladilar. Ular yaqin insonlarining har bir xatti-harakatini kuzatib, tezda o‘z ongiga singdirib boradilar.

Koreya tajribasi. “Nogironligi bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlash, ularning oilaviy va ta’limiy muhitda to‘laqonli rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratish hamda ijtimoiy faoliyatga keng jalb etish kelgusida jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta’minlovchi muhim pedagogik omillardan biridir” [119]. Shu bilan birga, bunday yondashuv bolalarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga, mustaqil hayotga tayyorlanishiga va to‘laqonli shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. So‘nggi yillarda jahon tajribasida maktablar va boshqa bolalar tarbiya muassasalarida inklyuzivlikni targ‘ib qilish boshlandi. Biroq, ularning

barchasi maxsus ta’lim o‘qituvchilariga, siyosiy va moddiy rag‘batlantirish va stigmalardan himoyaga muhtojdirlar.

2011 yilda qabul qilingan 13.1-sonli qonunga muvofiq, ta’lim muassasalari jismoniy nuqsoni mavjud bo‘lgan yoki imkoniyati cheklangan bolalarning ta’lim olishida to‘sqinliklarni bartaraf etishi shart. Janubiy Koreyada Ta’lim, fan va texnologiya vazirligi 5 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun bepul ta’limni ta’minlaydi. Hozirgi kunda Seulda maxsus muassasalar soni 29 tani, butun mamlakat bo‘ylab esa 754 tani tashkil etadi.

Davlat bolalarning sog‘lig‘i bilan bog‘liq ehtiyojlari yoki oilaviy sharoitda doimiy parvarishga muhtojligi kabi holatlarni inobatga olgan holda, turli platformalar orqali qulay onlayn ta’lim imkoniyatlarini yaratadi. Shuningdek, ota-onalar uchun maxsus yo‘riqnomalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular mutaxassislar tomonidan tayyorlangan videodarslar yordamida farzandlariga to‘g‘ri parvarish va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish usullarini o‘zlashtirishlari mumkin.

Seul megapolisi hozirgi kunda nogironligi mavjud bolalarning jamiyat hayotiga faol integratsiyalashuvi va ularning mustaqil shaxs sifatida shakllanishini qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratmoqda. Shu maqsadda oilalarda hayot sifatini yaxshilash hamda zarur ijtimoiy xizmatlar ko‘lamini kengaytirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

– 2003-yildan boshlab nogironligi bo‘lgan bolalarni parvarish qilishga yo‘naltirilgan barcha turdagi xizmatlar to‘liq davlat tomonidan moliyalashtirilib, ulardan foydalanish uchun to‘lov undirilmaydi.

– Nogironligi bo‘lgan bolalarga xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan integratsiyalashgan ta’lim va parvarish tizimining turli shakllari, jumladan, davlat va milliy miqyosdagi markazlar hamda kunduzgi parvarish xizmatlarini moliyalashtirish davlat mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Mazkur xizmatlardan foydalanishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida bir nafar bola uchun o‘rtacha 10 million Koreya voni miqdorida budjet mablag‘lari yo‘naltiriladi. Seul shahridagi kunduzgi

parvarish markazlari ham ushbu tizim doirasida bolalarga zarur pedagogik va parvarish xizmatlarini ko‘rsatadi.

– Individual o‘qituvchilar va tibbiy-terapevtik mutaxassislar xizmatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularning xarajatlarining 80 foizi rag‘batlantirish sifatida qoplanadi, bu uchun har oy taxminan 1 million von ajratiladi. Bundan tashqari, bolalarni zarur o‘quv materiallari bilan ta’minlash uchun oyiga 21 ming von miqdorida qo‘shimcha mablag‘ berib boriladi.

Mazkur loyihaning dastlabki bosqichi 2012-2014-yillar oralig‘ida amalga oshirilgan bo‘lib, dastlab mamlakat bo‘ylab 250 ta markaz o‘z faoliyatini boshlagan. Ayni kunda bunday markazlar soni 959 tani tashkil etadi.

Dasturning navbatdagi “Baxtli bola, baxtli ona” bosqichida quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

– bola parvarish markazlari faoliyatini hamda sonini oshirish;

– bolalar parvarishi milliy dasturining ishlab chiqilishi va amaliyotga tadbiq etilishi;

– milliy g‘amxo‘rlik dasturi nazoratini ta’minlash;

– jamiyatda bolalarni parvarish qilish markazlarining keng yoyilishi uchun doimiy targ‘ibotlar olib borilishi;

– bola parvarishiga doir pullik xizmatlar sonini qisqartirish;

– bolalar bog‘chalarining maxsusu faoliyati ustidan tegishli nazoratni yo‘lga qo‘yish;

– bola parvarishi markazlari rahbarlarining faoliyatini nazoratga olish;

– bolalarni parvarish qilish bo‘yicha kompleks markazlarning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.

Dastur samarasini ta’minlash uchun, eng avvalo, butun jamiyatga chuqurroq singishini ta’minlash maqsadida dastur doirasida kichik sohalarda ham keng ko‘lamli faoliyatni yo‘lga qo‘yish va uning faoliyati doimiy tarzda isloh qilinmoqda. Jumladan:

– har bir mahalla tizimida bola parvarishiga mas’ul shaxs tayinlanadi;

– oilaviy muhitni yaxshilash uchun moslashtirilgan tashrifli maslahatlar xizmati yo‘lga qo‘yilgan;

– olib borilayotgan ishlar yuzasidan monitoring guruhlari shakllantiriladi;

– moslashtirilgan tashrifli hamshiralik xizmatlari qo‘llab-quvvatlanadi;

– parvarish markazlarining muammolarini hal etish va zarur choralarni ko‘rish uchun shart-sharoit hamda vakolatlarni ta’minlash uchun ishchi guruh tuzish;

– bola parvarishi markzalari xodimlarining salomatligini qo‘llab-quvvatlash.

– markaz xodimlarining malakasini oshirish tizimini yo‘lga qo‘yish va uni faol amaliyotda joriy etish.

Koreya xalqi uchun bola tarbiyasida hamjihatlikning ahamiyati nihoyatda muhim. Shuning uchun ham ular mazkur dasturlarning barchasini jamiyatdan uzilmagan, ajralmagan holda faol qo‘llab-quvvatlamoqda. Shu maqsadda jamiyatda markazlarning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qator tadbirlar doimiy tarzda amalga oshirilmoqda. Misol uchun:

– turli xil korxona va muassasa xodimlari birgalikda markazlarga tashrif buyuradilar, bolalar bilan faol muloqotga kirishib ular bilan o‘yinchoqlar almashadilar, bu tadbirdan ko‘zlangan maqsad – jamiyat ongida ijtimoiy ko‘makka muhtoj qatlam mavjudligi haqidagi fikrni yanada chuqurroq singdirish;

– jamiyatning bola parvarishidagi faol ishtirokini ta’minlash;

– Seul bolalar muzeyi va mamlakatdagi boshqa muzeylar bilan faol hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

– ish joylarida bola parvarishi markaazlarining faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.

– nogironligi mavjud bolalar uchun integrasiyalashgan bola parvarishi markazlari faoliyatidan faol foydalanish.

– xorijiy madaniyat vakillari bo‘lgan oilalar farzandlariga ham qulay parvarish xizmatlarini yo‘lga qo‘yish.

– fuqarolarga bola parvarishi bo‘yicha turli xil vaqt rejimidagi xizmatlarni taklif etish.

Dastur nafaqat nogironligi mavjud oilardagi bola parvarishini, balki oilaning boshqa a’zolarining ham ma’naviy-ruhiy va jismoniy salomatligini yaxshilashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Shu maqsadda dastur doirasida oilalarni sog‘lomlashtirish bo‘yicha quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda:

– oilalarga ish va oila o‘rtasida bir-biriga ta’sir etuvchi muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ko‘maklashish;

– otalar kurslarining tashkil etilishi;

– tug‘ilishning past ko‘rsatkichlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida zarur chora-tadbirlarni ko‘rish;

– bolalar uchun imkon qadar ko‘proq “baxt kartasi” loyihasini tadbiq etish;

– mahallalarda uch yillik ota-onalar o‘quv kurslarini tashkil etish va oilalarni qamrab olish.

Dastur davomida bola parvarishi markazlari ota-onalar uchun bir qator xizmat turlarini taklif etadi. Jumladan, markaz faoliyati davrida ota-onalarga bola parvarishi markazlari haqida to‘liq ma’lumot berib, har bir ota-onaga o‘z farzandining tarbiyasi bo‘yicha individual yondashuvlar asosida zarur maslahatlar beradi. Bundan tashqari, ularga jamiyatdagi boshqa xizmatlardan foydalanish bo‘yicha zarur ko‘rsatmalar berilib, so‘nggi yangiliklardan doimiy ravishda xabardor etib boriladi.

Dastur onalar uchun jamiyatdagi yangiliklardan tez xabardor bo‘lish, shuningdek, fikr almashinuvi qulay bo‘lishi uchun dastur hududiy SNS Duam “Happy Mom Service” xizmatini taqdim etadi.

Imqoniyati cheklangan bolalarga nisbatan integrasiya jarayonlarining rivojlanishi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashabbusi bilan qabul qilingan xalqaro qonun hujjatlarini amalga oshirish zarurati bilan bog‘liq edi. Shu bilan birga, bolalarni umumiy ta’lim tizimiga jalb etish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, hatto Avstraliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Daniya, Kanada, Italiya, AQSh va Shvetsiya kabi rivojlangan mamlakatlarda ham inklyuziv ta’limni joriy etishning dastlabki bosqichlarida kutilgan natijaga to‘liq erishilmagan. Mazkur jarayonning

izchil va samarali amalga oshirilishiga turli tashkiliy, ijtimoiy hamda pedagogik omillar muayyan darajada to‘sqinlik qilmoqda. “Xususan, inklyuziv ta’limni umumiy ta’lim tizimiga keng joriy etish jarayonida jamiyatning bunday o‘zgarishlarga tayyorgarlik darajasi yetarli emasligi, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarni ijtimoiy jihatdan qabul qilish va qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq qarashlarning to‘liq shakllanmaganligi muhim muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, umumiy o‘rta ta’lim maktablari pedagoglarining inklyuziv muhitda faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan yangi kasbiy vazifalarni o‘zlashtirishida ham ayrim qiyinchiliklar kuzatiladi. Ayrim hollarda o‘qituvchilarning qo‘shimcha pedagogik mas’uliyatni bajarishga tayyorgarligi yetarli bo‘lmasligi ham jarayonning samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, mavjud ta’lim amaliyotida nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga oluvchi maxsus pedagogik xizmatlar, moslashtirilgan ta’lim sharoitlari, zarur metodik vositalar hamda uzluksiz psixologik-pedagogik ko‘mak tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi inklyuziv ta’limni to‘laqonli tashkil etishdagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda” [129].

“Shuni alohida ta’kidlash lozimki, alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalarni umumiy o‘rta ta’lim tizimiga jalb etish borasidagi dastlabki muvaffaqiyatsiz tajribalar bu yo‘nalishdagi ishlarni to‘xtatib qo‘ymadi. Aksincha, rivojlangan davlatlar ushbu jarayondan xulosa chiqargan holda, qabul qilingan qonun va me’yoriy hujjatlarga tayangan tarzda ta’lim tizimida integratsiya jarayonlarini yanada izchil, maqsadli va samarali rivojlantirishga alohida e’tibor qaratdilar. Xususan, 2017-yilda Daniya parlamenti tomonidan qabul qilingan qonunchilikka binoan, nogironligi bo‘lgan bolalarning jamiyatga va ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Ushbu hujjatga ko‘ra, mazkur toifadagi barcha bolalar 9 yillik umumta’lim maktablarida tahsil olish huquqiga ega etib belgilangan bo‘lsa-da, shu bilan birga maxsus maktablar hamda maxsus sinflar tizimi to‘liq bekor qilinmagan holda saqlab qolingan” [19].

Bir qator zamonaviy ilmiy tadqiqotlar natijalari va tahlillari shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunga kelib Buyuk Britaniya, Daniya, Hindiston, Islandiya, Ispaniya, Kanada, Kipr, Malta, Niderlandiya, Norvegiya, AQSh, Shvetsiya hamda Janubiy Afrika kabi mamlakatlarda ham huquqiy tizimlar har tomonlama mukammal va to‘liq deb baholanishi mumkin emas. Ya’ni, ushbu davlatlarda huquq sohasida muayyan yutuqlar mavjud bo‘lsa-da, tizimning ayrim jihatlarida hali ham kamchiliklar va takomillashtirishni talab etuvchi masalalar saqlanib qolmoqda. Italiyada qonunchilik 2019 yildan beri inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlamoqda.

Biroq, eng yaxshi qonunlarga ega bo‘lish inklyuziyaning benuqson ishlashini kafolatlaydi, deb aytish mumkin emas. Masalan, Hindistonda samarali qonunchilikning mavjudligi inklyuziv ta’limni targ‘ib qilish bilan bog‘liq muammolar yo‘qligini anglatmaydi. Germaniya Federativ Respublikasida huquqiy jihatdan mustahkam va rivojlangan ta’lim tizimi shakllangan bo‘lsa-da, maxsus ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarning katta qismi hanuzgacha ixtisoslashtirilgan (maxsus) ta’lim muassasalarida tahsil oladi. Daniya esa inklyuziv ta’limni joriy etgan ilk davlatlardan biri sifatida e’tirof etilsada, amaliyotda maxsus maktablarda o‘qiyotgan alohida ehtiyojli bolalar sonining ortib borayotganligi kuzatilmoqda. “Gollandiya hamda Belgiyaning Flamand hududida ixtisoslashtirilgan maktablar tizimi ancha rivojlangan bo‘lib, ayrim tadqiqotchilar va mutaxassislar bu holatni inklyuziv ta’limni kengaytirish va to‘liq joriy etish jarayoniga ma’lum darajada to‘siq bo‘layotgan omillardan biri sifatida baholashadi. Flandriyada alohida ehtiyojli bolalarning atigi 0,1% integrasiyalashgan maktablarda o‘qiydi. Gresiyada bunday bolalarning 1% dan kamrog‘i, AQShda - 45%, Italiyada - ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra 80% dan 95% gacha, boshqalarga ko‘ra-99,9% gacha integrasiyalashgan maktablarda o‘qiydi. Avstraliya va Buyuk Britaniyada vaziyat mintaqadan mintaqaga o‘zgarib turadi va turli hududlardagi o‘rta maktablarga integratsiyalashgan alohida ehtiyojli bolalar foizi farq qilishi mumkin” [41].

Tadqiqotchilar fikricha, eng keskin va jadal o‘zgarishlar Vetnam, Misr, Iordaniya, Yaman, Marokash, Laos hamda Falastin kabi davlatlarda

kuzatilmoqda. Mazkur mamlakatlarda ta’lim tizimida islohotlar sur’ati ancha yuqori bo‘lib, alohida ehtiyojga ega bolalarni jamiyatga va umumiy ta’lim muhitiga integratsiya qilish jarayonlari faollashib bormoqda. Shu bilan birga, arab davlatlarida nafaqat maxsus ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta’limga jalb etish, balki qiz bolalarni ham ommaviy (umumta’lim) maktablar tizimiga kengroq qamrab olish yo‘nalishidagi ishlar ham izchil davom ettirilmoqda.

Mazkur jarayon dinamikasi, asosan, yuqorida tilga olingan davlatlarda YuNESKO tomonidan amalga oshirilayotgan ta’lim dasturlarining izchil va samarali tatbiq etilishi bilan bevosita bog‘liqdir. Xususan, “Ta’lim hammaga” (Education for All) tashabbusi o‘tgan davrlarda turli sabablarga ko‘ra maktab ta’limidan chetda qolgan bolalarni, jumladan, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga keng jalb etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Ushbu dastur doirasida Shvetsiya, Norvegiya hamda Buyuk Britaniya kabi rivojlangan mamlakatlarning yetuk mutaxassislari rivojlanayotgan davlatlarga, shuningdek, sobiq sotsialistik tizimdan chiqqan Sloveniya, Xorvatiya, Makedoniya, Bolgariya va Ruminiya singari qator mamlakatlarga ilmiy-metodik va amaliy jihatdan yordam ko‘rsatib kelmoqda. 1980-yillar davomida YuNESKO tomonidan o‘qituvchilar, maktab ma’muriyati va ta’lim jarayonini tashkil etuvchi mutaxassislar uchun bir qator metodik qo‘llanmalar, axborot to‘plamlari hamda sinf sharoitida ishlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mazkur resurslar ta’lim tizimining axborot-metodik bazasini boyitib, inklyuziv ta’limga bosqichma-bosqich o‘tish jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilgan[41].

Bir qator xorijiy davlatlar misolida ta’lim amaliyotiga kiritish xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz.

G. Mann va G. Barnard kabi ilg‘or amerikalik pedagoglarning islohotlari natijasida 1852 yilda Massachusetsda barcha bolalar uchun majburiy boshlang‘ich ta’limni ta’minlaydigan birinchi qonun qabul qilingan. 1918 yilga kelib, barcha shtatlarda barcha bolalar uchun majburiy boshlang‘ich ta’limni ta’minlash uchun qonunlar qabul qilindi.

Albatta, Yevropa va Amerikada nogiron bolalarning kafolatlangan ijtimoiy yordam va ta’lim olish huquqiga ega bo‘lishi, shuningdek, jamiyat va davlat ushbu huquqni amalga oshirish mas’uliyatini o‘z zimmasiga olishi “ochilish” sifatida baholanishi mumkin.

Hozirgi kunda Qo‘shma Shtatlarda inklyuziv ta’lim dasturi keng joriy etilgan bo‘lib, uning huquqiy va tashkiliy asoslari 1973-yilda qabul qilingan “Reabilitatsiya to‘g‘risida”gi qonun hamda “Nogiron bolalarni ta’limga jalb etish to‘g‘risida”gi hujjatlar bilan shakllantirilgan. “Keyinchalik AQSh Kongressi Kolumbiya okrugi tajribalarini inobatga olgan holda nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta’limini tartibga soluvchi maxsus qonunni qabul qildi; ushbu hujjat vaqt o‘tishi bilan “Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ta’lim to‘g‘risidagi qonun” nomi bilan keng tanildi. Ushbu huquqiy me’yorlar mahalliy ta’lim tizimlarida maxsus ta’lim xizmatlarini samarali tashkil etish uchun tegishli moliyaviy va moddiy resurslarni shakllantirishni nazarda tutadi. Shuningdek, ta’lim jarayonini tashkil etishda har bir o‘quvchining o‘ziga xos ta’limiy ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini inobatga olishni muhim talab sifatida belgilaydi” [11].

Qonunchilikda integratsiya tamoyili – nogironligi bo‘lgan bolalarni maxsus muassasalarda o‘qitish o‘rniga ularni imkon qadar umumta’lim maktablarida tahsil olishiga ustuvor ahamiyat berish, shu bilan birga zarur holatlarda ularga individual yondashuv asosida qo‘shimcha pedagogik, psixologik va ijtimoiy yordam ko‘rsatishni nazarda tutadi.

“Inklyuzivlik”ni har bir bolaning qabul qilinishi va ta’limga yondashuvning moslashuvchanligi deb ta’riflash mumkin. Ushbu ta’lim modeli imqoniyati cheklangan bola oddiy bolalar bilan birga o‘qishi mumkinligini anglatadi. Bu yondashuv aqliy nuqsonlari mavjud bo‘lgan bolalarga ham bevosita tatbiq etiladi. “Inklyuziv ta’lim tizimining asosiy maqsadi bolaning individual imkoniyatlari, psixologik holati, aqliy rivojlanish darajasi, ijtimoiy tajribasi yoki emotsional xususiyatlaridan qat’i nazar, uning ta’lim jarayonida teng va faol ishtirok etishi uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni ta’minlashdan iborat” [105]. Amerika Qo‘shma Shtatlarida ta’lim siyosatida imkon qadar bolalarni umumiy ta’lim muhitiga jalb etish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Shu bilan

birga, maxsus ta’lim ehtiyojlari yuqori bo‘lgan o‘quvchilar uchun ixtisoslashtirilgan muassasalar faoliyati ham davom ettiriladi. “Bunday muassasalarga yo‘naltirish esa, odatda, umumiy ta’lim sharoitida bolaning ehtiyojlarini to‘liq qondirish imkoniyati mavjud bo‘lmagan alohida vaziyatlarda ko‘rib chiqiladi” [105].

Inklyuziv ta’lim tamoyillariga ko‘ra, umumiy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etish va rejalashtirishda har bir o‘quvchining o‘ziga xos jihatlari, mavjud imkoniyatlari, ta’limiy ehtiyojlari hamda individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish muhim pedagogik talab sifatida namoyon bo‘ladi. Shu orqali har bir bola uchun teng imkoniyatlar yaratilib, ta’lim jarayonining samaradorligi oshiriladi.

Maxsus ta’limga muhtoj bolalar uchun individual ta’lim rejasini ishlab chiqish quyidagi o‘lchovlarga asoslanadi: realizm, muvaffaqiyat darajasi, baholash qobiliyatlari, faollik. Imqoniyati cheklangan bolani ta’limga jalb etish uning ehtiyojlari va cheklovlariga bog‘liq. U bola:

– ta’lim tashkiloti mutaxassislarining zarur yordami bilan oddiy sinfda o‘qish;

– kunning bir qismi oddiy darslarda, qolgan qismi esa maxsus darslarda o‘tkaziladi;

– o‘quv jarayoniga maxsus mutaxassislar guruhi tomonidan turli xil ko‘mak bilan jalb qilinadi;

– turli mutaxassislarning doimiy yordami bilan reabilitasiya dasturi doirasida o‘qishi mumkin.

1980-yillarga kelib, AQShda inklyuziv ta’lim siyosatini amalga oshirish doirasida nogironligi bo‘lgan turli toifadagi shaxslarning ehtiyojlari chuqur hisobga olinadigan yangi yondashuv shakllana boshladi. Shu davrdan boshlab ta’lim muassasalari infratuzilmasini takomillashtirish, ya’ni yangi binolarni barpo etish hamda mavjud eski binolarni zamonaviy talablar asosida qayta ta’mirlash va moslashtirish ishlari tizimli ravishda yo‘lga qo‘yildi. Mazkur jarayonni samarali amalga oshirish uchun davlat tomonidan qo‘shimcha moliyaviy resurslar ajratildi, shuningdek, belgilangan qurilish va moslashtirish standartlariga rioya qilinmaslik holatlariga nisbatan qat’iy nazorat hamda keskin huquqiy choralar joriy etildi.

Imqoniyati cheklangan shaxslarga nisbatan davlat siyosatining ko‘zlagan maqsadi nogironligi bo‘lgan shaxsga oddiy inson kabi zarur xizmatlardan foydalanishi uchun sharoit yaratishdan iborat.

Ko‘zi ojizligi mavjud bo‘lgan shaxslar uchun maxsus yo‘lboshchi itlar (gid-itlar) berib boriladi. Bunday yondashuv va zamonaviy texnologiyalar mamlakatning barcha hududlarida bosqichma-bosqich joriy etilib, nafaqat ta’lim olish jarayonida teng imkoniyatlardan foydalanishni ta’minlaydi, balki kelajakda ularning mehnat bozoriga chiqishi va barqaror ish bilan ta’minlanishiga ham keng yo‘l ochib beradi. Norvegiya va Shvesiyada ta’lim siyosati nogiron bolalarni integrasiyalashga qaratilgan.

Shvesiya integratsiya g‘oyasi izchil rivojlanib borayotgan davlatlardan biri sifatida e’tirof etiladi. 1969 yilda mamlakatda qabul qilingan tegishli hukumat hujjati integratsion yondashuvning amaliy bosqichga o‘tishida muhim burilish nuqtasi bo‘lib xizmat qilgan va ushbu jarayonning boshlanishi sifatida baholanadi.

Shvesiya ta’lim tizimida o‘qituvchilarning faoliyati yuqoridan beriladigan ko‘rsatmalar asosida ancha qat’iy tartibga solinadi. Yangi ta’lim standartlarining joriy etilishi o‘qituvchilarning mehnat jarayonini yanada murakkablashtirdi, shu bilan birga ularning kasbiy faoliyatiga nisbatan qo‘yiladigan talablar sezilarli darajada oshdi. Integratsiya jarayonining keyingi bosqichlarda yanada kengayishi va mustahkamlanishida esa iqtisodiy omillar ham muhim rol o‘ynab kelmoqda.

Italiya parlamenti tomonidan 517-sonli qonunning qabul qilinishi mamlakat ta’lim tizimida tub burilish yasadi. Mazkur huquqiy hujjat asosida maxsus ta’lim muassasalari bosqichma-bosqich yopilib, alohida ta’limga muhtoj bo‘lgan bolalar umumta’lim maktablari tarkibiga integratsiya qilina boshlandi. Natijada inklyuziv yondashuv keng joriy etilib, ta’lim jarayoni barcha bolalar uchun ochiq va moslashuvchan tizimga aylandi.

Italiyada shakllangan integratsiya modeli jamiyat hayotida ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lib, ijtimoiy barqarorlik va teng imkoniyatlarni ta’minlashda muhim omil sifatida xizmat qildi. Shu bois mamlakat

tajribasi xalqaro miqyosda katta qiziqish uyg‘otib, u “amaliy tajriba laboratoriyasi” sifatida e’tirof etila boshlandi. Ayniqsa, Sirakuzadagi (Nyu-York) Amerika universitetining integratsiya yo‘nalishida faoliyat yurituvchi bir guruh mutaxassislari Italiyada amaliy stajirovkadan o‘tib, ushbu tizimning samarali jihatlarini chuqur o‘rganib qaytganlari ham qayd etiladi.

Italiyada ta’lim jarayonini tartibga soluvchi muhim normativ hujjat qabul qilinib, unda inklyuziv ta’lim tamoyillarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha aniq talablar belgilab berildi. Mazkur qonunga muvofiq:

– bitta sinfdagi o‘quvchilar soni odatda 20 nafardan oshmasligi lozimligi qayd etildi;

– sinf tarkibida alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalar soni 2 nafardan ko‘p bo‘lmasligi belgilandi;

– alohida ehtiyojli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida maxsus yo‘naltirilgan darslar va yordamchi faoliyatlar o‘quv jarayoniga integratsiya qilindi;

– maxsus (alohida) sinflarni bosqichma-bosqich tugatish jarayoni yo‘lga qo‘yildi;

– maxsus ta’lim o‘qituvchilari umumta’lim maktablari pedagoglari bilan hamkorlikda jamoaviy faoliyat olib borish tizimiga o‘tkazildi;

– natijada ikkala toifadagi o‘qituvchilar ham sinfdagi barcha o‘quvchilar bilan birgalikda ishlash, ularning ehtiyojlariga mos yondashuvlarni qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Rasmiy ravishda, maxsus o‘qituvchilarning maxsus ta’limga muhtoj bolalarga nisbati 1: 4 ni tashkil qiladi, lekin aslida bu taxminan 1: 2. Agar sinfda ko‘r yoki kar bola bo‘lsa, butun sinf Brayl yoki imo-ishora tilini o‘rganadi.

2003 yilda Italiya ta’lim vazirligi barcha maktab direktorlarini maxsus o‘quv kurslaridan o‘tishni talab qildi. Shuningdek, mazkur qonunga muvofiq, barcha o‘qituvchilar yiliga 40 soatlik malaka oshirish kursidan o‘tishi nazarda tutilgan.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida bo‘lgani kabi Italiyada ham maktab o‘quvchilarini qo‘llab-quvvatlash va materialni o‘zlashtirish uchun hamkorlikda ishlashga katta e’tibor beriladi.

Finlyandiyada maktab ta’limi sohasidagi davlat siyosati inklyuziv maktabning fundamental tamoyillariga asoslanadi, uning uslubiy asosini M. Montessori, S. Frene, R. Shtayner konsepsiyalari tashkil etadi. Bu tushunchalarning asosiy maqsadi bolaning qobiliyat va imkoniyatlariga qarab har tomonlama rivojlanishiga rahbarlik qilishdir.

Finlyandiya pedagogik yondashuvida davlat har bir bolaning shaxsiy qadr-qimmati va uning betakror individualligiga chuqur ishonch bilan qaraydi hamda unga alohida e’tibor qaratadi. Ta’lim jarayoni esa moslashuvchan, o‘quvchilarning ehtiyojlariga tez moslasha oladigan tizim asosida tashkil etilib, barcha o‘quvchilar uchun ta’lim natijalarida tenglikka erishishni rag‘batlantirishga yo‘naltiriladi [41].

Maxsus ta’limga muhtoj bolalarni umumiy bolalar bog‘chalari va maktablariga inteyugrasiya qilish g‘oyasi birinchi marta 1974 yilda Gresiyada kiritilgan. Biroq, boshqa ko‘plab mamlakatlardan farqli o‘laroq, integrasiya jarayonini manfaatdor guruhlar - o‘qituvchilar va ota-onalarning bosimi bilan emas, balki tegishli qonunning qabul qilinishi (1981) bilan boshlandi. Biroq, statistika ma’lumotlariga ko‘ra, maxsus sinflar va maxsus maktablar 1983 yildan 1993 yilgacha ko‘paygan.

Tadqiqotchilar rivojlanish va integratsiya jarayonlarida ijobiy dinamikaning yetarli darajada shakllanmaganligini bir qator omillar bilan izohlaydilar. Ularning fikricha, nogironligi bo‘lgan shaxslarga nisbatan noaniq va bir xil bo‘lmagan yondashuvlar bilan bir qatorda, Gresiya davlatida inklyuziya va integratsiya jarayonlari amalda yetarlicha rivoj topmagan. Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

1. Tayanch-harakat tizimida turli cheklovlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarning umumiy ta’lim muassasalarida erkin va xavfsiz harakatlanishiga imkon beruvchi shart-sharoitlarning yetarli darajada yaratilmaganligi, xususan, bino va inshootlarga kirish, chiqish hamda maktab hududida mustaqil harakatlanishni qiyinlashtiruvchi jismoniy va infratuzilmaviy to‘siqlarning mavjudligi;

2. Bolalarga aniq tashxis qo‘yish va ularning rivojlanish xususiyatlarini belgilash uchun zarur standartlashtirilgan test va diagnostik vositalarning yetarli darajada mavjud emasligi;

3. Umumta’lim o‘qituvchilarining alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalar bilan ishlash bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan yetarlicha o‘tmaganligi;

4. Mahalliy boshqaruv organlarining erta aralashuv va integratsiya jarayonlariga yetarlicha qiziqish bildirmasligi, shuningdek, bu jarayonlarni yuqori moliyaviy xarajat talab qiladigan soha sifatida baholashi;

5. Hududlarda fizioterapiya, logopediya, psixologik qo‘llab-quvvatlash, huquqiy yordam kabi xizmatlarni ko‘rsatuvchi maxsus markazlarning soni yetarli emasligi yoki mavjud infratuzilmaning rivojlanmaganligi[41].

Xitoy davlatida inklyuziv ta’limning rivojlanishi bizga Xitoy jamiyatidagi nogironlarning alohida nuqtai nazari haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Xitoy xalqida alohida ehtiyojli odamlarning maxsus qobiliyatlari borligi haqidagi g‘oya ularni alohida jamoaga ajratadi.

1994-yilda Ispaniyada YuNESKO tomonidan alohida ehtiyojli shaxslar ta’limiga bag‘ishlangan Butunjahon konferensiyasi tashkil etilib, unda inklyuziv ta’lim tamoyillarini mustahkamlovchi muhim hujjat — Salamanka deklaratsiyasi qabul qilindi. Xitoy bu tashabbusni rasmiy darajada qo‘llab-quvvatlab, uning asosiy g‘oya va yondashuvlarini chuqur o‘rganishga kirishdi hamda amaliyotga joriy etish jarayonini boshladi. Hozirgi kunda Xitoyda inklyuziv ta’limni rivojlantirish maqsadida maxsus markazlar faoliyat yuritmoqda, turli ilmiy-amaliy konferensiyalar va seminarlar muntazam o‘tkazilmoqda, shuningdek, ushbu yo‘nalishda ko‘plab ilmiy va metodik nashrlar chop etilmoqda.

Xitoy Xalq Respublikasida “sui ban dzyudo” (“bir guruhda birga o‘qish”) deb nomlanuvchi yondashuv ko‘p yillik tajribalar asosida shakllangan bo‘lib, u o‘quvchilarning hamkorlikda bilim olishiga asoslangan yevropacha pedagogik g‘oyalar bilan hamohang tarzda rivojlangan. Xitoy ta’lim tizimida ushbu yo‘nalish G‘arb davlatlariga nisbatan biroz kechroq shakllangan va bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilgan. 1980-yillardan e’tiboran Xitoy ta’lim tizimida alohida ta’lim ehtiyojlari mavjud bo‘lgan bolalarni umumiy ta’lim jarayoniga jalb etish amaliyoti izchil rivojlana boshladi. Mazkur yondashuvning mohiyati

maxsus ehtiyojli bolalarni alohida ta’lim muassasalarida ajratib o‘qitishdan bosqichma-bosqich voz kechib, ularning umumta’lim maktablarida tengdoshlari bilan birgalikda ta’lim olishlari uchun zarur sharoitlarni yaratishga qaratildi. Natijada bunday o‘quvchilar umumiy sinf jamoasining tarkibiga kiritilib, ta’lim-tarbiya jarayonida boshqa bolalar bilan teng ravishda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘la boshladilar.

“Xitoyda xorijiy tajribalardan samarali foydalanish jarayonida mamlakatning ijtimoiy sharoiti va milliy xususiyatlari inobatga olingan holda integratsiyalashgan ta’lim amaliyotlari bosqichma-bosqich joriy etila boshlandi. 1994 yilda Nogiron bolalarni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashda ta’limning integratsiyalashgan yondashuvlarini joriy etish to‘g‘risidagi Nizomning qabul qilinishi Xitoy ta’lim tizimida inklyuziv jarayonlarning kengayishiga kuchli turtki berdi” [98].

Inklyuziv ta’lim konsepsiyasining rivojlanishi jamiyatda nogironligi bo‘lgan shaxslarning imkoniyatlari va ta’lim olish huquqiga nisbatan qarashlarning yangilanishiga olib keldi. “Mazkur yondashuv alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarni ham umumiy ta’lim muhitiga jalb etish, ular uchun zarur sharoitlarni yaratish hamda boshqa tengdoshlari bilan birgalikda ta’lim olish imkoniyatini ta’minlash mumkinligini amaliy tajriba asosida namoyon etdi. Shu bilan birga, Xitoylik mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan integratsiyalashgan ta’limga oid trening va o‘quv dasturlari bu yo‘nalishning keng ommalashishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi” [105].

Hozirgi davrda alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar sonining ko‘payib borayotgani bilan bir qatorda, ularning maxsus ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishiga imkon beruvchi sharoitlar turli ijtimoiy, tashkiliy va infratuzilmaviy omillar sababli yetarli darajada mavjud emasligi ham namoyon bo‘lmoqda. Bunday muammolarning asosiy omillaridan biri ayrim hududlarda maxsus maktablar yetarli darajada tashkil etilmaganligi bilan bog‘liq edi. Integratsiyalashgan ta’lim modeli alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarni umumiy ta’lim jarayoniga izchil va bosqichli tarzda qo‘shib borishni nazarda tutadi. Mazkur yondashuv orqali mavjud ta’lim amaliyotida uchraydigan ayrim

muammolarni kamaytirish hamda bunday o‘quvchilar uchun teng ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish ko‘zda tutiladi. Mavjud statistik ko‘rsatkichlarda 2000-yil holatiga ko‘ra, integratsiyalashgan ta’lim dasturlariga jalb qilingan nogironligi bo‘lgan bolalar jami kontingentning qariyb 63 foizini tashkil etgani qayd etilgan. Xitoylik olimlar va ta’lim sohasi mutaxassislarining fikricha, mazkur ko‘rsatkichning ortishi integratsiyalashgan ta’lim usullarining amaliyotga kengroq tatbiq etilishi, shuningdek, jamiyatda bag‘rikenglik, ijtimoiy hamjihatlik va alohida ehtiyojli shaxslarni qabul qilish munosabatlarining rivojlanishi bilan bog‘liq.

Yaponiyada barcha insonlarning o‘z imkoniyatlariga ko‘ra ta’lim olish huquqi Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yilgan. “Yaponiyada ta’lim sohasidagi vakolatli davlat organlari ta’lim tizimi faoliyatini belgilangan tartibda nazorat qilib, amaldagi qonunchilik asosida ta’lim xizmatlari va pedagog kadrlar tayyorlash sifatini monitoring qiladi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini muntazam rivojlantirish, ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy va metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlash hamda uning mazmunini takomillashtirishga katta e’tibor qaratiladi. Shuningdek, maxsus ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarga nisbatan ijobiy, hurmatga asoslangan va insonparvar munosabatni qaror toptirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar natijalarini amaliyotga joriy etish hamda ularni keng jamoatchilikka samarali yetkazish muhim vazifalardan biri sifatida qaraladi” [94, 58-64-betlar.].

G‘arb mamlakatlarida ta’lim integrasiyasi g‘oyalari irqi, jinsi, siyosiy, diniy, etnik va boshqa milliy xususiyatlariga ko‘ra kamsitishlarga qarshi turish kontekstida paydo bo‘ladi. Qozog‘istonda integrasiya aholining turli qatlamlari va ijtimoiy guruhlari hayoti keskin yomonlashgan vaziyatda nogironlarga insonparvarlik bilan yondashish zarurati sifatida e’lon qilingan.

Yuqorida qayd etilgan ta’lim turlarini mamlakatimiz ta’lim sohasida ham uchratish mumkin. “O‘zbekistonda ta’lim sohasini modernizatsiya qilishga qaratilgan islohotlar doirasida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarni umumiy ta’lim jarayoniga jalb etish hamda ularning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, inklyuziv ta’limni amaliyotga izchil tatbiq etish jarayonida ayrim hududiy muammolar saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, qishloq va chekka hududlarda ta’lim infratuzilmasining barcha bolalar ehtiyojlariga moslashtirilmaganligi, shuningdek, maxsus pedagogik va psixologik ko‘mak ko‘rsatishga qodir malakali kadrlar taqchilligi inklyuziv ta’limning samarali tashkil etilishiga muayyan to‘siqlarni yuzaga keltirmoqda” [94].

Binobarin, davlatimizdagi integrasiya jarayonlari inklyuziv ta’limning milliy modelini shakllantirish imkonini berishi kerak. Mazkur modelni ishlab chiqishda tarixiy-madaniy o‘ziga xosliklar hamda milliy pedagogik an’analar puxta inobatga olinishi lozim. Shu bilan birga, u inklyuziv ta’lim yo‘nalishida yuqori darajada rivojlangan davlatlarning ilg‘or va samarali tajribalarini ham o‘zida mujassam etishi zarur.

Respublikamizda alohida ta’limga muhtoj bolalarni tizimli ravishda o‘qitish va tarbiyalash tarixi Sovet hokimiyatining o‘rnatilishi bilan chambarchas bog‘liq. Bu bolalar uchun birinchi maxsus maktablar 1930-yilda ochilgan. 1936-37-yillarda aqli zaif bolalar maktablari soni 47 taga yetgan. 1934-yilda birinchi eshitish qobiliyati zaif bolalar maktabi, 1939-yilda esa ko‘zi ojiz bolalar uchun maktab ochilgan.

Biroq, “bu maktablarda o‘qitish sifati past va amaliyot bilan bog‘liq emas edi. Ulug‘ Vatan urushi tugagandan so‘ng, nogiron bolalarni maktablarda norasmiy o‘qitish bo‘yicha tegishli hujjatlar qabul qilindi, mehnat ta’limiga maksimal darajada e’tibor berildi. 1960-1970-yillarda alohida ta’limga muhtoj bolalarni aniqlash va hisobga olish choralari ko‘rildi. 1980-yillardan boshlab alohida ta’limga muhtoj bolalar uchun ixtisoslashtirilgan bog‘chalar ochishga katta e’tibor berildi. Bundan tashqari, respublikada logopediya markazlari tashkil etilgan” [4].

Bunday sharoitda ota-onalar birlashmalari va hamkor guruhlar alohida ta’limga muhtoj bolalar uchun moslashtirilgan yangi texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, ularning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi maxsus vositalar va mahsulotlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish yo‘lida izchil harakat qila boshladilar.

O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularning

ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va turmush farovonligini yaxshilashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, mazkur toifadagi fuqarolarning sifatli ta’lim olish, kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va munosib mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e’tibor berilmoqda. Ushbu jarayonlarda xalqimizning azaliy qadriyatlari bo‘lgan insonparvarlik, mehr-oqibat, o‘zaro ko‘mak va bag‘rikenglik tamoyillari asosida nogironligi bo‘lgan shaxslarning individual ehtiyojlarini inobatga olish hamda ularni jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida qo‘llab-quvvatlash muhim yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

Shuningdek, “mamlakatimizda nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va jamiyat hayotida faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan huquqiy-me’yoriy asoslar bosqichma-bosqich takomillashtirib borilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi PF–5270-son Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Farmoni” [11], “2019-yil 29-apreldagi PF–5712-son Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risidagi Farmoni” [12], “2020-yil 6-noyabrdagi PF–6018-son O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Farmoni” [14] hamda “2020-yil 13-oktabrdagi PQ–4860-son Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori” [7]da mazkur yo‘nalishning muhim vazifalari belgilab berilgan. Shu bilan bir qatorda, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF-60-son Farmoni” [16] doirasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlarning amaliyotga tatbiq etilishi ushbu sohani rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalar nogironligi bo‘lgan shaxslarning qonuniy huquqlarini ro‘yobga chiqarish, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun qulay va teng ta’lim sharoitlarini shakllantirish, ularning

ijtimoiy hayotga to‘laqonli qo‘shilishini rag‘batlantirish hamda ta’lim va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga yo‘naltirilgan.

Alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning jamiyatga faol integratsiyalashuvini ta’minlash hamda ta’lim-tarbiya jarayonida zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi PQ-3931-son “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida alohida ta’lim ehtiyojlari mavjud bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, ularga yaratiladigan ijtimoiy kafolatlarni kuchaytirish hamda ta’lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan vazifalar nazarda tutilgan. Mazkur yondashuv ta’lim muhitini o‘quvchilarning individual ehtiyoj va imkoniyatlariga moslashtirish, pedagogik yordamning samarali shakllarini joriy etish hamda inklyuziv ta’lim uchun zarur bo‘lgan qulay, moslashuvchan va qo‘llab-quvvatlovchi muhitni shakllantirishning muhim huquqiy-pedagogik asoslaridan biri hisoblanadi.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni asosida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta’lim olishda qo‘shimcha ehtiyojlarga ega bo‘lgan bolalar uchun qulay va samarali ta’lim sharoitlarini yaratish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur hujjatda ushbu toifadagi o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga to‘laqonli jalb etilishini ta’minlash, ularga ko‘rsatilayotgan pedagogik xizmatlarning mazmuni va sifatini yaxshilash hamda zarur ta’limiy shart-sharoitlarni takomillashtirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalar ta’lim muassasalarining tashkiliy faoliyatini takomillashtirish, tegishli moddiy-infratuzilmaviy imkoniyatlarni kengaytirish va o‘quv-metodik ta’minotni zamonaviy talablar asosida rivojlantirishni nazarda tutadi” [12].

Mazkur konsepsiyada inklyuziv ta’limni rivojlantirish ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. “Unda alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun qulay va to‘siqlarsiz ta’lim muhitini shakllantirish maqsadida umumta’lim muassasalarini panduslar, lift va ko‘tarish moslamalari, tayanch tutqichlar hamda boshqa moslashtirilgan infratuzilma elementlari bilan ta’minlash zarurligi ta’kidlangan. Shu bilan birga, inklyuziv ta’lim amaliyotining samaradorligini oshirish uchun maxsus pedagogika yo‘nalishida faoliyat yurituvchi mutaxassislar, defektologlar, logopedlar, psixologlar hamda o‘quvchilarning rivojlanishini kompleks qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi psixologik-pedagogik kuzatuv tizimi mutaxassislarini ta’lim jarayoniga keng jalb etish muhim vazifa sifatida belgilangan” [145].

“Inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida maktab-internat muassasalarini zamonaviy maxsus texnik vositalar bilan bosqichma-bosqich ta’minlash, shuningdek, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan har bir bolaning ta’lim jarayonida teng imkoniyatlar asosida faol ishtirok etishini qo‘llab-quvvatlaydigan tashkiliy, huquqiy va metodik mexanizmlarni takomillashtirish vazifalari belgilangan” [105].

Mazkur vazifalarning amaliy ijrosini ta’minlash maqsadida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar uchun qulay, xavfsiz va moslashtirilgan ta’lim muhitini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta’lim muassasalarini maxsus infratuzilma elementlari, zamonaviy o‘quv-uslubiy vositalar hamda kompensator texnologiyalar bilan jihozlash, pedagogik jarayonni o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqsadlarni ro‘yobga chiqarish uchun “Zamonaviy maktab” konsepsiyasi doirasida inklyuziv ta’limni samarali joriy etishga xizmat qiluvchi me’yoriy talablar va amaliy tavsiyalar majmuasi ishlab chiqilgan.

“Shu bilan birga, inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish doirasida ta’lim muassasalariga alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar hamda ularning ota-onalarini pedagogik-korreksion xizmatlar bilan

qamrab olish, ularga ta’lim va tarbiya jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha maslahatlar berish, shuningdek, o‘quvchilarning qiziqishlari, imkoniyatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda kasbiy yo‘nalishini aniqlashga ko‘maklashish vazifalari yuklatilgan. Mazkur talablar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrda qabul qilingan 638-son qarori bilan tasdiqlangan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni yo‘lga qo‘yish tartibini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlarda o‘z ifodasini topgan” [19].

Alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar o‘z imkoniyatlarining ma’lum darajada cheklanganligi sababli ko‘pincha maxsus tarzda ajratib o‘qitiladi. Bunday yondashuv esa ularning tengdoshlari bilan ijtimoiy aloqaga kirishish imkoniyatlarini toraytirib, jamiyatga moslashishi hamda mustaqil hayot ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonini sezilarli darajada murakkablashtiradi. Shu bois integratsiyalashgan hamda inklyuziv ta’lim tizimi bugungi kunda nafaqat pedagogik, balki inson huquqlari nuqtayi nazaridan ham dolzarb masalalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Pedagogik amaliyot tahlillari shuni ko‘rsatadiki, ayrim ota-onalar farzandlarining maxsus ta’lim muassasalarida tahsil olishini afzal deb biladilar. Bunga sabab sifatida mazkur muassasalarda alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun maxsus moslashtirilgan sharoitlar, zarur pedagogik va texnik ko‘mak tizimi mavjudligi ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, nogironligi bo‘lgan voyaga yetgan shaxslarning hayotiy tajribalari masalaga boshqa nuqtai nazardan yondashish zarurligini anglatadi. Ularning fikricha, ta’lim jarayonida tengdoshlari bilan birgalikda ishtirok etish, turli ijtimoiy vaziyatlarni bevosita boshdan kechirish hamda umumiy ta’lim muhitida faol faoliyat yuritish keyingi hayot bosqichlariga muvaffaqiyatli moslashishda muhim omil hisoblanadi.

Aksincha, barcha ehtiyojlari oldindan qondirilgan va ijtimoiy jihatdan nisbatan yopiq muhitda shakllangan shaxslarning mustaqil hayotga kirishishi, turli ijtimoiy munosabatlarda o‘z o‘rnini topishi hamda jamiyat talablariga moslashishi murakkabroq kechishi mumkin. Shu sababli inklyuziv ta’lim nafaqat ta’lim xizmatlaridan foydalanish

imkoniyatlarini kengaytiradi, balki bolalarning ijtimoiy integratsiyasini ta’minlashga ham xizmat qiladi.

“Har bir bolaning sifatli ta’lim olish huquqini kafolatlash, ta’lim jarayonida teng imkoniyatlar yaratish hamda kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etishga qaratilgan inklyuziv ta’lim tamoyillarining normativ-huquqiy asoslarda mustahkamlanishi mamlakat ta’lim tizimini modernizatsiya qilish yo‘lidagi muhim bosqichlardan biri sifatida e’tirof etiladi” [119].

Bugungi kunda inklyuziv ta’limni rivojlantirish davlat ta’lim siyosatining muhim strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur tizimni amaliyotga izchil tatbiq etish hamda alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalarning umumiy ta’lim muhitiga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta’minlash uchun kompleks tashkiliy-pedagogik choralarni amalga oshirish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan quyidagi ustuvor vazifalar alohida ahamiyat kasb etadi:

– alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarga nisbatan jamiyatda, pedagoglar hamjamiyatida va ta’lim muassasalarida mavjud qarashlarni zamonaviy inklyuziv qadriyatlar asosida takomillashtirish, ularga nisbatan hurmat, teng imkoniyat va qo‘llab-quvvatlash tamoyillariga asoslangan ijtimoiy muhitni shakllantirish;

– oilalarning inklyuziv ta’lim jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish, ota-onalarning pedagogik va psixologik savodxonligini oshirish hamda ularning farzandlarini umumiy ta’lim muhitiga jalb etish borasidagi ijobiy motivatsiyasini rivojlantirish;

– maxsus ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan bolalarning rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim va reabilitatsiya jarayonlarini uzviy tashkil etish, korreksion yordamni imkon qadar erta bosqichlarda ko‘rsatish hamda bolalarning ijtimoiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlaydigan shart-sharoitlarni yaratish;

– maxsus va inklyuziv ta’lim muassasalarining kadrlar salohiyatini mustahkamlash, defektolog, logoped, psixolog hamda boshqa mutaxassislar bilan ta’minlanganlik darajasini oshirish, shuningdek ta’lim, korreksiya va reabilitatsiya faoliyatining samaradorligini

ta’minlovchi innovatsion texnologiyalar hamda zamonaviy texnik vositalarni keng joriy etish;

– maxsus maktablar va oila o‘rtasida mustahkam hamkorlik tizimini yo‘lga qo‘yish, reabilitatsiya jarayonida ota-onalarning faol ishtirokini kengaytirish hamda ularning pedagogik jarayondagi mas’uliyatini oshirish.

Bolalarning ta’lim olish, ya’ni bilim egallash huquqi hamda ushbu huquqning davlat tomonidan kafolatlanishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, shuningdek, “Bola huquqlari to‘g‘risida”, “Ta’lim to‘g‘risida” hamda “Ijtimoiy va tibbiy yordam to‘g‘risida”gi qonun hujjatlarida mustahkamlab qo‘yilgan. Bundan tashqari, nogironligi bo‘lgan bolalarni pedagogik tuzatish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga doir normalar “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunda ham aniq belgilangan.

Nogironlarni ijtimoiylashtirish masalalari alohida holatdir [122].

3-jadvalda bir qator xorijiy mamlakatlar tarixini inklyuziya sohasidagi ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilish natijalari keltirilgan.

1.3.-jadval

Inklyuzivlikning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish

Shtatlar	Normalizasiya	Integrasiya	Inklyuziya
AQSh	Irqiy, jinsga asoslangan ta’lim integrasiyasi g‘oyalari, milliy, siyosiy, diniy, etnik va boshqa xususiyatlarga ko‘ra diskriminasiyaga qarshi kurash kontekstida paydo bo‘ldi	Nogironlarning davlat siyosati bilan bog‘liq huquqlari tengligi Mainstreaming (nogiron va normal rivojlanishi bo‘lgan bolalarning birgalikdagi harakatlari) orqali amalga oshiriladi.	Inklyuzivlik - ta’lim nafaqat alohida ehtiyojli bolalar va nogironlar, balki aholining zaif qatlamlari uchun hamdir. barcha ijtimoiy sub’ektlarning qatlamlar uchun o‘zgarishi, inklyuziv ta’limga oid qonunlarni davlat darajasida aniq amalga oshirish
Yevropa davlatlari	Ta’limda integral yondashuvlarni ishlab chiqish demokratiya va iqtisodiy o‘sishning	Maxsus ta’limga muhtoj bolalar oddiy maktablar va sinflarga boradilar, ammo kerak bo‘lganda	Ijtimoiy va resurs to‘siqlarini bartaraf etish, ta’lim tashkilotlarini isloh qilish, sinf

	o‘rnatilgan normalari sharoitida boshlandi	qo‘shimcha yordam oladilar	xonalarini, bolalar bog‘chalari guruhlarini barchaning ehtiyojlari uchun qayta qurish va kasb-hunar ta’limi muassasalarida muvaffaqiyatli erta aralashuv va inklyuziv dasturlarni amalga oshirish.
Rossiya	Nogironlarga insonparvar munosabatda bo‘lish va Bu aholining turli qatlamlarining turmush darajasini o‘zgartirish uchun to‘liq huquqlarini tan olish zarurati bilan bog‘liq	Integrasiyaga o‘tish demokratik me’yorlarning shakllanishi, ularning qonuniylashtirilishi va chuqur iqtisodiy inqiroz sharoitida amalga oshirildi.	Federal siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy institutlarning ishi va huquqiy tizimning rivojlanishi, ta’lim sohasidagi mafkura, ommaviy madaniy va ijtimoiy munosabatlar, o‘qituvchilar tomonidan turli bolalarni birgalikda o‘qitish imkoniyatini psixologik qabul qilish darajasi.
Markaziy Osiyo davlatlari	Ko‘p asrlik insonparvarlik an’analariga ega bo‘lgan mamlakatlarda siyosiy va iqtisodiy sharoit tufayli nogironlarga munosabatda o‘zgarishlar yuz berdi.	Integrasiyaga o‘tish demokratik me’yorlarning shakllanishi, ularning qonuniylashtirilishi va chuqur iqtisodiy inqiroz sharoitida nogiron bolalarning ota-onalari va nodavlat notijorat tashkilotlarining faol faoliyati tufayli amalga oshirildi.	Xalqaro qonunlarni ratifikasiya qilish, ta’lim va axloq tuzatish xizmatlarini kengaytirish, inklyuzivlik sohasidagi milliy huquqiy me’yoriy hujjatlarni tartibga solish, kadrlar bilan bog‘liq muammolarni hal etish bo‘yicha sa’y-harakatlar.

Shunday qilib, manbalar, huquqiy hujjatlar va materiallarni o‘rganish va tahlil qilish bizga ba’zi umumiy xulosalar chiqarishga yordam berdi.

O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’limni shakllantirish uch bosqichni o‘z ichiga oladi:

1) Normalizasiya bosqichi (1960-1980 yillar);

2) Integrasiya bosqichi (1980-1995);

3) Inklyuziyaning shakllanish bosqichi (1996 yildan hozirgi kungacha).

Alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan o‘quvchi umumta’lim maktabi jamoasiga qabul qilinib, dars jarayonlarida faol ishtirok etishi mumkin, biroq u tengdoshlar tomonidan o‘yin faoliyati yoki norasmiy muloqot jarayonlarida sherik sifatida qabul qilinmasa, bunday holat integratsiyaning faqat tashkiliy (rasmiy) darajada qolayotganidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimida integratsion yondashuv tarixan uch asosiy shaklda namoyon bo‘lgan:

To‘liq integratsiya.

Qisman (kichik darajadagi) integratsiya.

Profilaktik integratsiya.

Hozirgi davrda mamlakatimiz ta’lim siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida inklyuziv ta’limni yanada rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlar bir qator strategik vazifalarni izchil amalga oshirishni taqozo etadi.

Avvalo, inklyuziv ta’limning barqaror faoliyat yuritishini ta’minlaydigan normativ-huquqiy asoslarni mustahkamlash, ushbu tizimni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish hamda ilmiy-metodik resurslar bazasini boyitish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bunday yondashuv inklyuziv ta’limning sifat ko‘rsatkichlarini oshirish va uning amaliy samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarni imkon qadar erta aniqlash va ularga o‘z vaqtida pedagogik hamda psixologik ko‘mak

ko‘rsatishga qaratilgan dasturlarni rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega. Erta tashxis va erta qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining takomillashuvi bolalarning keyingi ta’lim bosqichlariga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga qulay sharoit yaratadi.

1.3-§. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limning konseptual jihatlari

Inklyuziv ta’lim muhitini yaratish jarayonida bir qator muhim bosqich va chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim. Avvalo, umumiy o‘rta ta’lim maktablari pedagoglarining inklyuziv ta’limga oid kasbiy madaniyatini rivojlantirish, ta’lim ishtirokchilari ongida mavjud stereotipik qarashlarni bartaraf etish va ularda har bir bolaga nisbatan teng munosabatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, maktab jamoasining har bir a’zosida o‘zaro ishonch, hurmat va hamjihatlik tuyg‘ularini mustahkamlash inklyuziv ta’lim samaradorligini ta’minlovchi muhim omillardan biridir [134, b. 19].

Umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’limning samarali tashkil etilishi ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari uchun qulay va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratishni talab etadi. Bunday muhitni vujudga keltirish pedagogik faoliyatni takomillashtirish, ta’lim mazmunini moslashtirish hamda o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq. Shu nuqtai nazardan quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

– pedagoglarning har bir o‘quvchining ehtiyoji, qobiliyati va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda differensial hamda individual yondashuvlarni qo‘llashi, ta’lim metodlarini o‘quvchilarning rivojlanish darajasiga mos ravishda tanlay olishi;

– o‘quv dasturlari va ta’lim resurslarini o‘quvchilarning imkoniyatlariga muvofiqlashtirish, ularda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan o‘quv vaziyatlarini yaratish;

– ta’lim jarayonida hamkorlikka asoslangan faoliyat turlaridan keng foydalanish, jumladan, juftlikda ishlash, kichik guruhlarda muammolarni

hal etish hamda jamoaviy loyihalarni amalga oshirish orqali o‘quvchilarning faolligini oshirish;

– sinf jamoasida o‘zaro hurmat, hamjihatlik va qo‘llab-quvvatlash tamoyillariga asoslangan ijobiy psixologik muhitni shakllantirish, o‘quvchilar o‘rtasida samarali muloqot va hamkorlik madaniyatini rivojlantirish;

– o‘quvchilarning yosh, qiziqish va individual rivojlanish xususiyatlariga mos keladigan turli mazmundagi amaliy mashg‘ulotlar, interaktiv topshiriqlar hamda didaktik vositalarni muntazam qo‘llash orqali ularning bilish faolligi va ta’lim motivatsiyasini kuchaytirish.

Mazkur shart-sharoitlarning izchil ta’minlanishi inklyuziv ta’lim muhitining sifatini oshirish, har bir o‘quvchining ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ularning ijtimoiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Ta’lim muhitining inklyuziv mazmun kasb etishi unda muayyan pedagogik, psixologik va tashkiliy talablarning izchil amalga oshirilishiga bog‘liq. Bunday ta’lim makonini shakllantirish jarayonida quyidagi muhim shartlarga alohida e’tibor qaratish lozim:

– o‘quvchilarning yakka tartibdagi hamda jamoaviy mashg‘ulotlarda erkin va xavfsiz ishtirok etishini ta’minlaydigan, qulay rejalashtirilgan hamda barcha bolalar ehtiyojlariga moslashtirilgan jismoniy muhitni yaratish;

– har bir o‘quvchining o‘zini qadrlangan, himoyalangan va ta’lim jarayonining teng huquqli ishtirokchisi sifatida his etishiga imkon beruvchi ijobiy ijtimoiy-psixologik muhitni qaror toptirish;

– o‘quvchilarning birgalikda faoliyat yuritishi, o‘zaro ko‘maklashishi, fikr va tajriba almashishi hamda umumiy maqsadga erishishiga xizmat qiladigan hamkorlikka yo‘naltirilgan pedagogik shart-sharoitlarni ta’minlash;

– inklyuziv ta’lim talablariga mos ravishda pedagog kadrlarni tayyorlash, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha tizimli ishlarning yo‘lga qo‘yilganligi.

Barcha bolalar inklyuziv ta’lim muhitida muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga ega ekanligi turli ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan.

Mazkur masalani atroflicha tahlil qilgan D. Makgregor va Vogelsberg inklyuziv ta’lim sharoitida alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalar uchun bir qator muhim ijobiy jihatlarni ta’kidlab o‘tadilar. Ularning fikricha:

– inklyuziv ta’lim jarayonida nogironligi bo‘lgan bolalar sog‘lom tengdoshlar bilan faol ijtimoiy muloqotga kirishib, muloqot ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradilar;

– bunday ta’lim muhitida maxsus ehtiyojli bolalarning ijtimoiy kompetensiyasi hamda kommunikativ qobiliyatlari bosqichma-bosqich takomillashib boradi;

– alohida ta’limga muhtoj o‘quvchilar uchun ishlab chiqilgan individual o‘quv dasturlari asosida ta’lim jarayoni tashkil etilishi ularning bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi hamda o‘quv natijalarining yaxshilanishiga xizmat qiladi;

– inklyuziv maktablarda guruh bo‘lib ishlash jarayonining keng qo‘llanilishi natijasida o‘quvchilarning ijtimoiy idroki va hamkorlik madaniyati mustahkamlanadi, ular shaxsni uning cheklanishlari orqali emas, balki inson sifatida qabul qilishni o‘rganadilar;

– nogironligi bo‘lgan bolalar bilan ularning tengdoshlari o‘rtasida do‘stona munosabatlar inklyuziv ta’lim sharoitida tezroq va tabiiyroq shakllanishi kuzatiladi.

Mazkur muhitda ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlari, ehtiyojlari va mavjud imkoniyatlari inobatga olinib, ularning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishi, bilim va kompetensiyalarni egallashi, tengdoshlari bilan samarali hamkorlik qilishi hamda ijtimoiy munosabatlarga kirishishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Natijada har bir o‘quvchining shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, o‘z fikrini erkin ifodalashi va ta’lim jamoasining teng huquqli ishtirokchisi sifatida o‘z o‘rnini his qilishi uchun keng imkoniyat vujudga keladi.

Ilmiy adabiyotlar hamda xorijiy va mahalliy tajribalarni o‘rganish asosida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarni inklyuziv ta’lim sharoitida maxsus ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchilar bilan ishlashga tayyorlash jarayonida quyidagi asosiy ziddiyatlar mavjudligi aniqlandi:

– ijtimoiy-pedagogik jihatdan — inklyuziv ta’limga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotgan bir sharoitda, uni samarali tashkil etishga tayyor malakali pedagoglar yetishmasligi;

– ilmiy-nazariy jihatdan — pedagoglarni inklyuziv ta’limga tayyorlash mazmuni, metodlari va texnologik asoslarining yetarlicha tizimlashtirilmaganligi;

– amaliy-metodik jihatdan — pedagoglarning inklyuziv kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy dastur va metodik vositalarning yetarli darajada shakllanmaganligi.

“Jamiyatda alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun qulay, xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi inklyuziv ta’lim muhitini yaratish ta’lim muassasasining eng muhim va ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur muhitda o‘quvchilarning jismoniy imkoniyatlari, intellektual rivojlanish xususiyatlari yoki individual-psixologik jihatlaridagi farqlardan qat’i nazar, ularning sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda ta’lim olishi, o‘zaro muloqot qilishi va ta’lim jarayonida teng ishtirok etishi uchun zarur sharoitlar yaratiladi” [159]. Shu bilan birga, alohida ta’lim ehtiyojlari mavjud o‘quvchilarning umumiy ijtimoiy-madaniy ta’lim muhitiga samarali kirib borishi muhim shartlardan biri bo‘lib, bu jarayon ularning jamiyat hayotiga faol moslashuvi va o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishi uchun zarur hisoblanadi[159].

Inklyuziv muhitning konseptual mazmun-mohiyatini yoritishda uning huquqiy-me’yoriy asoslari, amaldagi qonunchilik talablari hamda ilmiy-nazariy qarashlarni tizimli ravishda o‘rganish va tahlil etishni muhim tadqiqot vazifalaridan biri sifatida belgilaymiz. Bu yondashuv inklyuziv ta’lim tizimining mazmun-mohiyatini to‘liqroq anglash va uning amaliyotdagi samaradorligini asoslashga xizmat qiladi.

So‘nggi o‘n yilliklar davomida Yevropaning ko‘plab davlatlarida inklyuziya sohasidagi ijtimoiy siyosat sezilarli darajada o‘zgarib, “inklyuzivlik” tushunchasi tor ma’nodagi alohida ehtiyojli shaxslar masalasidan kengroq ijtimoiy konsepsiyaga – ya’ni “teng imkoniyatlarga ega jamiyatda to‘liq va faol hayot kechirish” g‘oyasiga aylantirildi. Ushbu yondashuv sog‘liqni saqlash, ta’lim, mehnat, turmush tarzi, dam olish va boshqa ijtimoiy sohalarda mavjud tengsizliklarni kamaytirish hamda

barcha fuqarolar uchun teng sharoitlar yaratishga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

“Inklyuziv muhit faqat jamiyatning muayyan bir qismi yoki alohida ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar uchungina emas, balki butun jamiyat a’zolarini qamrab olishi bilan ham ahamiyatlidir. Chunki erkin va demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyat barqaror rivojlanishi uchun adolatli va teng imkoniyatlarni ta’minlaydigan ta’lim tizimiga tayanishi zarur. Aks holda, bunday jamiyatning uzoq muddat davomida barqaror va yaxlit holda rivojlanishi murakkablashadi. Shu sababli, ta’lim tizimi inson huquqlari va tenglik g‘oyalarini o‘zida mujassam etgan inklyuzivlik tamoyillari asosida tashkil etilishi lozim” [146].

Alohida ta’limga muhtoj shaxslarni tarbiyalash masalasi bugungi kunda olimlar, tadqiqotchilar va amaliyotchi mutaxassislarning e’tibor markazida tobora muhim o‘rin egallab bormoqda. Hozirgi sharoitda alohida ta’limga muhtoj shaxslarning ta’lim olish huquqini to‘liq va samarali amalga oshirish imkoniyatlari bir qator murakkab omillar bilan bog‘liq bo‘lib, ular huquqiy-me’yoriy, ilmiy-pedagogik, tashkiliy-metodik hamda ijtimoiy-psixologik yo‘nalishlardagi muammolar majmuasini o‘z ichiga oladi. Mazkur muammolarning mavjudligi esa inklyuziv ta’lim jarayonini takomillashtirish, zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Olim V.Lyubaretz “alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan shaxslarni ta’limning ijtimoiy-madaniy muhitiga kiritish, ota-onalarni o‘quv jarayoniga uning faol sub’ektlari sifatida kiritish ya’ni jamiyatni insonparvarlashtirish va ta’limda hamma uchun teng imkoniyatlar tamoyilini amalga oshirish zarurligini, inklyuziyani tushunishning ijtimoiy modelini hamda ijtimoiy-ma’rifiy shart-sharoitlarni ta’kidlaydi”[69].

Inklyuziv muhit ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini qamrab oladi hamda ular uchun bir qator muhim afzalliklarni taqdim etadi, xususan:

– alohida ta’limga muhtoj bolalar uchun turar-joy muassasalarida bo‘lgani kabi oiladan ajralib qolmaslik imkoniyati yaratiladi; shuningdek, ular ijtimoiy o‘zaro ta’sir jarayonida faol ishtirok etib, turli tadbirlarda

qatnashish, mahalliy hamjamiyat resurslaridan keng foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar va h.k.;

– nogironligi bo‘lgan bolalar uchun tengdoshlari bilan muntazam muloqot qilish orqali tajriba orttirish, ijtimoiy muhitni chuqurroq anglash, insoniy munosabatlarning xilma-xilligini tushunish hamda axloqiy fazilatlarini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi;

– alohida ta’limga muhtoj bolalarning ota-onalari uchun farzandining ta’lim jarayonidagi individual rivojlanish yo‘nalishini (traektoriyasini) tanlash va uni tashkil etishda bevosita ishtirok etish, shuningdek, pedagog xodimlar hamda boshqa ota-onalar bilan doimiy muloqot qilish imkoniyati vujudga keladi;

– “boshqa bolalarning ota-onalari uchun inklyuziv ta’lim haqidagi tushunchalarni kengaytirish, jamiyatdagi turli ehtiyojlarga ega bolalarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, shuningdek, inklyuziv jarayonni qo‘llab-quvvatlash va tarbiyaviy jarayonga faol hissa qo‘shish imkoniyati paydo bo‘ladi; umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining pedagoglari uchun inklyuziv muhitda alohida ta’limga muhtoj bolalar bilan ishlash tajribasini orttirish, o‘z pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish, metodik arsenalini diversifikatsiya qilish hamda yangi bilim, ko‘nikma va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyati yaratiladi; butun jamiyat uchun esa inklyuziv ta’lim tizimi iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lib, parallel ravishda ikkita tizim umumiy va maxsus ta’limni saqlashdan ko‘ra tejamkorroq ekanligi bilan ahamiyatlidir; shuningdek, u jamiyatda bag‘rikenglik, hamdardlik, insonparvarlik va ijtimoiy mas’uliyat kabi yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning shakllanishiga xizmat qiladi” [70, b. 216-227].

Mamlakatimizda inklyuziv ta’limni rivojlantirishning zamonaviy bosqichida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega, turli hayotiy cheklovlar bilan yashayotgan bolalarni ta’lim jarayoniga keng jalb etish borasida muayyan amaliy natijalarga erishilmoqda. Shu bilan birga, mazkur ta’lim modelini amaliyotga joriy etish jarayonida to‘plangan tajribalar inklyuziv ta’limning samaradorligini ta’minlash bilan bog‘liq ayrim masalalar hali yetarlicha tadqiq etilmaganini ko‘rsatmoqda. Xususan, ta’lim muhitini barcha o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirish, pedagogik

yondashuvlarni takomillashtirish hamda zarur tashkiliy-metodik shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha yechimini kutayotgan muammolar mavjud.

Inklyuzivlik esa barcha o‘quvchilar uchun teng ishtirok etish va ta’lim jarayonida muvaffaqiyatga erishish imkonini beradigan zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. “Inklyuzivlik” tushunchasi bolalarning ta’lim muassasasiga kirish imkoniyati mavjudligi, shuningdek, ularning darslarga muntazam ravishda va o‘z vaqtida qatnashish darajasini ham anglatadi. “Ishtirok etish” esa o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi real faolligi, ularning o‘quv tajribasi sifati va jarayonga qo‘shgan hissasini ifodalaydi. Shu bois, bu tushuncha nafaqat ishtirokni qayd etishni, balki o‘quvchilarning fikr-mulohazalari va ehtiyojlarini inobatga olishni ham talab etadi.

“Muvaffaqiyat” atamasi nafaqat test yoki imtihon natijalarini, balki barcha o‘quv rejalari va dasturlari doirasidagi ta’lim natijalarini ham anglatadi.

Bugungi kunda olimlar alohida ta’limga muhtoj bolalarni o‘qitishda turli xil innovasion yondashuvlarni taklif qilmoqdalar. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim muhitini barpo etish ta’lim paradigmasida yuz berayotgan zamonaviy transformatsiyalarni hisobga olgan holda yangicha pedagogik yondashuvlarni taqozo etadi. Ayniqsa, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilarning o‘quv-tarbiya jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish, ularning ta’limiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish hamda jamoaviy faoliyatga teng asosda jalb etishda pedagog va o‘quvchi o‘rtasidagi subyekt–subyekt xarakteridagi hamkorlik munosabatlarini qaror toptirish muhim pedagogik shartlardan biri hisoblanadi. Bunday yondashuv ta’lim jarayonini o‘quvchilarning individual xususiyatlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etishni nazarda tutadi. O‘qitish jarayoni individuallashtirish va differensiallashtirish tamoyillari asosida qurilib, har bir o‘quvchining rivojlanish imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

“Inklyuziv ta’limda tabaqalashtirilgan yondashuv o‘quvchilarning yosh, jismoniy, psixologik va intellektual xususiyatlarini hisobga olgan holda, alohida ta’lim ehtiyojlariga mos integratsiyalashgan ta’lim modellarini qo‘llashni nazarda tutadi. Bunday yondashuvning

samaradorligi bolaning individual ehtiyojlari, rivojlanish xususiyatlari hamda zarur psixologik-pedagogik va tashkiliy shart-sharoitlarning yaratilishiga bog‘liq” [54, 18].

Differensial yondashuvni amaliyotga tatbiq etish alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlari darajasida bilimlarni egallashiga sharoit yaratishga qaratiladi.

Differensiasiya (lotincha *differentia* — “farq”) ta’lim jarayonini o‘quvchilarning o‘ziga xos ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos ravishda tashkil etishga asoslangan yondashuvdir. Bunda o‘quvchilar umumiy xususiyatlari va tayyorgarlik darajasiga ko‘ra muayyan guruhlarga ajratilib, har bir guruh hamda alohida o‘quvchining individual imkoniyatlari hisobga olinadi. Xususan, o‘quvchilarning fanlarni o‘zlashtirish darajasi, shakllangan bilim, ko‘nikma va malakalari, ta’lim olish imkoniyatlari, qiziqishlari, moyilliklari hamda intellektual rivojlanish xususiyatlari ta’lim mazmuni va metodlarini belgilashda muhim mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, mustaqil bilish faoliyatiga tayyorgarlik darajasi, aqliy rivojlanish ko‘rsatkichlari, xotira, diqqatning barqarorligi, fikrlash operatsiyalarini tez va izchil almashtira olish kabi mnemonik va kognitiv jihatlar ham differensial yondashuvda muhim o‘rin tutadi.

Eng keng tarqalgani quyidagi ta’rifdir: differensiasiya - o‘quvchilarning individual xususiyatlarini ba’zi bir belgilarga ko‘ra guruhlanganda shaklda hisobga olish: yoshi, jinsi, milliy, kasbiy qiziqishlari, maqsadi va boshqalar [37, b. 10-12].

Inklyuziv bolalar uchun tabaqalashtirilgan ta’limni amalga oshirish professor-o‘qituvchilarga yangi materialni o‘rganishga tayyorligini zudlik bilan hisobga olish, ta’limning barcha bosqichlarida kognitiv faoliyatni maqbul tanlashni ta’minlash va shu bilan birga rivojlanishda orqada qolgan o‘quvchilar uchun kompensasion sharoitlarni yaratishga imkon beradi.

Differensiallashgan ta’limni bunday tushunish “differensiasiya” va “differensiallashgan yondashuv” tushunchalarini asoslashning ilmiy asosi bo‘lib xizmat qiladi, chunki u ilmiy tushunchalarni belgilashga qo‘yiladigan barcha talablarni o‘z ichiga oladi.

Differensiasiyani ijtimoiy hodisa sifatida o‘zaro ta’sirning ijtimoiy mexanizmining ob’ektiv funksiyasiga xizmat qilish uchun belgilanishi avlodning jamiyat hayotiga kirishini (uning ijtimoiylashuvini) ta’minlaydi, shaxslarning muayyan tarixiy jarayonning faol sub’ekti bo‘lishiga yordam beradi.

Alohida ehtiyojli bolalarni faol ijtimoiy hayotga jalb etish demokratiyaning ko‘rinishlaridan biridir. Zero, nogironlarning faol ijtimoiy hayotga jalb etilganlik darajasi demokratik jamiyat ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Maxsus ta’limga muhtoj bolalar oddiy o‘quvchilar bilan birga o‘qisa, ularning barchasi muvaffaqiyatga erishish uchun teng imkoniyatga ega. Shu bilan birga, bolalarning o‘ziga xos yutuqlari, ularning intellektual, jismoniy, ijtimoiy va hissiy holatidan qat’i nazar baholanadi. Mashg‘ulotlarga jalb qilingan o‘quvchilar bir-birlarini yaxshiroq tushunadilar, ular boshqalarning ehtiyojlari va qiyinchiliklariga sezgir, tengdoshlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hurmat qiladilar.

Aksariyat olimlar va amaliyotchilarning fikriga ko‘ra, maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashning tabaqalashtirilgan shakllarini tashkil etishda aqliy faoliyatning individual xususiyatlarini hisobga olish kerak, ular o‘rganish yoki bilimlarni o‘zlashtirish qobiliyati, tayyorgarlik va sifat darajasida namoyon bo‘ladi (ularning to‘liqligi, izchilligi, bo‘shliqlarning mavjudligi yoki yo‘qligi, fiziologik imkoniyatlar va boshqalar.)

“Differensial ta’limni tashkil etishning asosiy mazmuni alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilarning o‘ziga xos individual imkoniyatlari va ehtiyojlarini ta’lim jarayonida hisobga olish bilan belgilanadi. Bunda ta’lim jarayoni o‘quvchining shaxsiy, psixologik, intellektual hamda rivojlanish xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilib, uning ta’lim faoliyatida faol ishtirokini ta’minlovchi qulay pedagogik-psixologik sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Shu jihatdan, o‘quvchilarning individual qiziqishlari, tabiiy moyilliklari, mavjud qobiliyatlari va o‘zlashtirish imkoniyatlarini aniqlash hamda ularni ta’lim mazmuni bilan uyg‘unlashtirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi” [64]. Mazkur xususiyatlar ta’lim jarayonining mazmuni, tashkiliy shakllari, pedagogik usullari va metodlarini tanlashda muhim mezon

sifatida namoyon bo‘lib, differensial yondashuvning samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillardan birini tashkil etadi.

Inklyuziv ta’lim muhiti sharoitida tabaqalashtirilgan yondashuvni samarali amalga oshirish har bir o‘quvchining shaxsiy-individual xususiyatlarini chuqur hisobga olishni taqozo etadi. Bunda o‘quv jarayonining mazmuni nafaqat uning asosiy vazifalariga muvofiq, balki zaruratga ko‘ra qisman va vaqtincha moslashtirib boriladi. Ta’lim jarayonida tabaqalashtirilgan yondashuv har bir o‘quvchining individual imkoniyatlari, qiziqishlari va ta’limiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda pedagogik ta’sirni maqsadli tashkil etishni nazarda tutadi. Sinf-dars tizimi hamda belgilangan o‘quv dasturi talablari doirasida mazkur yondashuv o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini namoyon etish uchun zarur sharoit yaratadi. Ayniqsa, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishi va shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida frontal, guruhli va individual mashg‘ulot shakllarini o‘zaro uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maxsus ta’limga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilarni bir qator muhim mezonlar asosida guruhlarga ajratish pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan, o‘quvchilarni kognitiv rivojlanish darajasi, o‘z faoliyatini boshqarish va rejalashtirish ko‘nikmalari, shaxsiy sifatlari hamda jismoniy-fiziologik imkoniyatlariga ko‘ra tabaqalashtirish samarali yondashuv hisoblanadi. Bunda tafakkur, faollik, intizom, ta’limga munosabat, moslashuvchanlik, salomatlik, nutq, eshitish va ko‘rish holati kabi individual xususiyatlar inobatga olinadi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasasining inklyuziv ta’limi o‘quvchilarning salohiyatini to‘liq ochib berishga hissa qo‘shadi, o‘quvchilarni inson individualligini tushunish va hurmat qilishga o‘rgatadi.

Alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar bilan tabaqalashtirilgan ta’limni samarali yo‘lga qo‘yish pedagog xodimlardan ta’lim jarayonining individual xususiyatlarini chuqur hisobga olishni hamda muayyan pedagogik shartlarga amal qilishni talab etadi. Bunda, avvalo:

– pedagog o‘quvchilarning ta’lim mazmunini egallash jarayonida duch kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni oldindan aniqlashi, ularning kelib chiqish sabablarini tahlil qilishi va bunday holatlarning oldini olish yoki bartaraf etishga qaratilgan pedagogik yechimlarni belgilashi;

– o‘quvchilarning avvalgi tayyorgarlik holati, o‘zlashtirgan bilim va shakllangan ko‘nikmalari, mustaqil faoliyat yuritish imkoniyatlari, topshiriqlarni bajarishga munosabati hamda ta’lim olishga bo‘lgan qiziqish va ichki motivlarini hisobga olishi;

– ta’lim mazmuni, topshiriqlar murakkabligi va pedagogik yordam darajasini o‘quvchilarning individual imkoniyatlariga moslashtirishda yakka tartibdagi hamda kichik guruhlar asosidagi ish shakllaridan tizimli va maqsadli foydalanishi;

– ta’lim jarayonining kutilayotgan natijalarini muntazam tahlil qilib, o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasi va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ehtiyojlarini oldindan prognoz qilishi hamda shunga muvofiq pedagogik yondashuv va metodlarni o‘z vaqtida takomillashtirib borishi zarur.

Ta’lim tizimida inklyuziv jarayonlarni zamonaviy innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish mavjud pedagogik resurslar hamda psixologik-pedagogik ko‘mak mexanizmlarini tizimli ravishda o‘rganishni taqozo etadi. Mazkur jarayonda pedagogik xodimlar alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan shaxslarning ta’lim muhitiga to‘laqonli qo‘shilishini ta’minlash, ular uchun zarur psixologik va pedagogik shart-sharoitlarni shakllantirish hamda ushbu imkoniyatlarni amaliy faoliyatga izchil tatbiq etishda muhim subyekt sifatida namoyon bo‘ladi[64].

Inklyuziv ta’lim sharoitida kasbiy faoliyatga ijtimoiy tayyorgarlik shaxsning jamiyat bilan samarali hamkorlik qilishini ta’minlovchi quyidagi jihatlarni qamrab oladi:

– turli ijtimoiy muhit va munosabatlarga moslasha olish hamda ular bilan samarali hamkorlik qilish;

– ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarni anglash va ularni kasbiy faoliyat jarayonida maqsadga muvofiq qo‘llash;

– ijtimoiy aloqalarni o‘rnatish, rivojlantirish va barqarorlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Psixologik tayyorgarlik esa quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

– turli rivojlanish xususiyatlariga ega bo‘lgan, alohida ta’limga muhtoj bolalarni emotsional jihatdan to‘g‘ri qabul qilish va ularga nisbatan empatiya bilan yondashish;

– inklyuziv ta’lim muhitida pedagogik jarayonlarga faol qo‘shilish, hamkorlikda ishlash va moslashuvchanlikni namoyon etishga tayyorlik;

– har bir o‘quvchining individual psixologik xususiyatlari hamda maxsus ta’lim ehtiyojlarini chuqur anglash va hisobga olish;

– kasbiy faoliyat jarayonida ichki qoniqish, motivatsiya va o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilishning shakllanganligi.

Kasbiy tayyorgarlik quyidagi asosiy yo‘nalishlarni qamrab oladi:

– zamonaviy axborot manbalaridan foydalanish va axborot bilan samarali ishlash kompetensiyasi;

– umumkasbiy, maxsus va transversal bilim hamda ko‘nikmalarni o‘z ichiga olgan kasbiy kompetentlik;

– pedagogik jarayonda innovatsion texnologiyalardan maqsadli va samarali foydalanish mahorati;

– psixologik hamda korreksion-pedagogik bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash qobiliyati;

– ta’limni individuallashtirish, turli pedagogik vaziyatlarni loyihalash va ularga moslashish tayyorgarligi;

– alohida ta’lim ehtiyojlari mavjud bo‘lgan talabalar bilan differensial yondashuv asosida samarali kasbiy hamkorlikni tashkil etish qobiliyati.

Inklyuziv ta’lim sharoitida alohida ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchilarning imkoniyat va ehtiyojlarini hisobga olgan holda o‘qitishning maqbul shakl, metod va vositalarini tanlash hamda ulardan moslashuvchan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, pedagog kadrlar inklyuziv ta’lim faoliyatini yuqori darajada amalga oshirishga imkon beradigan yetarli uslubiy va amaliy kompetensiyalarga ega bo‘lishi zarur.

Bugungi ta’lim talablari pedagogdan alohida ta’lim ehtiyojlari mavjud o‘quvchilar bilan korreksion-rivojlantiruvchi faoliyatni maqsadli va samarali tashkil eta olishni talab qiladi. Buning uchun o‘qituvchi quyidagi kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi zarur:

– “o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, individual imkoniyatlari va rivojlanish jarayonining psixologik-pedagogik jihatlarini hisobga olish; har bir o‘quvchining ta’limiy ehtiyojlari, qobiliyati va o‘ziga xos jihatlarini aniqlash hamda ta’lim jarayonida ulardan kelib chiqish; inklyuziv ta’lim tamoyillari asosida o‘quv faoliyatini rejalashtirish, ta’lim mazmuni va metodlarini o‘quvchilarning imkoniyatlariga moslashtirish; individual yondashuv asosida psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish va zarur qo‘llab-quvvatlash choralarini belgilash; o‘quvchilarning ta’lim dasturlarini o‘zlashtirishiga xizmat qiluvchi qulay pedagogik, metodik va tashkiliy muhitni shakllantirish; o‘qituvchi, psixolog, ota-ona hamda boshqa mutaxassislar o‘rtasidagi hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va korreksion-tarbiyaviy faoliyatni muvofiqlashtirish; o‘quvchilarning kelgusidagi kasbiy qiziqish va imkoniyatlarini aniqlash, ularni mustaqil hayot va kasbiy faoliyatga tayyorlash hamda tegishli pedagogik ko‘mak bilan ta’minlash” [72].

Maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan faoliyat yurituvchi pedagoglarning kasbiy salohiyatini muntazam rivojlantirish ta’lim sifatini ta’minlashning muhim omilidir. Bunda o‘qituvchilarning metodik kompetensiyasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan uzluksiz kasbiy rivojlanish quyidagi faoliyatlar asosida amalga oshiriladi:

– uslubiy birlashmalar va ijodiy guruhlarda hamkorlik qilish, tajriba almashish hamda samarali pedagogik yechimlarni muhokama etish;

– seminar, davra suhbati, ilmiy-amaliy konferensiya va munozaralarda ishtirok etish;

– pedagogik tadqiqotlar va tajriba-sinov ishlarini olib borish, ularning natijalarini tahlil qilish;

– zamonaviy pedagogik texnologiya va innovatsion metodlarni amaliyotga joriy etish hamda sinovdan o‘tkazish;

– o‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning samarali shakllarini o‘zlashtirish va qo‘llash;

– trening, mahorat darslari, pedagogik tanlovlar va interfaol mashg‘ulotlarda qatnashish, shuningdek, mustaqil ta’lim va o‘z-o‘zini rivojlantirishni muntazam davom ettirish.

Mazkur yo‘nalishlar o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini mustahkamlashga, inklyuziv va maxsus ta’lim sharoitida samarali pedagogik faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, inklyuziv ta’lim samaradorligi ko‘p jihatdan pedagoglarning kasbiy salohiyatini muntazam rivojlantirish hamda ularning metodik kompetensiyasini takomillashtirishga bog‘liq. Bu jarayon o‘qituvchining zamonaviy ta’lim talablariga moslashuvchanligi hamda alohida yondashuvni talab qiladigan ta’lim oluvchilar bilan samarali ishlash qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.

2017–2026-yillarda ta’lim sohasini, ayniqsa, bolalarni o‘qitish va tarbiyalash sifatini oshirishga yo‘naltirilgan milliy strategik hujjatlar asosida ta’lim tizimini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlari belgilandi. Ular qatorida umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlaydigan mutaxassislarni maxsus dasturlar asosida kasbiy tayyorlash muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, mazkur toifadagi bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash samaradorligini muntazam baholab borish, ushbu jarayonni monitoring qilish uchun aniq mezonlar hamda baholash indikatorlarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri sifatida qaraladi. Bu esa ta’lim jarayonining sifatini oshirish hamda inklyuziv muhitda natijadorlikni ta’minlashga xizmat qiladi [88].

“Ijtimoiy va ta’lim darajasidagi bir qator qarama-qarshiliklar oliy kasbiy ta’lim tizimining pedagogik kadrlarini alohida ta’limga muhtoj bolalar bilan ishlashga tayyorlash bo‘yicha ijtimoiy buyurtmani bajara olmasligi bilan bog‘liq bo‘lib, bu ularning to‘liq integrasiyasini ta’minlashga to‘sqinlik qiladi” [88]. Jamiyat ularga faqatgina umumiy ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish imkoniyatini yaratib qolmay, balki shu bilan birga ijtimoiy hayotga moslashish ko‘nikmalarini izchil rivojlantirish, shuningdek, o‘zining hayotiy tajribasi va kelajakdagi kasbiy faoliyatiga oid kompetensiyalarini samarali shakllantirish hamda ularni amaliyotda qo‘llash uchun keng imkoniyatlar ham taqdim etadi.

“Inklyuziv ta’lim sharoitida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatiga doir nazariy qarashlar va amaliy tajribalarni o‘rganish, shuningdek, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash kurslarining o‘quv-uslubiy ta’minotini tahlil qilish asosida mavjud muammolar aniqlandi. Jumladan, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini tayyorlash jarayonida quyidagi kamchiliklar mavjudligi kuzatiladi” [88].

– umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagog xodimlarida inklyuziv ta’limga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish hamda uning ijtimoiy ahamiyatini anglashga yetarlicha e’tibor qaratilmaganligi;

– pedagog kadrlarni inklyuziv ta’lim g‘oyalarini amaliy ta’lim jarayonida real sharoitlarga mos holda tatbiq etishga tayyorlashda maqsadlar, mazmun va texnologik yondashuvlar o‘rtasidagi uzviylikning yetarli darajada ta’minlanmaganligi;

– o‘quv dasturlarida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagoglarining kasbiy faoliyat jarayonida muhim bo‘lgan ijtimoiy vazifalarni samarali bajarish kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi shaxsiy, nazariy va amaliy tarkibiy qismlarning yetarli darajada yoritilmaganligi;

– inklyuziv ta’lim muhitida o‘quv jarayonini tashkil etishda moslashuvchanlik va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatining yetarli emasligi, bu esa pedagoglarning alohida ta’limga muhtoj bolalardagi turli darajadagi rivojlanish va buzilish tuzilmalariga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishiga sabab bo‘layotganligi;

– umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagoglarining birgalikda ta’lim berish amaliyotini samarali tashkil etishi, o‘quvchilarning alohida ta’lim ehtiyojlarini o‘z vaqtida aniqlashi, korreksion-rivojlantiruvchi yondashuv asosida ta’lim jarayonini rejalashtirishi va uning ishtirokchilari bilan samarali hamkorlikni ta’minlashi uchun zarur bo‘lgan ilmiy-metodik ko‘mak tizimining yetarlicha shakllantirilmaganligi.

Bizningcha, olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining inklyuziv madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy tamoyillarni ajratib ko‘rsatish va

ularni izchil tavsiflash imkonini beradi. Ushbu tamoyillar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– tizimlilik – pedagogik jarayon tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘liqligi va yagona tizim asosida tashkil etilishini ta’minlaydi;

– ta’lim va ilmiy-tadqiqot faoliyati birligi – pedagoglarning ilmiy izlanish, ijodiy fikrlash va pedagogik muammolarni mustaqil hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi;

– ta’lim jarayonining yaxlitligi – ta’lim, amaliy va ilmiy faoliyatning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlaydi;

– innovatsionlik – zamonaviy pedagogik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni nazarda tutadi;

– kasbiy harakatchanlik – pedagoglarning yangiliklarni o‘zlashtirishi, o‘zgarishlarga moslashishi va kasbiy kompetensiyalarini muntazam rivojlantirishini ifodalaydi;

– individuallashtirish – pedagoglarning individual imkoniyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda kasbiy tayyorgarlikni tashkil etishni anglatadi;

– ijodkorlik – pedagogik faoliyat jarayonida o‘qituvchilarning mustaqil fikrlashi, yangi g‘oyalarni ilgari surishi, muammolarni hal etishda noodatiy yondashuvlardan foydalanishi va tashabbuskorlik ko‘rsatishini ifodalaydi;

– hamkorlik – ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida tenglik, o‘zaro hurmat, ishonch va mas’uliyatga asoslangan sub’ekt-sub’ekt munosabatlarini shakllantirish, shuningdek, o‘zaro yordam va birgalikdagi rivojlanish muhitini yaratishni anglatadi;

– uzluksizlik – o‘qituvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanish jarayonini doimiy davom ettirish, o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilish hamda o‘zining individual rivojlanish traektoriyasini izchil shakllantirish va amalga oshirishini ta’minlaydi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, pedagog xodimlarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda tizimlilik, ilmiylik, ta’lim va ilmiy-tadqiqot faoliyati integratsiyasi, izchillik, innovatsionlik, kasbiy moslashuvchanlik, individuallashtirish, ijodkorlik, hamkorlik va

uzluksizlik tamoyillariga tayanish zarur. Ushbu tamoyillar pedagoglarning ilmiy-tadqiqot faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, kasbiy faoliyatni rivojlantirishning samarali usul va shartlarini aniqlash, shuningdek, pedagogik muammolarni tizimli tahlil etish va ularning ilmiy asoslangan yechimlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Inklyuziv ta’lim sharoitida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagoglarida inklyuziv madaniyatni rivojlantirish jarayoni bir-biri bilan uzviy bog‘liq funksiyalar majmuasi orqali amalga oshiriladi. Mazkur funksiyalar pedagogning kasbiy faoliyatini maqsadli tashkil etish, pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish va ta’lim samaradorligini oshirishga yo‘naltiriladi.

1. Tashkiliy funksiyalar:

– pedagoglarning inklyuziv faoliyatga tayyorgarligini bosqichma-bosqich va muayyan tizim asosida yo‘lga qo‘yishni ta’minlaydi;

– o‘qituvchida kasbiy faoliyatni rejalashtirish, diqqatni boshqarish, mustaqil nazorat qilish va o‘z faoliyatini tartibga solish ko‘nikmalarini rivojlantiradi;

– alohida ta’lim ehtiyojlari mavjud bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlaydigan pedagog, psixolog va boshqa mutaxassislar o‘rtasida hamkorlikning samarali mexanizmlarini shakllantiradi;

– pedagoglarning malakasini oshirish va kasbiy qayta tayyorlash ishlarini maqsadli rejalashtirish hamda muvofiqlashtirishga xizmat qiladi;

– o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi, kasbiy mahorati va pedagogik madaniyatini muntazam takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi;

– inklyuziv ta’limni tashkil etish bilan bog‘liq hujjatlarni yuritish, ma’lumotlarni tartiblashtirish va tegishli jarayonlarni muvofiqlashtirishni ta’minlaydi.

2. Tarbiyaviy funksiyalar:

– har bir o‘quvchining individual imkoniyati, ta’limiy ehtiyoji va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik qo‘llab-quvvatlashni tashkil etishga yo‘naltiriladi;

– ta’lim muassasasida o‘zaro hurmat, hamjihatlik va psixologik qulaylikka asoslangan inklyuziv muhitni qaror toptirish, o‘quvchilarning

jamoaga moslashuvi va ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi;

– o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish hamda ularni ta’limiy faoliyatga faol jalb etish uchun pedagogik imkoniyatlarni kengaytiradi;

– o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarda o‘z kuchiga ishonchni qaror toptirish, mustaqillik va kelajak faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiluvchi qulay pedagogik-psixologik sharoitni ta’minlaydi.

3) diagnostik va prognostik:

– yordamchi guruh bilan birgalikda individual rivojlanish dasturini ishlab chiqadi;

– individual rivojlanish dasturining amalga oshirilishini baholaydi, rivojlanish dinamikasini o‘rganadi va tahlil qiladi;

– o‘z-o‘zini rivojlantirish dasturini diagnostik tuzatish asosida tashkil etadi.

4) maslahat:

– kasbiy faoliyat davomida o‘z-o‘zini o‘rganish jarayonida doimiy ma’lumot bilan ta’minlaydi;

– doimiy ravishda zarur maslahat yordamini olish imkonini yaratadi.

Inklyuziv ta’lim sharoitida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yurituvchi pedagoglardan har bir o‘quvchining, ayniqsa, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, ularning ehtiyoj va qiziqishlarini to‘g‘ri anglash hamda ta’lim jarayonida individual yondashuv asosida qulay va qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik muhitni yaratish talab etiladi. Shu bilan birga, bunday yondashuv har bir o‘quvchining imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etishga xizmat qiladi. Ular kasbiy tayyorgarlik va uzluksiz malaka oshirish jarayonida ishlab chiqilgan inklyuziv ta’lim usullarining mohiyatini tushunishlari kerak. Inklyuziv muhitda o‘qituvchilarga zarur bo‘lgan metodik xizmatlarning aksariyatini qisqa muddatli o‘quv kurslari orqali qamrab olinishi lozim, deb hisoblaymiz. Ushbu qisqa muddatli kurslar umumiy o‘rta ta’lim muassasasi pedagog xodimlarining kasbiy

shakllanishining individual traektoriyasining samaradorligini ta’minlaydi va ularni o‘z-o‘zini rivojlantirishga olib keladi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasasi o‘qituvchilarini inklyuziv ta’limga tayyorlashda kuyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

– muammolarni jamoaviy muhokama qilish;

– alohida ehtiyojli o‘quvchilarning individual o‘quv dasturlari davomida rivojlanish dinamikasini baholash;

– variativ dasturlar orqali o‘quvchilarning muvaffaqiyatini kuzatish;

– normal rivojlanish modellari bilan alohida ta’limga muhtoj o‘quvchilarning xatti-harakatlarini kuzatish;

– baholash jarayoniga ota-onalar va o‘quvchilarni jalb etish;

– turli yo‘nalishdagi o‘qituvchilar bilan hamkorlik qilish.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarning inklyuziv madaniyatini izchil rivojlantirishda mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar hamda ta’lim tizimidagi zamonaviy o‘zgarishlarga alohida e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yurituvchi pedagoglarning inklyuziv ta’lim sharoitida kasbiy tayyorgarligini samarali yo‘lga qo‘yish bir qator tashkiliy-pedagogik shartlarning izchil ta’minlanishini taqozo etadi. Mazkur shartlar quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

– ta’lim jarayonini uning barcha ishtirokchilari uchun teng imkoniyat, qulaylik va mavjud sharoitlarga moslashuvchanlikni ta’minlaydigan tarzda tashkil etish;

– pedagoglarni kasbiy tayyorlashga xizmat qiluvchi ta’lim dasturlarining mazmunini inklyuziv ta’limning ustuvor g‘oyalari, tamoyillari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida shakllantirish;

– alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilarning individual imkoniyatlari va rivojlanish xususiyatlarini hisobga oluvchi ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, ularni ta’lim amaliyotiga joriy etish jarayonida pedagoglarni zarur metodik va maslahat yordami bilan muntazam ta’minlab borish;

– pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash jarayoniga jalb etilgan mutaxassislarning inklyuziv ta’lim metodikasi, pedagogik texnologiyalari hamda individual yondashuvlarning mazmuni va qo‘llash mexanizmlarini yetarli darajada egallashiga erishish;

– pedagoglarning asosiy kasbiy faoliyatidan uzilmagan holda malaka oshirishini tashkil etish, bunda real pedagogik holatlarni tahlil qilish, muammoli vaziyatlarga inklyuziv nuqtayi nazardan yechim izlash, kasbiy tajriba almashish hamda o‘zlashtirilgan yondashuvlarni amaliy faoliyatda sinovdan o‘tkazish uchun zarur sharoitlarni yaratish.

II-BOB. O‘QITUVCHILARNI INKLYUZIV MUHITDA ISHLASHGA KASBIY TAYYORLASH MEXANIZMLARI

2.1-§. Inklyuziv ta’lim sharoitida umumiy o‘rta talim muassasalari o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari

“Ta’lim tizimining zamonaviy talablar asosida yangilanib borishi sharoitida alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalarni umumiy ta’lim jarayoniga jalb etish, ular uchun inklyuziv muhit yaratish muhim pedagogik vazifalardan biriga aylanmoqda. Mazkur jarayon umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yurituvchi o‘qituvchilarning kasbiy faoliyat mazmuni, vazifalari va unga qo‘yiladigan talablarni qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Xususan, didaktik vazifalar doirasining kengayishi pedagogning o‘quv-tarbiya jarayonidagi funksiyalarini yangicha mazmun bilan to‘ldirib, uning kasbiy faoliyatini tashkil etish shakllari va yondashuvlarini ham takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda” [96]. Ikkinchi tomondan esa, o‘qituvchi faoliyatining yo‘nalishlari ham ushbu o‘zgarishlarga mos ravishda yangilanib, qo‘shimcha jihatlar bilan to‘ldirilishi zarur bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, umumta’lim muassasasining inklyuziv ta’lim muhiti sharoitida o‘qituvchi faoliyatida alohida bir yo‘nalish sifatida ijtimoiy-pedagogik faoliyatni ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shunday qilib, biz o‘z tadqiqotimiz doirasida inklyuziv ta’lim sharoitida umumiy o‘rta ta’lim muassasasi o‘qituvchisining kasbiy vazifalarini amalga oshirish jarayonida ijtimoiy-pedagogik faoliyatning o‘ziga xos jihatlarini chuqur o‘rganish va ularni ilmiy asosda aniqlashni asosiy maqsad sifatida belgiladik.

Mazkur maqsadga erishish uchun, avvalo, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar bilan ishlovchi pedagoglarning kasbiy faoliyatini belgilovchi metodologik asoslarni aniqlash zarur. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat metodologiyasi ilmiy tamoyillar, nazariy yondashuvlar va tadqiqot usullarining yaxlit tizimini tashkil etib, turli fanlar yutuqlari hamda pedagogik amaliyot tajribasi asosida takomillashib boradi. Shu bois uning nazariy asoslari statik emas, balki doimiy ravishda

yangilanib, jamiyatning va ta’lim jarayoni ishtirokchilarining o‘zgarib borayotgan ehtiyojlariga mos ravishda rivojlanib boruvchi tizim sifatida qaraladi.

Mazkur modelni yaratish avvalgi tahliliy izlanishlarning mantiqiy davomi sifatida qaralib, umumiy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni tashkil etish sharoitida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy-pedagogik faoliyatini tizimli tashkil etishga yo‘naltiriladi. Modelning nazariy-metodologik asosini psixologiya, sotsiologiya, ijtimoiy ish, falsafa va pedagogika fanlarida shakllangan zamonaviy ilmiy konsepsiyalar, nazariy yondashuvlar hamda amaliy tadqiqotlar natijalarining qiyosiy tahlili tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy-pedagogik faoliyatni biz nazariya va amaliyotning uzviy integratsiyasi, ya’ni o‘zaro chambarchas bog‘liqligi va bir-birini to‘ldiruvchi jarayon sifatida talqin qilamiz. Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning samaradorligi uni tashkil etishda an’anaviy pedagogik tamoyil, metod va shakllardan foydalanish bilangina cheklanmaydi. Mazkur faoliyat murakkab hamda kutilmagan pedagogik vaziyatlarni to‘g‘ri baholash va ularga mos yechimlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Shu bois jarayonda turli fanlar doirasidagi bilimlarni uyg‘unlashtirish, integrativ yondashuvlardan foydalanish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ta’lim jarayonining individual xususiyatlari, inklyuziv muhitda yuzaga keladigan ehtiyojlar, o‘qituvchining ijodiy-pedagogik salohiyati hamda turli vaziyatlarga moslashish qobiliyati ijtimoiy-pedagogik faoliyatning natijadorligini belgilovchi muhim omillar hisoblanadi.

“Faoliyat”, “kasb”, “kasbiy faoliyat” va “ish” tushunchalarining ilmiy-nazariy mazmunini zamonaviy yondashuvlar asosida yoritish inklyuziv ta’lim sharoitidagi ijtimoiy-pedagogik faoliyatning mohiyati, tarkibiy tuzilishi, amalga oshirish mexanizmlari va ustuvor yo‘nalishlarini yanada aniqroq belgilash imkonini beradi.

Falsafiy yondashuvlarga ko‘ra, faoliyat deganda sub’ektning ob’ekt bilan faol, maqsadga yo‘naltirilgan o‘zaro ta’siri tushuniladi. Bunday jarayon natijasida nafaqat moddiy yoki ma’naviy qadriyatlar yaratiladi, balki sub’ektning o‘zi ham rivojlanadi va o‘zgaradi. Falsafa lug‘atlarida

bu jarayon “insonning tabiatni ijodiy tarzda qayta shakllantirishi, natijada o‘zini faol sub’ekt sifatida namoyon etishi hamda o‘zlashtirilgan tabiat hodisalarini o‘z faoliyati ob’ektiga aylantirishi” sifatida izohlanadi.

Mahalliy olimlar faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq holda shaxsning ijtimoiy faolligini alohida ta’kidlab, “faollik – bu shaxsning yoki unga bog‘liq bo‘lgan tizimlarning borliqdagi o‘zgarishlarning sababi bo‘lish qobiliyatini tavsiflovchi faoliyat shakli”, deb belgilaydilar [109].

Demak, faoliyat sub’ektning tashqi olam bilan faol va maqsadga yo‘naltirilgan o‘zaro ta’siri sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday jarayon natijasida muayyan mahsulot yuzaga keladi va u o‘z mazmuniga ko‘ra ham moddiy boyliklar, ham ma’naviy qadriyatlar shaklida ifodalanishi mumkin. Faoliyatni tahlil etishda faylasuf olimlar uning eng muhim belgisi sifatida maqsadga yo‘naltirilganlik hamda o‘zgartiruvchi (transformatsion) xususiyatini alohida ta’kidlaydilar. Ularning qarashlariga ko‘ra, har qanday faoliyat insonning voqelik haqidagi nazariy bilimlarini amaliyotda ro‘yobga chiqarish, ya’ni ularni real hayotda qo‘llash jarayoni bilan uzviy bog‘liqdir. Ya’ni, faoliyat nazariy va amaliyning birligida sodir bo‘ladi: nazariya amaliyotning yo‘nalishini belgilaydi, amaliyot esa nazariyani moddiylashtiradi.

“Faoliyat tushunchasi kasb kategoriyasi bilan bevosita va uzviy bog‘liqdir. Psixologik hamda pedagogik manbalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, kasb-hunar jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar jarayonida shakllanadigan bo‘lib, uni amalga oshirish uchun maxsus nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishni talab etadigan alohida faoliyat turidir. Pedagogik adabiyotlarda kasb mehnat taqsimotining tarixiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadigan ijtimoiy hodisa sifatida izohlanadi. Shuningdek, u shaxsning kasbiy tayyorgarlik jarayonida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalari hamda ma’naviy-axloqiy qarashlari majmui bo‘lib, u orqali inson moddiy va nomoddiy manfaatlar olish maqsadida malakali mehnat faoliyatini amalga oshiradi, deb talqin qilinadi” [112, 65].

Ta’lim ensiklopediyasida “kasb” tushunchasining mohiyati “mehnat taqsimoti va uning funksional mazmuni bilan belgilanadigan shaxsning

barqaror va nisbatan keng tarqalgan mehnat faoliyati (kasbi) turi” sifatida ko‘rsatilgan[95, 742-b].

Zamonaviy falsafiy yondashuvlarga ko‘ra, “kasb” tushunchasi faqat oddiy mehnat turi emas, balki tizimli faoliyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ong, xulq-atvor va ijtimoiy munosabatlarning o‘ziga xos hamda ko‘p hollarda institutsionallashgan shakli sifatida talqin etiladi. U jamiyatda mavjud bo‘lgan me’yorlar, qadriyatlar tizimi va turli tashkilotlar orqali namoyon bo‘ladigan ijtimoiy hodisa bo‘lib, shaxslarning jamiyatga foyda keltiruvchi maqsadli harakatlari majmuini ifodalaydi [109]. Shu jihatdan kasblar tizimi juda keng qamrovga ega bo‘lib, ularni shartli ravishda iqtisodiy, texnik, pedagogik va boshqa bir qator yo‘nalishlarga ajratish mumkin.

Adabiy manbalar va nazariy qarashlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, “mutaxassislik” tushunchasi kasblar tizimida muayyan yo‘nalishlarni birlashtiruvchi umumlashgan kategoriya sifatida talqin etiladi. U, odatda, ta’lim jarayonida egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui bo‘lib, ularning o‘zlashtirilganligi rasmiy hujjatlar bilan tasdiqlanadi. Shuningdek, mutaxassislik shaxsning o‘z kasbiy faoliyati doirasida chuqur bilimga ega bo‘lishi, amaliy ko‘nikmalarni egallashi hamda tegishli sohada kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini ham ifodalaydi.

Tadqiqotimiz doirasida “kasb tushunchasi umumiy o‘rta ta’lim muassasasida pedagogik faoliyatni amalga oshirishni, mutaxassislik muayyan ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kasbiy tayyorgarlikni, malaka esa o‘qituvchining pedagogik vazifalarni bajarishiga imkon beruvchi bilim, ko‘nikma va amaliy tayyorgarlik darajasini anglatadi. Inklyuziv mutaxassislik tushunchasi esa pedagogning turli ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar bilan ishlash uchun zarur bo‘lgan maxsus kasbiy tayyorgarligi va kompetensiyalar majmuini ifodalaydi” [109].

Amaldagi kasblar klassifikatori tahlili shuni ko‘rsatadiki, unda “inklyuziv ta’lim” mustaqil mutaxassislik sifatida, shuningdek, “inklyuziv ta’lim o‘qituvchisi (inklyuziv pedagog)” alohida malaka yo‘nalishi sifatida hozircha rasmiy ravishda aks ettirilmagan. Shuningdek, mazkur yo‘nalishdagi o‘qituvchining kasbiy-malaka

tavsiflari hamda uning pedagogik faoliyat modeli hozirgacha yetarlicha ishlab chiqilmagan va ilmiy jihatdan asoslab berilmagan. Shu sababli umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining inklyuziv ta’lim muhitida faoliyat yuritadigan o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash masalasini Milliy Fanlar Akademiyasi tomonidan taklif etilayotgan “inklyuziv umumiy o‘rta ta’lim muassasasi o‘qituvchisi” ixtisosligi konsepsiyasi doirasida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi[167].

“O‘qituvchilarning inklyuziv ta’lim muhitidagi kasbiy faoliyatida ijtimoiy-pedagogik faoliyatning mazmuni va o‘ziga xos jihatlarini yoritish, shuningdek, faoliyat hamda ish tushunchalarining mazmuniy farqlarini aniqlashdan oldin, avvalo, “ish” terminining etimologik mohiyatiga murojaat qilish lozim. Mazkur yondashuv ushbu tushunchaning dastlabki mazmunini aniqlashtirish va uning keyingi ilmiy talqinini asoslash uchun nazariy zamin yaratadi. Chunki ushbu tushuncha kasbiy faoliyat mohiyatini chuqurroq anglashda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi” [167].

Kasblar klassifikatorida “ish” tushunchasi muayyan kasb doirasida bir shaxs tomonidan amalga oshiriladigan yoki amalga oshirilishi lozim bo‘lgan aniq vazifa, funksiyalar va majburiyatlar majmuasini ifodalaydi. “Boshqacha aytganda, ish – bu kasb tomonidan belgilangan faoliyat doirasida bajariladigan, aniq me’yor va talablar asosida shakllantirilgan xizmat yoki mehnat jarayonidir. Shuningdek, ish atamasi odatda uni bajarish uchun zarur bo‘lgan malaka, ko‘nikma va kasbiy tayyorgarlik darajasiga qarab tasniflanadigan statistik birlik sifatida ham talqin etiladi. Bu esa uni faqat amaliy harakatlar yig‘indisi emas, balki ma’lum kompetensiyalar tizimi bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida ham ko‘rib chiqish imkonini beradi” [167].

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim sharoitida o‘qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik faoliyati mazmuni, vazifalari va amalga oshirish shakllarini yanada aniqroq ochib berish uchun, avvalo, ushbu faoliyatning nazariy mohiyatini belgilovchi “ijtimoiy”, “ijtimoiylashtirish” hamda “ijtimoiy yordam” tushunchalarining o‘zaro mazmuniy bog‘liqligini tahlil qilish zarur. Ensiklopedik lug‘atlarda “ijtimoiy” (lotincha socialis — umumiy, jamiyatga oid) atamasi

insonlarning jamiyat ichidagi hayoti, ularning o‘zaro munosabatlari hamda ijtimoiy aloqalar tizimi bilan bevosita bog‘liq ekanligi qayd etiladi[112]. “Ilmiy adabiyotlarda esa tadqiqotchilar “ijtimoiy” tushunchasini keng ma’noda, ya’ni insoniyatning umumiy hayotiy faoliyati, jamiyatga xos bo‘lgan munosabatlar tizimi hamda odamlar o‘rtasidagi turli shakldagi muloqot va hamkorlik jarayonlarini ifodalovchi kategoriyalar sifatida talqin etadilar” [42, 429–430-b].

“Hozirgi zamon ilmiy adabiyotlarining nazariy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tushunchasi o‘z mazmuniga ko‘ra ko‘p ma’noli, ko‘p qirrali hamda murakkab kategoriyalar sirasiga kiradi. Mazkur nazariy qarashlarga tayangan holda, o‘qituvchining kasbiy faoliyati nafaqat ta’lim jarayonini tashkil etish, balki uning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei va rolini belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlash mumkin” [113]. O‘qituvchi kasbiy faoliyati davomida mavjud ijtimoiy munosabatlar tizimida muayyan o‘rin egallaydi, jamiyat tomonidan unga yuklatilgan vazifalarni bajaradi hamda mazkur muhit talablariga mos ravishda o‘zining kasbiy xulq-atvori, munosabatlari va faoliyat usullarini shakllantirib boradi.

Ijtimoiy rol deganda, odatda, muayyan ijtimoiy mavqega ega bo‘lgan shaxsdan kutiladigan va jamiyat tomonidan belgilab qo‘yilgan me’yoriy xatti-harakatlar tizimi tushuniladi. Bu tizim shaxsning jamiyatdagi o‘rnidan kelib chiqib bajarishi lozim bo‘lgan huquq, burch, vazifa, talab hamda qoidalarning yaxlit majmuasini o‘z ichiga oladi [113]. Kompleks ta’lim muassasasining inklyuziv muhitida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarning ijtimoiy rollari doimiy barqaror bo‘lib qolmaydi, balki vaziyat va o‘quvchilar tarkibining xilma-xilligi ta’sirida o‘zgaruvchan xarakter kasb etadi. Bunday sharoitda pedagoglar turli ehtiyoj va imkoniyatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashga majbur bo‘lib, ba’zan esa an’anaviy pedagogik funksiyalardan tashqari qo‘shimcha, ilgari unchalik xos bo‘lmagan ijtimoiy-pedagogik vazifalarni ham bajaradilar.

Yuqorida amalga oshirilgan nazariy tahlillarga tayangan holda shuni ta’kidlash mumkinki, inklyuziv ta’lim muhiti sharoitida faoliyat yuritayotgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari turli shakl va ko‘rinishlarda

namoyon bo‘ladi hamda ular o‘ziga xos bir qator vazifalarni bajaradi. Shu bois, ularning ijtimoiy-pedagogik faoliyati ko‘p yo‘nalishli va ko‘p funksiyali xususiyatga ega ekanligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

“Umumta’lim muassasasining inklyuziv ta’lim muhitida o‘qituvchilarning ko‘p funksiyali kasbiy faoliyati mohiyatini ochib berishda, avvalo, inklyuziv ta’lim tushunchasining nazariy mazmuni va amaliy xususiyatlarini aniqlash muhimdir” [113].

Inklyuziv ta’lim sohasida tadqiqotlar olib borgan “A. Kolupaeva va uning hamkorlari ham ushbu g‘oyani qo‘llab-quvvatlaydi. Ularning ta’kidlashicha, inklyuziv ta’limning asosiy tamoyili maxsus ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarning o‘z yashash hududidagi ta’lim muassasalarida sifatli va qulay sharoitlarda bilim olish huquqini ta’minlashdan iborat. Bunday yondashuv har bir bolaning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta’lim xizmatlarini tashkil etishni, teng imkoniyatlar yaratishni hamda ta’lim tizimida diskriminatsiyaning oldini olishni ko‘zda tutadi” [63, 260-b].

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, “inklyuziv ta’lim har bir bolaning sifatli ta’lim olishi uchun teng imkoniyat yaratishga yo‘naltirilgan tizimdir. Unda alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilarning individual imkoniyatlari hisobga olinib, moslashtirilgan pedagogik yondashuvlar va zarur shart-sharoitlar asosida umumiy ta’lim jarayoniga jalb etilishi ta’minlanadi” [123, 20-bet]. Shu bilan birga, inklyuziv ta’lim barcha o‘quvchilarning ijtimoiy integratsiyasi, qobiliyatlarini rivojlantirishi va salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun teng sharoit yaratadi.

“Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritishda, avvalo, o‘rganish tushunchasining mazmuni va pedagogik mohiyatini aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog olima N. Volkova ta’limni o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi maqsadga yo‘naltirilgan hamkorlik va o‘zaro ta’sir jarayoni sifatida izohlaydi. Ushbu jarayon natijasida o‘quvchi muayyan bilimlarni egallaydi, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi hamda shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi” [145]. “Zamonaviy ta’lim tizimida, ayniqsa inklyuziv ta’lim sharoitida, “o‘rganish” va “o‘rgatish” tushunchalariga yangicha

pedagogik nuqtai nazardan yondashish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki inklyuziv muhitda ta’lim jarayoni har bir o‘quvchining individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi talab etiladi” [145].

“Alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarning inklyuziv ta’limi ularning individual imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, tibbiy-ijtimoiy hamda psixologik-pedagogik ko‘mak asosida tashkil etiladi. Shu bois u moslashuvchan va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur jarayonda o‘quvchilarning bilish faoliyati, rivojlanish xususiyatlari va o‘zlashtirish imkoniyatlari inobatga olinib, sifatli ta’lim olishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Inklyuziv ta’lim, shunchaki, bilim olish jarayonini tashkil etishdan iborat emas, balki har bir o‘quvchining unikal talab va qobiliyatlarini inobatga olib, ularni ijtimoiylashtirishga ham xizmat qiladi” [145].

Ilmiy yondashuvlarni umumlashtirib, inklyuziv ta’limni har bir o‘quvchining individual xususiyatlari, imkoniyatlari va ta’lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan yaxlit pedagogik jarayon sifatida talqin etish mumkin. Uning asosini teng imkoniyat, o‘zaro hurmat, hamkorlik va pedagogik qo‘llab-quvvatlash tamoyillari tashkil etadi. Alohida ta’lim ehtiyojlariga ega boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim jarayoniga samarali jalb etilishi uchun moslashtirilgan ta’lim muhiti, individual yondashuv, maxsus metod va texnologiyalar, shuningdek, zarur pedagogik-psixologik hamda moddiy-texnik sharoitlarni ta’minlash muhimdir. Mazkur inklyuziv muhitda boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, shaxsiy rivojlanishi va ta’limdagi muvaffaqiyatini qo‘llab-quvvatlovchi muhim pedagogik subyekt sifatida faoliyat yuritadi.

“Umumiy ta’lim muassasasining inklyuziv muhiti” tushunchasining terminologik mazmuni oldingi bo‘limlarda batafsil yoritilgan. Mazkur tadqiqot doirasida ushbu tushuncha keng qamrovli pedagogik va ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilinadi. Bizning fikrimizcha, inklyuziv muhit quyidagi muhim tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

1. Alohida ta’lim ehtiyojlari mavjud bo‘lgan o‘quvchilarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishi, tarbiyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi va individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishiga xizmat qiluvchi pedagogik, psixologik va ijtimoiy omillar tizimi. Mazkur sharoitlar barcha o‘quvchilar uchun ta’lim olish imkoniyatlarining tengligini ta’minlashi hamda hech bir guruhning ta’lim huquqini cheklamasligi lozim.

2. Maktab binosi, uning ichki infratuzilmasi hamda unga tutash hududlarni inklyuzivlik tamoyillari asosida loyihalashtirish va tashkil etish. Bu o‘quvchilarning dars jarayonida, tanaffus vaqtida hamda maktab hududida mustaqil, qulay va xavfsiz harakatlanishiga imkon yaratadi.

3. Ta’lim muassasasida sog‘lom psixologik iqlim va ijobiy emotsional muhitni shakllantirish. Shu bilan birga, pedagoglar, ma’muriyat va boshqa xodimlarning alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar hamda ularning ota-onalariga nisbatan tolerant, hurmatli va qo‘llab-quvvatlovchi munosabatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

4. O‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik, o‘zaro yordam, jamoaviy faoliyat va ijtimoiy integratsiyani rag‘batlantirish. Bunday yondashuv har bir bolaning jamoa a’zosi sifatida o‘zini qadrlangan va qabul qilingan holda his etishiga xizmat qiladi.

5. Ta’lim dasturlari, o‘quv rejalari, o‘qitish metodlari va baholash shakllarini o‘quvchilarning individual imkoniyatlari hamda ehtiyojlaridan kelib chiqib moslashtirish. Bu esa har bir o‘quvchining ta’lim jarayonida faol ishtirok etishi va o‘z salohiyatini to‘liq namoyon etishiga zamin yaratadi[102, b. 86].

Ilmiy adabiyotlarda an’anaviy ta’lim yondashuvlarining inklyuziv ta’limning bugungi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlashdagi cheklangan imkoniyatlari qayd etiladi. Xususan, yagona ta’lim modeli barcha o‘quvchilarning individual xususiyatlari, ta’limiy ehtiyojlari va intellektual imkoniyatlarini yetarlicha hisobga olishga har doim ham mos kelmaydi. Shu bois inklyuziv ta’limda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi pedagogik munosabatlar ham yangicha mazmun kasb etadi. Bunda o‘qituvchi asosiy bilim manbai va nazorat qiluvchi subyekt sifatidagi

an’anaviy mavqedan ko‘ra, o‘quv jarayonining hamkori va yo‘naltiruvchisi sifatida faoliyat yuritadi. Mazkur model o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish, mustaqil fikrlash va ijodiy faolligini qo‘llab-quvvatlash hamda har bir bolaning mavjud imkoniyatlarini namoyon etishi uchun maqbul pedagogik sharoitlarni yaratishga yo‘naltiriladi.

“O‘qituvchilik” atamasi faoliyat turlaridan biri sifatida qo‘llaniladi, unda o‘qituvchi (o‘qitish) – va o‘quvchi (o‘rganish) faoliyatlari nazarda tutiladi va asosiy e’tibor birinchisining faoliyatiga qaratiladi [53].]. “O‘rganish” tushunchasi shaxsning mavjud imkoniyatlarini to‘liq namoyon etish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi individual ta’lim yo‘lini shakllantirish jarayoni sifatida talqin etiladi. Ushbu jarayonda o‘quvchi tomonidan bilim, ko‘nikma va malakalar izchil ravishda egallanadi hamda takomillashtiriladi. Shu sababli mazkur tushuncha ta’lim oluvchining ta’lim jarayonidagi faol va ongli ishtirokini ifodalovchi “o‘quv faoliyati” atamasi bilan bog‘liq holda qaraladi. O‘quv faoliyati shaxsning o‘zlashtirish, izlanish va rivojlanishga qaratilgan mustaqil hamda maqsadli harakatlarini o‘z ichiga oladi.

Ilmiy adabiyotlarda inklyuziv ta’limning konseptual asoslari va muhim tamoyillari keng yoritilgan bo‘lib, ular quyidagi g‘oyalarga tayanadi:

– “har qanday holatda ham rivojlanish xususiyatlari turlicha bo‘lgan bolalar, jumladan, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar tengdoshlari bilan birgalikda ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lishlari lozim. Bunday yondashuv ularning ijtimoiy moslashuvi, kommunikativ kompetensiyalarining rivojlanishi hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga xizmat qiladi” [212];

– “ta’lim muassasalari o‘quvchilarning individual xususiyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlaridagi farqlarni e’tirof etishi hamda ularni ta’lim jarayonini tashkil etishda hisobga olishi zarur. Shu bilan birga, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim shakllari, metodlari va o‘zlashtirish sur’atlarini moslashtirish hamda ular uchun maqbul pedagogik sharoitlarni yaratish zarur” [212].

– “ta’lim samaradorligi va sifatini oshirishda zamonaviy o‘quv-metodik vositalar, o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan didaktik materiallar, innovatsion pedagogik yondashuvlar hamda maxsus ta’lim metodlaridan maqsadli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ta’lim tashkiloti, oila va mahalla hamkorligini tizimli yo‘lga qo‘yish inklyuziv ta’lim natijadorligini ta’minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi” [212].

– “alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi rivojlanishi va muvaffaqiyatini ta’minlash uchun ularga zarur pedagogik, psixologik hamda ijtimoiy ko‘mak ko‘rsatish tizimini yo‘lga qo‘yish lozim. Mazkur yordamni bolaning individual imkoniyatlari, ehtiyojlari va rivojlanish xususiyatlariga muvofiq tashkil etish inklyuziv ta’limni samarali amalga oshirishning asosiy shartlaridan biridir” [212].

Oxirgi tezisni hisobga olgan holda va uning mohiyatini aniqlash uchun biz “yordam” tushunchasining ta’rifiy tahlilini o‘tkazamiz. Biz konsepsiyaning terminologik xususiyatini inklyuziv ta’limni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda belgilaymiz. Biz tomonimizdan inklyuziv muhitda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyati nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi. Umuman olganda, yordam aqliy, ijtimoiy, jismoniy va intellektual salomatlikni saqlashni ta’minlaydigan chora-tadbirlar majmuasi sifatida talqin etiladi.

Ushbu qarorga ko‘ra, tibbiy, ijtimoiy, psixologik va pedagogik sohalarning turli bo‘limlari va mutaxassislar tomonidan yordam ko‘rsatiladi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda “ijtimoiy yordam” tushunchasi insonlarning turli hayotiy qiyinchiliklarini bartaraf etish yoki ularning salbiy ta’sirini kamaytirishga xizmat qiluvchi, shuningdek, shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini saqlab qolish, uning to‘laqonli hayot kechirishi va ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashishini ta’minlashga qaratilgan yordam, qo‘llab-quvvatlash hamda xizmatlar tizimi sifatida talqin etiladi [83].

“Inklyuziv ta’lim sharoitida ijtimoiy-pedagogik yordam boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kichik maktab yoshidagi

o‘quvchilarda yuzaga keladigan ijtimoiy-pedagogik muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish va o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga samarali moslashuvini ta’minlashga qaratilgan tizimli kasbiy faoliyati sifatida talqin etiladi” [105]. Bunday yordam o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va ta’lim jarayoniga samarali integratsiyalashuvini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Mazkur faoliyat quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

– “ta’lim jarayonida ishtirok etuvchi barcha subyektlar o‘rtasida konstruktiv hamkorlik, o‘zaro hurmat va ko‘makka asoslangan ijtimoiy-pedagogik muhitni qaror toptirish hamda ularning ta’limiy ehtiyojlari va manfaatlarini uyg‘unlashtiruvchi yaxlit tizimni shakllantirish” [106];

– “o‘quvchilarda tenglik, o‘zaro anglashuv, hamjihatlik va empatiyaga asoslangan ijobiy munosabatlarni rivojlantirish, shuningdek, ularning motivatsiyasi, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarini konstruktiv yo‘nalishda takomillashtirish” [106];

– “o‘quvchilarning bilish va kommunikativ faolligini rag‘batlantirish, sinf jamoasida psixologik jihatdan qulay muhitni ta’minlash hamda og‘zaki va noverbal muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali kommunikativ jarayonni tashkil etish” [106];

– “shaxsning har tomonlama rivojlanishi va ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashuvini qo‘llab-quvvatlash uchun subyektlararo munosabatlarga asoslangan qulay pedagogik sharoitlarni yaratish, ijtimoiylashuv jarayonini rag‘batlantiruvchi omillarni aniqlash va ularning samarali ta’sirini ta’minlash” [106, 177–186-b.].

“Umumiy ta’lim muassasasining inklyuziv ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini tadqiq etish jarayonida sotsializatsiya tushunchasining mazmuni tahlil qilindi. Natijada mazkur tushuncha shaxsning jamiyatda shakllangan ijtimoiy tajriba, qadriyatlar, me’yorlar hamda turli ijtimoiy munosabat va aloqalarni egallab, ularni o‘z faoliyatida qo‘llash jarayoni sifatida talqin qilindi” [283]. Sotsializasiya jamiyat va shaxs o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning asosiy mexanizmidir. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning jamiyatdagi hayotiy faolligini ta’minlovchi asosiy xususiyatlari shakllanadi[243]. Bizning fikrimizcha,

sotsializasiya-bu erta bolalikdan boshlanadigan va hayot davomida davom etadigan jarayon bo‘lib, u jamiyat qonunlari va an’analarini bosqichma-bosqich o‘zlashtirish, ong va xulq-atvorni shakllantirish, talaba, talaba jamoasi a’zosi, do‘st, o‘rtoq va boshqalarning yangi rollarini o‘zlashtirishni o‘z ichiga oladi. M.Levchenko ta’kidlaganidek, ta’lim jamiyatning hayotiy faoliyatini belgilaydi va aks ettiradi; Insonning xatti-harakati va harakatlari tashqi muhitda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarga bog‘liq bo‘lib, shaxsni ijtimoiylashtirishning samaradorligi jamiyat ehtiyojlari, shaxsning ta’lim tizimi va kasbiy tayyorgarligi bilan chambarchas bog‘liq. Uning hayot rejalari mos kelishi kerak. Olimning fikricha, ta’lim tizimi jamiyat ehtiyojlari va maktab o‘quvchilarining hayot rejalari o‘rtasidagi o‘ziga xos bog‘lovchi “ko‘prik”dir [68].

G. Davыdenkoning fikricha, boshqarish bilan o‘xshash inklyuziv ta’lim va tarbiya tushunchasi zamonaviy xorijiy pedagogik amaliyotda keng tarqalmroqda. Inklyuziv sinf o‘qituvchisi kommunikativ mahorat, yetakchilikni namoyon etadi va raqobatni rag‘batlantiradi[148,p.201]. “N.Fransuz va R.Chopra jarayonni tashkil etish biznes tuzilmasi analogiga asoslangan inklyuziv ta’lim muassasalaridagi munosabatlarni tahlil qilib, bolalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning yuqori darajasini va bunday o‘quvchilarning funksional imkoniyatlar doirasidagi yuqori moslashuvchanligini aniqladilar. Ularning tahlilida rejalashtirish, qo‘llab-quvvatlash, tushuntirish, hamkorlik va nazorat sohalari alohida ta’kidlangan” [148].

Umumta’lim muassasasining inklyuziv muhitida ishlovchi o‘quvchilar ijtimoiylashuvi agenti bo‘lib, shu bilan birga davlat tomonidan ularga yuklangan vazifalarni bajaradilar. Shuni ta’kidlash joizki, mazkur mutaxassislarning kasbiy faoliyati o‘zining funksional imkoniyatlari va ta’sir doirasini sezilarli darajada kengaytiradi. Aksincha, u turli yo‘nalish va vazifalarni o‘zida mujassamlashtirgan, ko‘p qirrali hamda integrallashgan faoliyat turi sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan shu ko‘p funksiyalilik va kompleks yondashuv uning mohiyatini belgilab, “ijtimoiy-pedagogik faoliyat” deb nomlanishiga asos bo‘ladi”.

Keling, inklyuziv jarayonning eng yaqin ishtirokchisi – inklyuziv ta’lim o‘qituvchisi yordamchisining faoliyatiga e’tibor qaratsak.

“O‘qituvchining yordamchisi” lavozimi o‘qituvchiga o‘quv jarayonini tashkil etish, qo‘llab-quvvatlash va amalga oshirishda yordam beradi. O‘qituvchining yordamchisi sinf rahbari bilan hamkorlik qiladi, lekin alohida ta’limga muhtoj o‘quvchining ongida o‘qituvchi yetakchi bo‘lib qolishi kerak.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning nazariy asoslari Bogdanova[140], O. Budnik[143], I. O. G.Davidenko[148], V. Polishchuk [163] va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Ushbu mualliflar yosh shaxsning ijtimoiylashuvi va har tomonlama rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadiga e’tibor qaratadilar. Keltirilgan mualliflarning fikricha, “ijtimoiy-pedagogik faoliyat” fanlararo tahlil ob’ekti hisoblanadi.

O.Budnikning ilmiy tadqiqotida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ijtimoiy-pedagogik faoliyatining muhim xususiyatlari ko‘rsatilgan. Ushbu kontekstda amaliyot faoliyat sifatida nazariy bilimlar va ularni amalga oshirish vositalarining birligini o‘z ichiga oladi. “O. Budnik amaliyotni bu jamiyatdagi moddiy madaniyat ob’ektlarini o‘zgartirishga qaratilgan inson faoliyati, degan xulosaga keladi, shuning uchun nazariy faoliyat tashqi dunyoni kuzatish, tushunish, tahlil qilish, sintez qilish va muayyan ob’ektlar va hodisalarni taqqoslash orqali o‘zlashtirishni o‘z ichiga oladi, amaliy faoliyat esa bilimlarni moddiylashtirishdir. O‘qituvchi nazariy va amaliy faoliyatning birligiga shubha yo‘qligini ta’kidlaydi, ammo bu bog‘liqlik mexanizmini aniqlashda savol tug‘iladi: nazariya amaliyot uchun qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladimi yoki nazariya inson taraqqiyoti vositasi sifatida faoliyat samaradorligini oshiradimi” [143]. “O. Budnik umumiy o‘rta ta’lim muassasasi o‘qituvchisining ijtimoiy-pedagogik faoliyatini uning kasbiy faoliyatining alohida yo‘nalishi sifatida izohlaydi. Mazkur faoliyat o‘quvchilarning maktabdagi ijtimoiy-ta’limiy muhitga muvaffaqiyatli moslashuvi, jamiyat tomonidan e’tirof etilgan ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni egallashi uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga yo‘naltiriladi. Shuningdek, uning mazmunida o‘quvchilarni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyorlash, o‘zligini anglash jarayonini qo‘llab-quvvatlash hamda turli salbiy ijtimoiy omillar ta’siriga duch

kelgan bolalar va ularning oilalariga pedagogik yordam ko‘rsatish muhim o‘rin tutadi” [143, 73-bet].

Umumiy o‘rta ta’lim muassasasai o‘qituvchisi ijtimoiy-pedagogik faoliyatning barcha sohalarida malakali bo‘lishi kerak: ijtimoiy muammolarning oldini olish, diagnostika, deviant, iqtidorli bolalar bilan ishlash va oila bilan hamkorlik qilish hamda inklyuziv ta’limda ishlash (O. Budnik)[143]. Bu faoliyatlar bilan birga, umumiy ta’lim muassasasining inklyuziv muhitida o‘qituvchi vositachi, ijtimoiylashtiruvchi, himoyachi, tuzatuvchi, kompensatsiya, psixoterapevtik va boshqa funksiyalarni ham bajarishi zarur. [143].

“Inklyuziv ta’lim sharoitida o‘qituvchilarning kasbiy faoliyati o‘quvchilarning ijtimoiylashuvi, shaxsiy rivojlanishi va jamiyatga moslashuvi uchun qulay pedagogik muhit yaratishga yo‘naltiriladi. Bunda o‘quvchilarning individual imkoniyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlari hisobga olinib, ularda ijtimoiy-madaniy qadriyatlar, me’yorlar va ijobiy xulq-atvorni shakllantirishga ko‘maklashiladi. Mazkur yondashuv inklyuziv muhitda hamkorlik, o‘zaro hurmat va barcha o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi” [140, 19-bet].

“Inklyuziv ta’limning barqaror va samarali ishlashini ta’minlash pedagoglarni tayyorlash jarayonining mazmunini zamonaviy ta’lim talablari asosida takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni taqozo etadi. Bunday sharoitda o‘qituvchilar o‘z kasbiy faoliyatida yangi vazifa va funksiyalarni bajarishga tayyor bo‘lishlari, turli ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar bilan samarali ishlash kompetensiyalarini egallashlari zarur” [105]. “S. Lisovaning ta’kidlashicha, kasbiy-pedagogik faoliyatdagi zarur o‘zgarishlarga yo‘naltirilganlik pedagogning ta’lim sohasida yuz berayotgan yangilanishlarni anglashini, zamonaviy ta’lim qadriyatlarini qabul qilishini hamda kasbiy faoliyatning yangicha funksiyalarini amalga oshirishga psixologik va metodik jihatdan tayyor bo‘lishini talab qiladi. Shu sababli inklyuziv ta’lim sharoitida pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Buning uchun, olim yana ta’kidlaganidek, ta’limda pedagogika va boshqa umumiy kasbiy fanlarning o‘qituvchining

kasbiy tayyorgarligidagi o‘rni va rolini hisobga olish; pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi muhitini yaxshilash yo‘llarini belgilash; o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalarini aniqlashga yangi yondashuvlar asosida kasbiy ta’lim dasturlarini amalga oshirish jarayonida o‘zgarishlarni amalga oshirish zarur” [140].

Pedagogik ta’limni rivojlantirishning yuqorida qayd etilgan konseptual asoslari haqidagi so‘nggi tezisni [158] inobatga olib, didaktik vositalar, xususan, ijtimoiy-pedagogik faoliyatni yoritib beruvchi o‘quv qo‘llanmalari mavjud bo‘lmagan taqdirda, biz respublikamiz oliy o‘quv yurtlarida ishlab chiqdik va sinovdan o‘tkazdik. Ukraina “Ijtimoiy-pedagogik faoliyat asoslari” qo‘llanmasi [158] ijtimoiy pedagoglar va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash uchun mo‘ljallangan.

“Bo‘lajak o‘qituvchilarning umumta’lim muassasalarining inklyuziv ta’lim muhitida samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy-pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida ishlab chiqilgan qo‘llanmaning tematik-modulli tuzilmasini amaliyotga joriy etish jarayonida uning mazmunini chuqur o‘rganish va baholash mezonlarini aniqlash muhim bosqichlardan biri sifatida belgilandi” [158]. Shu nuqtai nazardan, modullar tarkibining mazmuniy yo‘nalishlari, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda kasbiy tayyorgarlik jarayoniga ta’sirini tahlil qilishga xizmat qiluvchi ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etdi. Biz o‘quvchilarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga nazariy tayyorlashning mavjud mazmuni va amaliy mashg‘ulotlar mazmuni ko‘p, ammo yetarli darajada emas, uning kompetensiyalarni ijtimoiy-pedagogik kompetensiyaning tarkibiy qismlari sifatida belgilovchi asosiy elementlarini o‘zlashtirishni ta’minlaydi, degan xulosaga keldik.

Shu nuqtayi nazardan, “o‘quvchilarning shaxsiy kamoloti, jamiyat hayotidagi faol ishtiroki va kelgusidagi kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadigan ijtimoiy-axloqiy sifatlarni shakllantirish jarayonida axloqiy tafakkurga tayanuvchi ijtimoiy-pedagogik kompetensiyani tarkib toptirish muhim pedagogik vazifa sifatida namoyon bo‘ladi” [158]. Mazkur kompetensiya o‘qituvchining kasbiy faoliyatida muhim o‘rin tutib, uning ta’lim-tarbiya jarayonidagi

mas’uliyatini yanada oshiradi. O‘qituvchi ushbu kompetensiyani amaliyotga tatbiq etish jarayonida bir qator subyektlar oldida javobgarlikni his etishi zarur. Mazkur vazifalar, eng avvalo, o‘quvchining har tomonlama rivojlanishi va ijtimoiy jihatdan faol shaxs sifatida shakllanishini qo‘llab-quvvatlash, ota-onalar bilan konstruktiv va uzviy hamkorlikni ta’minlash, pedagogik jamoa faoliyatida o‘zaro kelishuv va hamjihatlik asosida ishtirok etish, pedagogning kasbiy salohiyati hamda ma’naviy-axloqiy sifatlarini izchil rivojlantirish, shuningdek, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishga yo‘naltirilgan faoliyatni tashkil etishni nazarda tutadi.

Inklyuziv muhitda o‘qituvchi o‘quvchiga zarar yetkazilishining oldini olishi, uni xavf-xatarga duchor qilmasligi va uni har qanday zararli ta’sirlardan himoya qilishi va o‘z vazifalariga so‘zsiz sodiq bo‘lishi kerak. Umumiy o‘rta ta’lim muassasasi o‘qituvchisi o‘z kasbiy faoliyati doirasida belgilangan vazifalarni bevosita va mas’uliyat bilan amalga oshirishi lozim. Mazkur professional majburiyatlarni bajarish vakolatini boshqa shaxslarga, shu jumladan, davlat tomonidan tegishli vakolat berilgan xodimlarga, o‘qituvchi assistentiga yoki ta’lim muassasasining boshqa pedagogik jamoa a’zolariga asossiz ravishda yuklashga yo‘l qo‘yilmaydi. Faqat “aniq va alohida” ta’lim faoliyatining aspektlari o‘qituvchi yordamchilariga o‘tkazilishi mumkin, agar o‘qituvchi ushbu faoliyatni nazorat qilish va boshqarish shartlarini ta’minlasa[54].

Shunday qilib, umumiy o‘rta ta’lim o‘qituvchilari inklyuziv muhitda ijtimoiy-pedagogik faoliyatni amalga oshirish jarayonida turli murakkab vazifalarni bajarib, muayyan kasbiy rollarni egallaydilar. Har bir rol tegishli pedagogik funksiyalarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

– O‘qituvchi: “ta’lim jarayonida turli fanlar mazmunini integratsiyalashgan holda yoritish, o‘quvchilarning umumiy rivojlanish darajasi hamda individual ta’limiy ehtiyojlarini hisobga olib, ko‘p yo‘nalishli pedagogik faoliyatni tashkil etish uchun zarur kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lgan mutaxassisdir” [54].

– Vositachi: “alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilarni pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash jarayonida ta’lim muassasasining psixologik xizmati, pedagogik jamoasi hamda hududiy

inklyuziv resurs markazi mutaxassislari bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yuvchi va ular o‘rtasidagi axborot hamda amaliy aloqani muvofiqlashtiruvchi subyektdir” [54].

– konfliktolog: ijtimoiy-pedagogik vaziyatlarning oldini olish va hal qilish bilan shug‘ullanadi. Uning muvaffaqiyatsizligi turli xil o‘quvchilar jamoasidagi umumiy rivojlanish va alohida ta’limga muhtoj bolalar o‘rtasida ziddiyatli vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu ziddiyatlarning oldini olish maqsadida ota-onalarning dunyoqarashlarini hamda boshqa talabalarning ota-onalari bilan munosabatlarni nazorat qilish muhim;

– animator: “uning vazifalari cheklangan ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchini ijtimoiylashtirish, u va jamiyat o‘rtasidagi yo‘qolgan aloqalarni tiklash, maktabda va maktabdan tashqarida bolalarning bo‘sh vaqtlarini tashkil etishdan iborat” [54];

– Mutaxassis: “bolalarning ta’lim ehtiyojlari va individual rivojlanish xususiyatlarini psixologik-pedagogik diagnostika asosida aniqlaydi, shu asosda faoliyatni rejalashtiradi hamda pedagog va boshqa mutaxassislarga maslahat-metodik yordam ko‘rsatadi” [54].

– Terapevt (shifokor): “o‘quvchining sog‘lig‘i va funksional imkoniyatlarini hisobga olib, kasallik belgilari va mavjud cheklovlarni kamaytirishga qaratilgan tibbiy-pedagogik yordamni amalga oshiradi. Uning sog‘lig‘i uchun javobgar bo‘lib, reabilitasiya jarayoniga individual yondashuvni amalga oshiradi” [54];

– do‘st: o‘z shogirdlarining muvaffaqiyatlaridan quvonishi, ularga hamdard bo‘lishi, do‘stona talabalar jamoasini shakllantirishi, haqoratomuz laqablarga yo‘l qo‘ymasligi va hamrohlik qoidalariga amal qilishi kerak: hammani qo‘llab-quvvatlashi, adolatli, qat’iyatli bo‘lishi, o‘z harakatlarida izchillikni ta’minlashi muhim;

– Ijtimoiy ishchi/o‘qituvchi: o‘quvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qiladi, ijtimoiy holatini baholaydi hamda oiladagi murakkab vaziyatlarni hal etishga ko‘maklashadi.

– Tashkilotchi: o‘quvchilarni qiziqish va imkoniyatlariga mos tadbirlarga jalb etadi, sinfdan tashqari faoliyatni tashkil qiladi hamda ijtimoiy loyihalarda ishtirokini rag‘batlantiradi [158].

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarning inklyuziv muhitdagi ijtimoiy-pedagogik faoliyati kasbiy vazifalarni samarali bajarishga yo‘naltirilgan muayyan talab va tamoyillar asosida tashkil etiladi. “Ushbu talablarning amaliyotga izchil tatbiq etilishi ta’lim jarayonining sifatini yuksaltirish, har bir o‘quvchining individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda qulay ta’lim sharoitlarini shakllantirish hamda pedagogik faoliyatning natijadorligini oshirishga xizmat qiladi” [158]. “Ushbu talablar o‘qituvchining kasbiy vazifalari, faoliyat yo‘nalishlari va inklyuziv ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Shu jihatdan inklyuziv ta’lim muhitida pedagoglar, yordamchi o‘qituvchilar va o‘quvchilarni ijtimoiy-pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi mutaxassislarning kasbiy faoliyatiga xos yondashuvlar o‘zaro integratsiyalashadi. Ularning maqsadli hamkorligi asosida o‘quvchilarning individual ta’lim ehtiyojlarini hisobga olish, shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash hamda ijtimoiy moslashuvini ta’minlashga yo‘naltirilgan qulay inklyuziv ta’lim muhiti yaratiladi” [158]. “Klassik pedagogika va ijtimoiy ish tamoyillari hamda fundamental ilmiy ishlanmalarni tahlil qilish (I. Bogdanova” [140], “O. Budnik” [143], “T.Zubareva” [149], “E.Ketrish” [151], “S. Lisova” [155], “N.Malofeev” [157], “T.Orusbayeva” [161] , “B.Polishuk” [163] va boshqalar) umumiy rivojlanish va maxsus ta’limga muhtoj bolalarni o‘qitish muammosi va ular bilan ishlash uchun o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi yaxlit ta’lim muassasasining inklyuziv muhitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy-pedagogik faoliyatining asosiy tamoyillarini yoritib berish imkonini beradi. Masalan:

– “barcha bolalarni psixofizik rivojlanishidagi farqlardan qat’i nazar, birgalikda o‘qitish; o‘quvchilarning individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olib, kamsitishning oldini olish va ta’limni ularning imkoniyatlariga moslashtirish; birlik va maqsadlilik tamoyili: boshlang‘ich ta’lim davlat standartida belgilangan kompetensiyalarni shakllantirish vazifalarini izchil amalga oshirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, ta’lim jarayoni ishtirokchilari, mutaxassislar va ota-onalarning hamkorlikdagi faoliyatini yagona maqsad asosida muvofiqlashtirishni nazarda tutadi” [153].

– “quvnoq, samimiy muhitni saqlash, hamdardlik, xayrixohlik va o‘quvchilarning muvaffaqiyatlariga hamda o‘z kasbiy mahoratiga ishonish - insonparvarlik va pedagogik optimizm tamoyili; ijtimoiylashuvga qaratilgan pedagogik sa’y-harakatlarning yo‘nalishi, o‘z sa’y-harakatlari tufayli ijtimoiy mavqeini shakllantirish, bu bolalarning jamiyatdagi xatti-harakatlarini yanada aniqlaydi - inklyuziv sinfda har bir o‘quvchining potensial imkoniyatlariga tayanish tamoyili; alohida ta’lim ehtiyojlariga ega va umumiy rivojlanayotgan bolalarning kognitiv, hissiy-irodaviy xususiyatlarini kompleks diagnostika qilish, rivojlanishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish hamda bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida ijobiy miqdoriy va sifat o‘zgarishlarini ta’minlash ta’lim va korreksion-rivojlantiruvchi faoliyatning uzviy birligi tamoyilidir” [153].

– alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga psixologik-pedagogik va ijtimoiy yordamni monitoring qilish qonuniylik va inson huquqlari tamoyili;

– ijtimoiy-pedagogik faoliyat mazmuni, shakl va metodlarini o‘quvchilarning rivojlanish darajasi hamda ta’lim ehtiyojlariga moslashtirish optimallashtirish tamoyili;

– ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual imkoniyatlari, sog‘lig‘i, qiziqishi va ehtiyojlarini hisobga olish individual yondashuv tamoyili;

– o‘quv-uslubiy tarqatma materiallardan, turli xil analizatorlardan foydalangan holda turli talabalar tomonidan o‘quv materialini idrok etishni hisobga olgan holda o‘qitishning maxsus usullaridan foydalanish, dogmatik, tushuntirish va illyustrativ, muammoli va ilmiy-tadqiqot mashg‘ulotlarini birlashtirish qobiliyati-kompetensiya va kompetensiya tamoyili;

– o‘rta maktab o‘quvchisining o‘quv va kognitiv faoliyati natijalarini, bolalar va ularning ota-onalarining sog‘lig‘i bilan bog‘liq shaxsiy sirlarini oshkor etmaslik - maxfiylik tamoyili;

– o‘quvchilar jamoasining turli bolalariga faoliyatni yo‘naltirish, ularni “yaxshi-yomon”, “qulay-noqulay”, “mos-umidsiz”, qo‘llab-quvvatlash va yordamga muhtoj bo‘lganlarga ajratmasdan – bag‘rikenglik tamoyili.

Demak, umumiy o‘rta ta’lim muassasasida inklyuziv ta’lim muhitini tashkil etish sharoitida o‘qituvchining ijtimoiy-pedagogik faoliyati ko‘p yo‘nalishli mazmun kasb etadi. Bunday faoliyat o‘qituvchidan nafaqat ta’lim-tarbiya jarayonini olib borishni, balki o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, ularni ijtimoiy-pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash hamda ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan samarali hamkorlik qilishni ham talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, inklyuziv muhitda, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy faoliyatida ijtimoiy-pedagogik kompetensiyaning mavjudligi muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, inklyuziv muhitda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy-pedagogik faoliyatini o‘rganar ekanmiz, bu davlat tomonidan vakolat berilgan shaxsning ko‘p funksiyali kasbiy faoliyati bo‘lib, u ta’lim, tarbiya va rivojlanishni amalga oshirishga qaratilgan, degan xulosaga keldik. [163, b.57].

“Inklyuziv ta’limni maktab amaliyotiga joriy etish pedagogdan kasbiy bilim va ko‘nikmalarni yangilash, ta’limga oid qarashlarini takomillashtirishni talab etadi” [163]. O‘qituvchi har bir o‘quvchining individual ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olib, zarur kasbiy kompetensiyalarni qo‘llashi lozim. Bunda tenglik, insonparvarlik va individual yondashuv tamoyillariga amal qilish, innovatsion metodlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur talablarni muvaffaqiyatli bajarish uchun pedagoglarning kasbiy mahorati va amaliy tayyorgarligi yuqori darajada bo‘lishi zarur. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilar oliy ta’lim muassasalarida tahsil olish jarayonidayoq inklyuziv muhitda ishlashga oid nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni chuqur egallashlari talab etiladi. “Pedagoglar o‘quvchilarning individual ta’lim ehtiyojlarini inobatga olgan holda ular bilan samarali pedagogik hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi, ta’lim jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-pedagogik masalalarni oqilona hal qilishi hamda barcha o‘quvchilar uchun qulay va hamkorlikka yo‘naltirilgan ta’lim muhitini shakllantirishi zarur. Shu asosda o‘qituvchining kasbiy faoliyati an’anaviy vazifalar doirasidan kengayib, inklyuziv ta’lim

muhitida o‘quvchilarni ijtimoiy-pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularning ta’limdagi ishtirokini ta’minlash va rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni ham qamrab oladi” [153].

2.2-§. Inklyuziv muhitda kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida o‘qituvchilarining inklyuziv madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi

“Pedagoglar inklyuziv muhitda o‘quv jarayonining malakali ishtirokchilari bo‘lishi, o‘quvchilar jamoasining turli a’zolari, ijtimoiy guruhlari, ularning ota-onalari, hamkasblari va jamoat tashkilotlari bilan malakali kasbiy faoliyat olib borishi kerak” [34, 13-b].

Kompetensiya ko‘p qirrali tushuncha hisoblanadi. Olimlar “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarini turlicha izohlaydilar. Mashhur olimlar “I.Zimnyaya” [59], “O.Gnoevvska” [146], “T.Zubareva” [149], “I.Xafizullina” [164] va boshqalarning asarlari bu tushunchalarni farqlashga bag‘ishlangan.

Milliy malaka doirasi tomonidan berilgan ta’riflarga asoslanib, “kompetentlik shaxsning bilim, tushuncha, ko‘nikma, qadriyatlar va boshqa shaxsiy fazilatlari orqali namoyon bo‘ladigan muayyan faoliyat turini amalga oshirish qobiliyatidir” [59, 149]. “Kompetensiya shaxsning egallagan bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, tajribasi va individual sifatlarining o‘zaro uyg‘unligini ifodalovchi kompleks tavsif hisoblanadi. U oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak mutaxassisning kasbiy vazifalarni hamda ijtimoiy-shaxsiy faoliyatni mustaqil, samarali va mas’uliyat bilan bajarishga tayyorgarligini belgilovchi muhim natija sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tushuncha ma’lum bir faoliyat turini bajarish uchun zarur bo‘lgan bilimlar tizimi, amaliy tajriba hamda ularning yetarli hajmi va sifat darajasi bilan belgilanadi” [149].

I.Zimnyaya kompetensiya tushunchasini insonda namoyon bo‘ladigan ichki, potensial va ko‘pincha yashirin psixologik neoplazmalar majmui sifatida talqin qiladi. Bu neoplazmalar tarkibiga bilimlar, turli g‘oyalar, harakatlarni bajarish uchun mo‘ljallangan dasturlar (ya’ni algoritmlar), shuningdek, qadriyatlar tizimi va munosabatlar kiradi. Shu asosda u asosiy kompetensiyalarni bir nechta guruhlarga ajratib

ko‘rsatadi. Birinchi guruhga shaxsning faoliyat va muloqot sub’ekti sifatidagi ichki imkoniyatlarini ifodalovchi kompetensiyalar kiradi. Ular sog‘liqni saqlashga oid ko‘nikmalar, hayotga bo‘lgan qadriyatli va mazmunli yondashuv, integratsiyalashuv qobiliyati, o‘z ustida ishlash, o‘zini o‘zi tartibga solish, doimiy ravishda o‘zini rivojlantirish, shuningdek, shaxsiy va obyektiv refleksiya (o‘zini tahlil qilish) jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Ikkinchi guruh shaxsning ijtimoiy muhit bilan samarali hamkorligini ta’minlaydigan kompetensiyalar majmuini ifodalaydi. U jamiyat va turli ijtimoiy guruhlar vakillari bilan konstruktiv munosabatlarni shakllantirish, jamoaviy faoliyatda faol ishtirok etish, ijtimoiy sharoitlarga moslashish hamda samarali muloqot olib borish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Uchinchi guruhga esa insonning turli faoliyat turlari bilan bevosita bog‘liq kompetensiyalar kiradi. Bular kognitiv faoliyat, ta’lim jarayonlari, o‘yin faoliyati, mehnat jarayonlari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyalarini o‘z ichiga oladi [59].

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqib, shuni xulosa qilish mumkinki, “kompetentlik” shaxsning murakkab shaxsiy va baholovchi xususiyati sifatida namoyon bo‘ladi. Kompetensiya shaxsning muayyan faoliyatni samarali amalga oshirishini ta’minlovchi o‘zaro bog‘liq tarkibiy jihatlar majmuini ifodalaydi. “Uning mazmunida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikma va qobiliyatlar, shaxsiy hamda individual sifatlar, hayotiy va kasbiy tajriba, xulq-atvorning shakllangan usullari, faoliyatga undovchi motivlar, qadriyatli yo‘nalishlar va hayotiy maqsadlar mujassamlashadi. Shuningdek, kompetensiya shaxsning o‘z imkoniyatlarini takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyoji, turli faoliyat sohalarida tashabbus ko‘rsatishga tayyorligi hamda uzluksiz ta’lim va o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilishi bilan tavsiflanadi. Kompetentlik o‘z tuzilmasida dinamik va statik komponentlarning uyg‘un majmui sifatida qaraladi. Statik jihatga asosan shaxsda mavjud bo‘lgan nazariy bilimlarning ma’lum darajasi hamda boshlang‘ich malakalar kirsa, dinamik jihat esa ularni amaliyotda qo‘llash, rivojlantirish va yangi vaziyatlarga moslashtirish jarayonida namoyon bo‘ladi” [159].

Ko‘rinib turibdiki, “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari noaniq talqin qilinadi, lug‘atlarda ularning iqtiboslari bir-biriga to‘liq mos kelmaydi, hatto turlicha keltiriladi: ba’zi olimlar ularni bir xil ma’noda ishlatsa, boshqalari kompetensiyani malakadan farqli ravishda kengroq ko‘rib chiqadilar, kompetensiya - kompetensiyaning tarkibiy qismidir va u ma’lum bir malakaga ega bo‘lishni anglatadi.

Shu munosabat bilan “kasbiy kompetensiya” atamasini tadqiqotimiz kontekstida ko‘rib chiqish va uning ta’rifiy tahlilini amalga oshirish zarur. O‘qituvchining inklyuziv madaniyati kasbiy faoliyat turlarini amalga oshirishning zamonaviy ijodiy shakllarida namoyon bo‘ladi. Bu faoliyat predmeti bo‘yicha chuqur ilmiy va nazariy bilimlarni talab qiladigan kasbiy tayyorgarlik darajasi sifatida talqin etiladi. Jismoniy, aqliy, intellektual, ijtimoiy-ma’naviy fazilatlar va shaxs xususiyatlarining namoyon bo‘lishi mutaxassisning kasbiy malakasini shakllantiradi. Mutaxassisning kasbiy malakasi – bu shaxsning kasbiy faoliyatini eng yuqori darajada amalga oshirish qobiliyatini belgilaydigan integral xususiyatdir [164, 156-bet].

Bizningcha, “pedagogni inklyuziv ta’lim sharoitida samarali kasbiy faoliyatga tayyorlash faqat tegishli nazariy bilimlarni o‘zlashtirish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish bilangina kifoyalanmasligi lozim. U, shuningdek, yuksak axloqiy-etik fazilatlarni shakllantirish, turli pedagogik vaziyatlarda to‘g‘ri va oqilona qaror qabul qila olish qobiliyatini rivojlantirish hamda o‘z kasbiy faoliyati natijalari uchun to‘liq mas’uliyatni his etish va uni zimmasiga olishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozimligini bu qarashlar ishonchli tarzda asoslab beradi” [164].

“O‘qituvchining inklyuziv madaniyati muammosiga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida shuni xulosa qilish mumkinki, o‘qituvchilarning inklyuziv madaniyati integrallashgan ko‘rsatkich sifatida namoyon bo‘lib, u kasbiy-nazariy va amaliy bilimlar, shuningdek, zarur qobiliyat va ko‘nikmalar majmuini o‘z ichiga olgan murakkab shaxsiy sifat hisoblanadi” [94]. Bundan tashqari, u kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishga tayyorlikni va ushbu faoliyatni bajarish imkoniyatini belgilovchi bir qator professional jihatdan muhim hamda shaxsiy fazilatlarni ham qamrab oladi.

Uning tarkibiy qismlari kasbiy kompetensiyani shakllantiradi. Biroq, olimlarda kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismlarini va ularning mazmunini farqlashda yagona yondashuv mavjud emas.

O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi modeli L.Bogdanova tomonidan taqdim etilgan va olim tomonidan ijtimoiy talab va ehtiyojlarni o‘zida mujassamlashtirgan, zamonaviy maktab o‘qituvchisiga qo‘yiladigan talablarni aks ettiruvchi ideal mutaxassisni shakllantiruvchi tarkibiy qismlarning xayoliy namunasi sifatida belgilab bergan. U umumiy madaniy, kooperativ, valeologik, boshqaruv, axborot-texnologik, avtopsixologik, bashoratli-reflektiv, psixologik-pedagogik, ijtimoiy, kommunikativ-situasion, uslubiy, kognitiv-texnologik kompetensiyalarni qamrab oladi [140].

“Inklyuziv ta’lim sharoitida o‘qituvchining ijtimoiy-pedagogik kompetensiyasi uning kasbiy bilim, ko‘nikma, malaka va qobiliyatlarini turli, jumladan, murakkab pedagogik vaziyatlarni samarali hal etishda qo‘llay olish salohiyatini anglatadi. Mazkur kompetensiya rivojlanish xususiyatlari va ta’limiy ehtiyojlari turlicha bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashda muhim kasbiy sifat bo‘lib, pedagogning metodik, psixologik va pedagogik tayyorgarligini yagona tizimda namoyon etadi” [105].

Biz umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining inklyuziv sinflarida faoliyat yurituvchi o‘qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetensiyasini kasbiy kompetentlikning muhim tarkibiy qismi sifatida belgilaymiz. U pedagogning quyidagi bilim va ko‘nikmalarni egallashini nazarda tutadi:

– “inklyuziv ta’limning davlat siyosati, tamoyillari va asosiy yondashuvlarini bilish; umumiy, maxsus va korreksion pedagogika hamda psixologiya asoslarini o‘zlashtirish; turli rivojlanish xususiyatlariga ega o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish; psixologik-pedagogik diagnostika usullaridan foydalanish; ta’limni individuallashtirish va tabaqalashtirishni amalga oshirish; ota-onalar va boshqa mutaxassislar bilan samarali hamkorlik qilish” [105].

Biz olib borgan tahlillar asosida inklyuziv ta’lim sharoitida faoliyat ko‘rsatuvchi pedagogdan quyidagi kasbiy ko‘nikma va malakalar talab etiladi:

– “o‘quvchilarning individual, psixologik va shaxsiy xususiyatlarini o‘rganish, ularning rivojlanish holatini muntazam baholash hamda o‘zgarishlarni kuzatib borish; an’anaviy pedagogik yondashuvlar bilan bir qatorda korreksion-rivojlantiruvchi metod va texnologiyalardan maqsadli foydalanish; o‘quvchilarning rivojlanishida kuzatiladigan qiyinchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish jarayonida ishtirok etish; har bir o‘quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’limni tashkil etish va differensial yondashuvni qo‘llash; o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hurmat, hamjihatlik va hamkorlikka asoslangan ijobiy ijtimoiy muhitni qaror toptirish; ota-onalar bilan samarali pedagogik hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, ularning inklyuziv ta’limga oid bilim va tasavvurlarini boyitishga qaratilgan ma’rifiy faoliyatni tashkil etish” [149].

Umumiy o‘rta ta’lim muassasasi o‘qituvchisining inklyuziv muhitda samarali kasbiy faoliyat olib borishi, avvalo, uning zarur pedagogik ko‘nikmalarni egallashi va ijtimoiy-pedagogik kompetensiyasini izchil rivojlantirishiga bog‘liq. Mazkur kompetensiya pedagogning turli ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar bilan ishlashi, ta’lim jarayonini moslashtirishi va barcha ishtirokchilar bilan hamkorlikni samarali tashkil etishida muhim omil hisoblanadi.

Shu asosda, ijtimoiy-pedagogik kompetensiyani o‘qituvchining inklyuziv ta’lim muhitida ijtimoiy-pedagogik vazifalarni samarali bajarishiga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma, malaka hamda shaxsiy va kasbiy fazilatlarning yaxlit majmui sifatida talqin etish mumkin. Mazkur kompetensiya pedagogning turli ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida yuzaga keladigan odatiy va murakkab ijtimoiy-pedagogik holatlarni to‘g‘ri baholashi, maqbul yechimlarni tanlashi hamda mavjud imkoniyat va resurslardan samarali foydalanish qobiliyatini namoyon etadi.

2.3-§. O‘qituvchilarning inklyuziv muhitida ishlash darajalarini baholash mezonlari

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagoglarining inklyuziv ta’lim muhitida samarali faoliyat yuritishga kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash va baholash maqsadida turli ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlari majmuasidan foydalanildi. Ular orasida quyidagi usullar alohida ahamiyat kasb etdi:

1. Pedagogik tadqiqotning empirik usullari: o‘quvchilar faoliyatining mahsullarini yoki o‘quvchilarning ma’lum bir o‘qish davridagi individual yutuqlarini qayd etish, to‘plash va baholash usuli sifatida o‘rganish; reyting usuli inklyuziv umumta’lim maktabi o‘qituvchisining shaxsiy fazilatlarini aniqlash usuli sifatida; psixologik-pedagogik test usuli; so‘rov usuli.

2. Pedagogik tadqiqotda nazariy usullar sifatida tahlil-sintez, induksiya-deduksiya, qiyoslash-tasniflash, umumlashtirish va tizimlashtirish usullaridan foydalanildi.

3. Pedagogik eksperimentning matematik va statistik usullari: modellashtirish usuli; reyting usuli; ro‘yxatga olish tartibi; o‘lchash usuli.

“Inklyuziv umumiy o‘rta ta’lim sharoitida faoliyat olib boruvchi pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik kompetensiyasi rivojlanganlik darajasini baholash ularning oliy pedagogik ta’lim jarayonida egallagan kasbiy tayyorgarligi natijalarini aniqlashning muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish diagnostik vositalar, maxsus baholash mezonlari hamda tahlil qilish usullaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning bilim olish holatini tavsiflovchi keng ko‘lamli ko‘rsatkichlarni ta’minlaydi” [105].

Birinchidan, pedagogik diagnostika o‘quv jarayonining holati va natijalarini tavsiflovchi belgilarni aniqlash va o‘rganishdan iborat bo‘lgan faoliyat turi sifatida, ushbu jarayonda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan og‘ishlarni bashorat qilish, ularning oldini olish usullarini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, o‘quv jarayonining sifatini yaxshilash uchun sozlashni ta’minlaydi [88]. Ikkinchidan, shaxsning individual psixologik fazilatlarini aniqlash sifatida psixologik diagnostikaga e’tibor qaratamiz.

“Psixologik-pedagogik diagnostika, o‘z navbatida, o‘quvchilarning ta’lim talablarini to‘g‘ri baholash, inklyuziv ta’lim muassasasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida aqliy fazilatlarni rivojlantirishga imkon beradigan texnikalar to‘plami yordamida ijtimoiy-pedagogik kompetensiyaning tarkibiy qismlarining shakllanish darajasini aniqlashni qamrab oladi” [88]. Biz diagnostika jarayonini talabalarning kasbiy tayyorgarligi darajasini aniqlash, ularning o‘tmish va hozirgi holati haqidagi ma’lumotlarni to‘plash, tizimli ravishda o‘rganish hamda o‘zaro taqqoslash asosida tashkil etamiz. Bizning fikrimizcha, pedagogik va psixologik diagnostika bir-biri bilan uzviy bog‘langan, yaxlit tizim sifatida ishlaydigan va o‘zaro mustahkamlashtiruvchi jarayonlar majmuini tashkil etadi.

“Inklyuziv ta’lim muhitida faoliyat yuritayotgan umumiy ta’lim muassasasi o‘qituvchilarining ijtimoiy-pedagogik kompetensiyasini diagnostika qilish bilan bog‘liq muammoni hal etishda biz o‘z oldimizga ushbu kompetensiyaning kognitiv, faoliyatga doir hamda shaxsiy-kasbiy tarkibiy qismlarini har tomonlama chuqur o‘rganishga xizmat qiladigan mos va samarali metodlarni tanlashni maqsad qilib qo‘ydik. Validlik (ingliz tilidan valid – haqiqiy, kuchga ega, mos) metodologiyaning murakkab xarakteristikasi bo‘lib, u o‘rganilayotgan hodisalarning ko‘lami haqidagi ma’lumotlarni, shuningdek tadqiqot jarayonining reprezentativlik darajasini aks ettiradi” [158].

Bizning yondashuvimizda pedagogik diagnostika bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining umumiy ta’lim muassasasidagi inklyuziv ta’lim sharoitida kasbiy faoliyatga tayyorgarligini aniqlashga qaratilgan yaxlit ilmiy-uslubiy jarayon sifatida qaraladi. U har bir talaba va guruhning o‘quv materiallarini o‘zlashtirish holatini baholash, bilim, ko‘nikma va malakalar rivojlanish darajasini aniqlash, diagnostik natijalarni tizimli qayta ishlash va tahlil qilishni qamrab oladi. Shuningdek, mazkur jarayon ta’lim samaradorligi hamda oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchilari tomonidan tashkil etilgan pedagogik faoliyat natijadorligi haqida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini beradi [45; 126]. Pedagogik diagnostika quyidagi usullarni qamrab oladi: didaktik diagnostika, nazorat, tekshirish va baholash.

Didaktik diagnostikadan bilim, ko‘nikma va malakalarni xolisona baholash, bilimlardagi xato va kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash, o‘quvchilarning ta’lim yutuqlarining ko‘lami, darajasi va sifatini aniqlash maqsadida qo‘llanildi. U bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish, tekshirish va baholashni ta’minladi. Diagnostikaning ishonchliligi rejalashtirish, tizimlilik, xolislik, ochiqlik va oshkoralik, o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, talabalarning o‘qish muvaffaqiyatini tabaqalashtirilgan baholash tamoyillari bilan ta’minlandi.

Tekshiruv o‘quv jarayonining har bir bosqichida, uning oldingi, joriy, modulli va yakuniy turlari bo‘yicha o‘tkazildi. Bo‘lajak inklyuziv boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining erishgan yutuqlari darajasi og‘zaki so‘rov, yozma nazorat ishlari va test sinovlari orqali aniqlandi. Tekshiruvni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra, muayyan o‘quv fani bo‘yicha asosiy bilimlarni o‘zlashtirish darajasiga ko‘ra frontal, guruhli, individual, kombinasiyalangan nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish shakllari qo‘llanildi.

“Umumta’lim muassasalarida faoliyat yuritishi kutilayotgan bo‘lajak inklyuziv ta’lim o‘qituvchilarining o‘quv-kognitiv faoliyatini sinovdan o‘tkazish natijalari ularning muvaffaqiyat darajasini baholash jarayonida aniq ko‘rsatkichlar tizimi asosida ifodalandi. Ushbu ko‘rsatkichlar o‘quvchilarning egallagan ob’ektiv bilimlari, shakllangan qobiliyatlari hamda amaliy ko‘nikmalarini kompleks tarzda aks ettiradi” [45].

Talabalarning o‘quv yutuqlarini aniqlashda quyidagilar hisobga olinadi:

– bilim sifatining xarakteristikalari: ifodaning to‘g‘riligi, dastur bilimlarining to‘liqligi, bilimlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni tushunish chuqurligi, bilimlarni qo‘llash usullarini o‘rnatishning moslashuvchanligi va boshqalar;

– darajalar, xususan: bilimlarni takror ishlab chiqarish (parchalangan, modellashtirilgan, ijodiy, asoslangan, mantiqiy va boshqalar), aqliy operasiyalarni o‘zlashtirish (tahlil, sintez, taqqoslash, abstraksiya, umumlashtirish va boshqalar);

– qamrovi – o‘quv fanini o‘zlashtirish maqsadiga muvofiqligi;

– talaba ushbu fanni o‘zlashtirgandan so‘ng egallaydigan kompetensiyalar ro‘yxati.

Baholash talabalarning o‘zlashtirish darajasi va ta’lim faoliyati samaradorligini aks ettiruvchi asosiy mezonlardan biri bo‘lib, uning natijalari oliy pedagogik ta’lim muassasalarida amalda bo‘lgan baholash mezonlari asosida tegishli ball ko‘rsatkichlari bilan belgilanadi. Ushbu tizim, ya’ni 100 ballik kredit-modul asosidagi baholash mexanizmi, shaffofligi bilan ajralib turadi, chunki u ta’lim jarayonini uzluksiz monitoring qilish va baholash imkonini beradi, shuningdek, keyinchalik milliy baholash mezonlariga moslashtiriladi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarni inklyuziv ta’lim sharoitida samarali kasbiy faoliyatga tayyorlashda bilimlarni baholash tizimini takomillashtirish ijtimoiy-pedagogik kompetensiyaning shakllanganlik darajasini aniqlash bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshiriladi. Shu asosda ta’lim natijalarini aniqlash va tahlil qilishning yagona metodologik yondashuvi ishlab chiqildi (2.1-jadval). Mazkur yondashuv pedagogik fanlar bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni aniqlash hamda ta’lim oluvchilarning tayyorgarlik darajasini baholash mezoni sifatida qo‘llanildi (A.1–A.6-ilovalar).

2.1-jadval

O‘qituvchilarning ta’lim yutuqlari darajalari

Darajalari	**Baholash mezonlari**	**Milliy miqyosda baholash**	**Reyting ballari**
Boshlang‘ich	O‘qituvchilarning javobi o‘rganilayotgan mavzuning boshlang‘ich, bo‘lak, dastlabki fikrlari bilan oldindan belgilanadi	qoniqarsiz	1-34
			35-59
O‘rtacha	O‘qituvchi asosiy materialni takrorlaydi, u modelga muvofiq vazifalarni hal qila oladi, o‘quv faoliyatining elementar ko‘nikmalariga ega.	qoniqarli	60-69
			70-74
Yetarli	O‘qituvchi tushunchalar, hodisalar, qonuniyatlar va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlarning muhim belgilarini o‘zlashtirdi va bilimlarni standart vaziyatlarda mustaqil qo‘llaydi, aqliy operasiyalarga ega, xulosa chiqarish va xatolarni tuzatishni biladi. O‘qituvchining javobi to‘liq, to‘g‘ri va mantiqiy, garchi o‘ziga xos	yaxshi	75-84
			85-89

	mulohazalar bo‘lmasa-da, asosli. U o‘quv faoliyatining asosiy turlarini mustaqil ravishda amalga oshirishga qodir		
Yuqori	O‘quvchining bilimi chuqur, mustahkam, umumlashtirilgan, tizimli bo‘ladi. U bilimlarni ijodiy qo‘llashni biladi, uning o‘quv faoliyati turli xil hayotiy vaziyatlar, hodisalar va faktlarni mustaqil baholash, shaxsiy pozitsiyani aniqlash va himoya qilish qobiliyati bilan ajralib turadigan tadqiqot xarakteriga ega.	mukammal	90-100

Umumiy ta’lim muassasasining inklyuziv muhitida ishlaydigan bo‘lajak o‘qituvchilarining ijtimoiy-pedagogik kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan eksperimental mashg‘ulotlarni joriy etish sifatini aniqlash uchun kontekstli ta’limdan foydalanish va o‘quv natijalarini fanlarni o‘qitishning an’anaviy usullari bilan taqqoslashda matematik statistika usullari, jumladan, o‘rtacha arifmetikadan foydalanildi.

“Umumta’lim muassasasida bo‘lajak inklyuziv boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy-pedagogik kompetensiya darajasini, xususan, bilim, ko‘nikma va malakalarni (kognitiv kompetensiyani) didaktik diagnostika qilishning eng keng tarqalgan usullari quyidagilardir: og‘zaki (ma’ruza, xabar, suhbat, o‘qish va hokazo) va yozma (nazorat ishi, pedagogik diktant, insho, kurs yoki diplom ishi) nazorat, test, amaliy (ishbilarmon o‘yinlar, mashqlar bajarish, laboratoriya ishlari va boshqalar), grafik (sxemalar, chizmalar, jadvallar tuzish) tekshirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘zini o‘zi baholash” [48].

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining inklyuziv ta’lim sharoitidagi ijtimoiy-pedagogik kompetensiyasini aniqlashda psixologik-pedagogik diagnostika usullaridan foydalanildi. Mazkur diagnostika metodikasi ilmiy yondashuvlar va mualliflik ishlanmalari asosida ishlab chiqilib, bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatga qiziqishi hamda kompetensiyasining shakllanganlik darajasini aniqlashga yo‘naltirildi. Shu maqsadda “Ijtimoiy-pedagogik kompetensiya darajasini aniqlash so‘rovnomasi”dan foydalanilib, respondentlarning inklyuziv ta’lim sharoitida kasbiy faoliyatga tayyorgarligi baholandi.

Anketa so‘rovnoma turlaridan biri sifatida foydalanilgan bo‘lib, unda respondentning o‘zi savollarga javob berish uchun maxsus shaklni to‘ldirishini talab qildi. “Anketa savollariga berilgan javoblar umumiy pedagogik hamda ijtimoiy-pedagogik bilimlar (kognitiv kompetensiya) va metodik qobiliyat hamda amaliy ko‘nikmalar (funksional kompetensiya) holatini keng qamrovda aks ettirdi. O‘qituvchilar, xususan, “Ijtimoiy-pedagogik kompetensiya” tushunchasining mazmun-mohiyati, uning ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyati, shuningdek

ijtimoiy-pedagogik kompetensiyaning asosiy yo‘nalishlari, tarkibiy qismlari hamda amaliy qo‘llanish xususiyatlari haqida o‘z fikr-mulohazalarini bayon qildilar” [97].

Test o‘qituvchilarining bilim olish natijalarini tekshirish va baholash vositalaridan biri hisoblanadi. Sinflar uchun test topshiriqlarini yaratishda ularga qo‘yiladigan talablarga amal qilingan, masalan: testlar mazmuni o‘quv fanining ish dasturida belgilangan bilimlar hajmiga mos kelishi, ya’ni ular reprezentativ va haqiqiy bo‘lganligi; har bir test topshirig‘ida faqat bitta fikr bo‘lib, sodda gaplardan foydalanilgan. Ta’lim muassasasining o‘qituvchilarining kognitiv kompetensiyasini aniqlash uchun biz tomonidan ishlab chiqilgan yakuniy testlar bloki ijtimoiy-inklyuziv o‘quv materialini o‘zlashtirish sifatini aniqlash imkonini berdi. Ya’ni, test sinovlari jarayonida talabalar belgilangan ballar bo‘yicha (adekvat - 0 dan 5 ballgacha; o‘rtacha - 6 dan 8 ballgacha; yuqori - 9 dan 10 ballgacha) kompetensiyalarning shakllanish darajasini belgilovchi yakuniy baholarni oldilar [360].

Ijtimoiy-pedagogik kompetensiya ko‘rsatkichlarini diagnostika qilish va uning shakllanish darajasini aniqlash uchun tadqiqotimiz vazifalariga muvofiq moslashtirilgan usullarni tanladik (2.2-jadval).

2.2-jadval

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining inklyuziv muhitda ishlash bo‘yicha ijtimoiy-pedagogik kompetensiya tarkibiy qismlari ko‘rsatkichlarini shakllantirish holatini o‘rganishning diagnostik xaritasi

Ijtimoiy-pedagogik kompetensiyaning tarkibiy qismlari	Ijtimoiy-pedagogik kompetensiyani shakllantirish ko‘rsatkichlari	Usullari	
Kognitiv	Kasbiy bilimlarni o‘zlashtirish	O‘qituvchlar muvaffaqiyatini tahlil qilish, “Tugallanmagan gap” usuli, o‘quv hujjatlarini tahlil qilish usuli, me’yoriy usullar (insholar, mini ishlar).	
Faoliyat	Amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish	Pedagogik amaliyot natijalariga asoslangan ekspert baholash usuli, kiritilgan kuzatish usuli, ijtimoiy-pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish usuli, mualliflik so‘rovnomasi.	

Shaxsiy professional	Motivasiya. Kasbiy yo‘nalish, mas’uliyat, mustaqillik, harakatchanlik, o‘z faoliyatini rejalashtirish qobiliyati	“Muvaffaqiyatga erishish motivasiyasi uchun shaxs diagnostikasi” metodikasi, ilmiy tadqiqot ishlari natijalari, olimpiadalar, ilmiy-amaliy konferensiyalarda qatnashish natijalari bo‘yicha ekspert baholash usuli.	
	Hissiylik	V. Boyko bo‘yicha empatik qobiliyatlarni aniqlash usuli, “Yaxshilik shkalasi” usuli (Kembell shkalasi bo‘yicha).	
	Qadriyatlar	“Qiymat yo‘nalishlari” metodologiyasi (M.Rokich).	

Tadqiqot doirasida yaratilgan diagnostik vositalar bo‘lajak inklyuziv ta’lim o‘qituvchilarining ijtimoiy-pedagogik kompetensiyasini belgilovchi kognitiv, faoliyatga oid va shaxsiy-kasbiy komponentlarning rivojlanganlik holatini aniqlash hamda ularni mezonlar asosida baholashga yo‘naltirildi.

“Tugallanmagan jumlalar” metodologiyasi

Maqsad: ushbu kasbni egallash istagi va inklyuziv muhitda ishlash qobiliyatida namoyon bo‘ladigan umumiy ta’lim muassasasi o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi foizini aniqlash.

Qo‘llanma. O‘qituvchilar fikrni davom ettirishga va tugallanmagan jumlalarni tugatishga, ularning bayonotlarini asoslashga taklif qilinadi. Shu tariqa, talabalar ijtimoiy-pedagogik kompetensiyaning tarkibiy jihatlari qay darajada rivojlanganini hamda mazkur kompetensiyani amaliy faoliyatda qo‘llash imkoniyatlarini anglab yetadilar. Har bir jumla uchun javoblar tizimini belgilaydigan xarakteristika olinadi: to‘liq – 3 ball, to‘liqsiz – 2 ball, qisman-1 ball, keyin natijalar umumlashtiriladi. Olinishi mumkin ball maksimal soni 30.

Shaxsiy qadriyatlarni (insholar, mini ishlar) tashxislash uchun hikoya tadqiqot usullari (ingliz va fransuz hikoyalari) qo‘llaniladi.

Maqsad: ijtimoiy-pedagogik qadriyatlarning shakllanish darajasini aniqlash, o‘zini tavsiflash va talqin qilish, qadriyatlarni o‘z qadriyatlari sifatida anglash.

Qiymat yo‘nalishlarini o‘rganish metodologiyasi (M.Rokich) [255] muallif ajratgan qiymatlarni tanlash tartibiga asoslanadi: qadriyatlar-maqsadlar (terminal) va qadriyatlar-vositalar (instrumental). U qadriyatlarni-maqsadlarni hayotiy ma’noga ega, shuning uchun shaxsning intilishlari ular bilan bog‘liq degan ishonch sifatida tushundi. Instrumental qadriyatlar har qanday vaziyatda ushbu harakat usullari yoki shaxsiy xususiyatlarining maqsadga muvofiqligi yoki ustuvorligiga ishonish sifatida qaraladi.

Empatik qobiliyat darajasini tashxislash metodologiyasi (V.Boyko)

Maqsad: empatiyaning namoyon bo‘lishini o‘rganish - insonning boshqa kishilarning muammolariga hamdard bo‘lish qobiliyati.

Tadqiqot ishtirokchilari uchun ko‘rsatmalar:

Ko‘rsatilgan savollarga (+) yoki (-) javob bering.

Umumiy ball 0 dan 36 ballgacha o‘zgarishi mumkin:

30 va undan yuqori ball - empatiyaning juda yuqori darajasi;

29-22 ball - o‘rtacha daraja;

21-15 ball - past daraja;

14 balldan kam - juda past daraja.

T.Yeslerning muvaffaqiyatga erishish motivasiyasi uchun shaxs diagnostikasi usuli

Metodologiya 41 ta holatni o‘z ichiga oladi, ularning har biriga "ha" yoki "yo‘q" deb javob berish mumkin. Baholash natijalariga ko‘ra biz muvaffaqiyat motivasiyasining quyidagi darajalarini olamiz:

–1 dan 10 ballgacha - muvaffaqiyatga motivasiyaning past darajasi;

– 11 dan 16 ballgacha - muvaffaqiyat uchun motivasiyaning o‘rtacha darajasi;

– 17 dan 20 ballgacha - muvaffaqiyat uchun motivasiyaning o‘rtacha yuqori darajasi;

– 21 balldan ortiq - muvaffaqiyat uchun motivasiyaning juda yuqori darajasi.

Yaxshilik tashxisi (Kampbell shkalasi bo‘yicha)

Ko‘rsatma

Anketadagi juft gaplarni diqqat bilan o‘qing. Agar siz juftlikning har qanday hukmi to‘g‘ri va o‘zingiz hamda boshqa odamlar haqidagi tasavvuringizga mos keladi deb hisoblasangiz, javoblar varag‘ida hukm raqamiga qarama-qarshi bo‘lib, taklif qilingan o‘lchovdan foydalanib, u bilan roziligingizni belgilang. Agar sizda biron bir savol bo‘lsa, testni boshlashdan oldin ularni so‘rang.

Natijalarni qayta ishlash va talqin qilish:

Agar mavzuning javobi kalitga mos kelsa, 1 ball beriladi. Olingan ballar umumlashtiriladi va shu bilan boshqalarga nisbatan xayrixohlik ko‘rsatkichini aniqlaydi:

• 4 ball yoki undan kam - past ko‘rsatkich;

• 4-8 ball – o‘rtacha ko‘rsatkich;

• 8 ball va undan yuqori - yuqori ko‘rsatkich.

Shunday qilib, pedagogik eksperimentning aniqlovchi bosqichida ijtimoiy-pedagogik kompetensiya darajasini aniqlash hamda uni shakllantirish jarayonida olingan natijalarni chuqur tahlil qilish maqsadida biz uning tarkibiy qismlariga mos ravishda tanlab olingan qo‘shimcha usul va metodlar majmuasini ishlab chiqdik. Kognitiv-faoliyat komponentini o‘rganish jarayonida esa biz didaktik diagnostika vositalaridan keng foydalanishni maqsad qildik. Jumladan, ushbu jarayonda og‘zaki so‘rovlar, yozma nazorat ishlari, o‘z-o‘zini baholash va o‘z-o‘zini nazorat qilish usullari, test sinovlari hamda imtihonlar kabi an’anaviy va zamonaviy baholash shakllari qo‘llanildi.

III-BOB. UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARI O‘QITUVChILARINING INKLYuZIV MADANIYaTINI RIVOJLANTIRIShNING KLASTER MODELI

3.1-§. O‘qituvchilarining inklyuziv madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik hamkorlik modeli

Zamonaviy ta’limda inklyuziv madaniyat barcha o‘quvchilar, jumladan, nogironligi bo‘lgan va alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratishni nazarda tutadi. Bu jarayonda o‘qituvchining ijtimoiy-pedagogik hamkorlikka asoslangan faoliyati muhim ahamiyatga ega.

Inklyuziv madaniyatning mohiyati. Inklyuziv madaniyat maktab muhitida tenglik, hurmat, bag‘rikenglik va hamkorlikka asoslangan munosabatlarni shakllantirishni anglatadi. U quyidagi tamoyillarni o‘z ichiga oladi:

• har bir shaxsning insoniy qadr-qimmatini tan olish va hurmat qilish;

• individual farqlarni muammo emas, balki ijtimoiy va ta’limiy boylik sifatida qabul qilish;

• o‘zaro hamkorlik, qo‘llab-quvvatlash va ishonchga asoslangan inklyuziv muhitni shakllantirish.

Ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari o‘quvchilarning individual ta’limiy ehtiyojlarini o‘rganish, ularga mos pedagogik muhitni shakllantirish, o‘qituvchiga metodik, psixologik va tashkiliy ko‘mak ko‘rsatish, jamiyatda inklyuzivlik tamoyillarini qaror toptirish hamda ta’lim jarayonida ijtimoiy sheriklikni muntazam rivojlantirishdan iborat.

Hamkorlik strategiyalari

3.1. Tashkiliy-institutsional strategiya doirasida amalga oshiriladigan vazifalar:

Muassasada alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun zamonaviy “inklyuziv guruhlar” hamda ixtisoslashtirilgan “inklyuziv markazlar” faoliyatini yo‘lga qo‘yish. Shu bilan birga, har bir tarbiyalanuvchining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, uning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan shaxsiy rivojlanish dasturlarini

(IRD) amaliyotga joriy etish. Mazkur jarayonda ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish maqsadida mahalla fuqarolar yig‘inlari, nodavlat nonprofit tashkilotlar (NNT) hamda sog‘liqni saqlash tizimi muassasalari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik memorandumlarini imzolash va birgalikda tizimli ishlarni tashkil etish.

Pedagogik-metodik strategiya: “Umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’limni samarali rivojlantirish uchun pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini muntazam takomillashtirishga yo‘naltirilgan malaka oshirish kurslari, amaliy seminarlar, treninglar va workshoplarni izchil yo‘lga qo‘yish. Pedagoglar o‘rtasida tajriba almashish va o‘zaro kasbiy ko‘makni kuchaytirish maqsadida hamkorlikda o‘rganish (peer-learning) mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, ta’lim jarayoniga zamonaviy hamda xalqaro amaliyotda samaradorligi tasdiqlangan pedagogik yondashuv va texnologiyalarni maqsadli ravishda tatbiq etish” [184].

Ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish strategiyasi: “Ta’lim jarayonida har bir o‘quvchiga uning ijtimoiy mavqei, jismoniy imkoniyati yoki individual xususiyatlaridan qat’i nazar, teng munosabatda bo‘lish, o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va hamdardlik tamoyillarini qaror toptirish. Shu asosda ta’lim muassasasida inklyuziv muhitning umumiy me’yorlarini belgilovchi “Inklyuziv muhit kodeksi”ni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, shuningdek, o‘quvchilarning huquqlari, sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishga yo‘naltirilgan huquqiy-ma’rifiy tadbirlarni muntazam tashkil etish” [186].

Axborot-kommunikatsiya strategiyasi: Inklyuziv ta’lim tizimidagi ijobiy o‘zgarishlar va erishilgan muvaffaqiyatlarni ommaviy axborot vositalari hamda yetakchi iijtimoiy tarmoqlar orqali keng jamoatchilikka namoyish etish. Ota-onalar xabardorligini oshirish maqsadida maxsus uslubiy qo‘llanmalar, infografik bukletlar tayyorlash hamda zamonaviy multimedia jihozlari yordamida yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini boyituvchi interaktiv ma’ruzalar tashkil etish.

“Yuqorida keltirilgan ilmiy-nazariy qarashlar hamda amaliy yondashuvlardan kelib chiqib, ijtimoiy-pedagogik hamkorlik asosida bir qator muhim natijalarga erishish mumkin. Avvalo, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilarida inklyuziv madaniyat, hamdardlik,

bag‘rikenglik va ijtimoiy mas’uliyat kabi kasbiy hamda shaxsiy fazilatlar izchil rivojlanadi. Shu bilan birga, pedagoglarning inklyuziv ta’lim muhitida samarali faoliyat yuritish, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar bilan individual yondashuv asosida ishlash, ota-onalar va mahalla hamjamiyati bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalari takomillashadi. Ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning tizimli yo‘lga qo‘yilishi natijasida jamiyatda inklyuziv qadriyatlar, teng imkoniyatlar va ijtimoiy adolat tamoyillariga nisbatan hurmat va ijobiy munosabat kuchayadi” [186].

Zamonaviy o‘qituvchining kasbiy portreti yoki professiogrammasi pedagogik faoliyatning mazmuni, uni amalga oshirish shartlari, kasbiy vazifalarning murakkabligi hamda pedagog shaxsiga xos bo‘lishi lozim bo‘lgan individual-psixologik sifat va qobiliyatlarni o‘zaro bog‘liq holda aks ettiruvchi tizimli tavsif sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur pedagogik profil o‘qituvchi shaxsiga nisbatan jamiyat va ta’lim tizimi tomonidan qo‘yiladigan fundamental talablar majmuasini qamrab oladi. Bular qatoriga zamonaviy pedagogning transformatsiyalashib borayotgan ta’lim muhitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan fundamental bilimlar bazasi, ilg‘or metodik ko‘nikmalari va raqamli kompetensiyalari kiradi.

Zamonaviy ta’lim paradigmasida inklyuziv muhit barpo etish va unda samarali faoliyat ko‘rsatish o‘qituvchidan alohida professional kompetensiyalarni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat olib boruvchi pedagog, xususan, inklyuziv ta’lim yo‘nalishida ishlaydigan mutaxassis uchun zarur bo‘lgan kasbiy kompetensiyalarni belgilash va ularni tizimli ravishda guruhlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotimizda inklyuziv ta’lim sharoitida faoliyat yurituvchi o‘qituvchining funksional-nazariy modelini ishlab chiqishda uning kasbiy faoliyatini belgilovchi uchta asosiy tarkibiy komponent tayanch mezon sifatida qabul qilindi:

– fundamental bilim va amaliy ko‘nikmalar uyg‘unligi: pedagogning ta’lim-tarbiya jarayonini moslashtirish va takomillashtirish salohiyatini belgilaydi;

– umuminsoniy va kasbiy-shaxsiy fazilatlar: empatiya, bag‘rikenglik, tolerantlik va individual yondashuvni qamrab oladi.

– kasbiy determinatsiyalangan fazilatlar: o‘qituvchining murakkab pedagogik va integratsiyalashgan vazifalarni muvaffaqiyatli va kreativ hal etishini kafolatlovchi individual-psixologik xususiyatlari.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari pedagoglarida inklyuziv madaniyatni rivojlantirish modeli yaxlit va tizimli yondashuvga asoslanadi. Mazkur model pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, shuningdek, zamonaviy ta’lim muhitida inklyuziv yondashuvni samarali amalga oshirishga qo‘yiladigan talablarni o‘zida mujassamlashtiradi. U ta’lim jarayonida inklyuziv muhitni shakllantirishning mazmuni, tashkiliy mexanizmlari, samarali pedagogik usullari va amaliy vositalarini oldindan belgilash imkonini beradi. Shu bilan birga, model o‘qituvchilarni turli ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar bilan samarali ishlashga tayyorlash, pedagogik ta’lim dasturlarini takomillashtirish hamda malaka oshirish tizimini zamonaviy talablar asosida yangilash uchun metodologik asos vazifasini bajaradi.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun hujjatlariga muvofiq, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalar o‘quv jarayonida doimiy yoki vaqtinchalik qo‘shimcha ko‘makka muhtoj ta’lim oluvchilar sifatida qaraladi. Bu yondashuv inklyuziv ta’limni har bir o‘quvchining individual ehtiyojlarini hisobga oluvchi yaxlit ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida talqin etish imkonini beradi.

Shu bois inklyuziv ta’lim sharoitida faoliyat yurituvchi pedagogning kasbiy modelida “inson – inson” tizimiga xos kommunikativ, empatik va ijtimoiy-pedagogik kompetensiyalar muhim o‘rin tutishi lozim. Zamonaviy o‘qituvchi pedagogik vazifalar bilan bir qatorda, maxsus pedagogik, psixologik, ijtimoiy va reabilitatsion ko‘mak elementlarini ham ta’lim jarayoniga integratsiya qila olishi zarur.

Traditsion kasbiy tavsifnomalar (professionalogramma) tarkibida, odatda, quyidagi tizimli tarkibiy qismlar aks ettiriladi:

1. Mutaxassis faoliyatining ustuvor (dominant) yo‘nalishlari va funksional turlari.

2. Kasbiy majburiyatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni kafolatlovchi yetakchi shaxsiy va professional sifatlar.

3. Mehnat faoliyatining samaradorligiga to‘sqinlik qiluvchi va kasbiy yaroqsizlikni belgilovchi individual xususiyatlar.

4. Mutaxassisning amaliy faoliyati qamrab oladigan asosiy sohalar va yo‘nalishlar.

5. Mazkur kasbiy sohaning genezisi, uning shakllanishi va tarixiy rivojlanish bosqichlari.

6. Shaxsning individual-psixologik tipologiyasiga mos keluvchi turdosh kasblar guruhlari.

7. Ushbu yo‘nalish bo‘yicha ixtisoslashgan kadrlar tayyorlovchi oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarining reytingi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, bizning tadqiqotimiz doirasida an’anaviy qoliplarga asoslangan klassik professionalogrammani loyihalash asosiy maqsad hisoblanmaydi. Aksincha, biz bo‘lajak pedagoglarning inklyuziv madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish modelining fundamental asoslarini yaratishga e’tibor qaratganmiz. Shu sababli, mazkur tarkibiy tuzilma o‘zgaruvchan (variativ), prognozlashtiruvchi va gipotetik xarakterga ega bo‘lib, kelgusida empirik tadqiqotlar vositasida yanada chuqurlashtirilishi va modifikatsiyalanishini talab etadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi pedagoglarida inklyuziv madaniyatni rivojlantirish zamonaviy ta’lim talablari asosida quyidagi kompetensiyalarning shakllanganligini nazarda tutadi:

samarali kommunikativ hamkorlik: turli individual ehtiyoj va imkoniyatlarga ega o‘quvchilar hamda ularning ota-onalari bilan ochiq, konstruktiv va hurmatga asoslangan muloqotni yo‘lga qo‘yish qobiliyati;

empatiklik va ijtimoiy moslashuvchanlik: o‘quvchilarning individual xususiyatlarini anglash, ularning holatini to‘g‘ri qabul qilish, jamoada hamkorlik va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash muhitini shakllantirish ko‘nikmasi;

insonparvarlikka asoslangan pedagogik yondashuv: har bir o‘quvchining qadr-qimmati, huquqi va ta’limiy ehtiyojlarini e’tiborga olish, bag‘rikenglik, mehribonlik va xayrixohlik tamoyillariga amal qilish.

hissiy intellekt va stressga chidamlilik: pedagogik jarayonda yuzaga keladigan qiyinchiliklarda vazminlikni saqlash, shaxsiy emotsiyalarni boshqara olish hamda kasbiy etika doirasidan chiqmagan holda harakat qilish;

ijtimoiy tolerantlik: turli dunyoqarashga, jismoniy yoki intellektual imkoniyatlarga ega bo‘lgan shaxslarning intilish va qiziqishlarini to‘g‘ri qabul qilish;

konfliktologik kompetensiya: ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish, kelishmovchiliklarni konstruktiv tarzda bartaraf etish va jamoada sog‘lom muhitni ta’minlash;

kommunikativ mahorat: axborotni tinglovchiga aniq va tushunarli yetkazish, o‘zgalar fikrini inobatga olgan holda, pedagogik ta’sir doirasida odamlarni ishontira olish qobiliyati;

kasbiy mas’uliyat: o‘z faoliyatiga nisbatan yuqori mas’uliyat, intizomlilik, aniqlik hamda pedagogik psixologiya asoslarini mukammal bilish.

Ish muhitining o‘ziga xosligi. Inklyuzivlikni keng targ‘ib qiluvchi umumta’lim muassasasi o‘qituvchisi har kuni rang-barang o‘quvchilar muhitida faoliyat olib boradi. Pedagogik va axloqiy mas’uliyatni chuqur his qilgan holda, o‘qituvchi har bir o‘quvchining psixologik hamda jismoniy holatini muntazam kuzatib, uning ehtiyojlari va rivojlanishidagi o‘zgarishlarni tizimli ravishda tahlil qilib boradi. Ushbu tahlillar asosida sinfdagi har bir o‘quvchining manfaati uchun eng to‘g‘ri pedagogik yechimlarni hayotga tatbiq etadi.

Dominant faoliyat. Pedagogning inklyuziv madaniyati ta’lim jarayonida har bir o‘quvchining individual imkoniyat va ehtiyojlarini hisobga olgan holda o‘qitish, tarbiyalash, shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash hamda ijtimoiy muhitga moslashuvini ta’minlashga yo‘naltirilgan kompleks kasbiy faoliyatni anglatadi. Uning asosiy mazmuni turli rivojlanish xususiyatlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hurmat, hamkorlik, bag‘rikenglik va teng imkoniyatlarga asoslangan sog‘lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishdan iborat.

1. Professional-pedagogik yo‘nalish. Mazkur yo‘nalish pedagogning ta’lim jarayonini o‘quvchilarning individual xususiyatlari, ehtiyojlari va

imkoniyatlariga mos ravishda loyihalash, tashkil etish hamda natijadorligini tahlil qilish kompetensiyasini ifodalaydi. Bunda o‘qituvchi har bir ta’lim oluvchining rivojlanish darajasini inobatga olib, ta’lim mazmuni va usullarini moslashtiradi, o‘quv faoliyatiga qiziqishini rag‘batlantiradi hamda o‘zlashtirish jarayonini muntazam kuzatib, zarur hollarda tegishli pedagogik tuzatishlarni amalga oshiradi.

2. Ijtimoiy-himoyalovchi yondashuv. Maxsus ehtiyojli bolalarni jamiyatga moslashtirish, ularga ijtimoiy-reabilitatsiya xizmatini ko‘rsatish, oilalarga metodik maslahatlar berish va jamiyatda inklyuzivlik g‘oyalarini targ‘ib qilish (ijtimoiy xabardorlikni oshirish) orqali amalga oshiriladi.

3. Korreksion-rivojlantiruvchi faoliyat. Bolalarda uchraydigan ikkilamchi aqliy, psixologik yoki jismoniy kamchiliklarni bartaraf etish yoki ularning salbiy ta’sirini kamaytirishga qaratilgan. Bu jarayon o‘quvchining xulq-atvori, hissiy-irodaviy va kognitiv (bilish) sohalaridagi nuqsonlarni tizimli tuzatishni nazarda tutadi.

4. Integratsiyalashgan kommunikativ hamkorlik. Alohida ta’lim ehtiyojlari mavjud bo‘lgan o‘quvchilar, ularning ota-onalari hamda ta’lim muassasasining psixolog, logoped, defektolog kabi mutaxassislari o‘rtasida muntazam, ochiq va samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, yagona pedagogik yondashuv asosida o‘quvchini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini shakllantirish. Ushbu multidissiplinar yondashuv ta’lim oluvchini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

5. Konfliktologik kompetensiyaga egalik. Sinf jamoasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan har qanday ijtimoiy-pedagogik ziddiyatlar, tushunmovchiliklar va nizoli vaziyatlarni chuqur tahlil qilish, ularning oldini olish hamda muammolarni konstruktiv (ijobiy) tarzda hal etish ko‘nikmasidir.

6. Animatsion-motivatsion faoliyat. Imkoniyati cheklangan o‘quvchining ichki salohiyatini uyg‘otish, uni faol ijtimoiy munosabatlarga kirishishga undash va tengdoshlari hamda jamiyat bilan uyg‘un aloqalarini qayta tiklashga qaratilgan rag‘batlantiruvchi harakatlardir.

7. Diagnostik va prognostik tahlil. O‘quvchilarning qiziqishlari, real ehtiyojlari, yashirin imkoniyatlari hamda shaxsiy rivojlanish dinamikasini aniqlashga qaratilgan diagnostik tadbirlar majmuidir. Olingan natijalar asosida kelgusi ta’lim strategiyalari loyihalashtiriladi va ta’lim muassasasi xodimlariga axborot-maslahat yordami ko‘rsatiladi.

8. Terapevtik-pedagogik ko‘mak. Sog‘lig‘ida muammosi bo‘lgan yoki psixologik qo‘llab-quvvatlashga muhtoj yosh o‘quvchilarga terapevtik pedagogika va korreksion metodlar yordamida ma’naviy hamda psixologik jihatdan yordam berish jarayonidir.

9. Tashkiliy-boshqaruvchanlik jihati. Ta’lim muassasasida ijtimoiy-madaniy va ma’rifiy yo‘nalishdagi tashabbuslarni muntazam yo‘lga qo‘yish, jumladan, xayriya tadbirlari, inklyuziv festivallar, mavzuli haftaliklar hamda maxsus oyliklarni tashkil etish orqali barcha ishtirokchilarning faol ijtimoiy hamkorligini ta’minlash. Shuningdek, bola va kattalarning turli ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarda faol ishtirok etishini tashabbuskor sifatida ta’minlash.

Inklyuziv madaniyat — jamiyatdagi har bir shaxsning individual xususiyatlari va farqlarini tabiiy qabul qilish, ijtimoiy tenglik hamda bag‘rikenglik (tolerantlik) tamoyillarini nafaqat anglash, balki ularni kundalik hayotiy va kasbiy faoliyatga integratsiya qila olish layoqatidir.

Bugungi ta’lim amaliyotida pedagoglarning inklyuziv madaniyatga ega bo‘lishi ularning kasbiy tayyorgarligi, insonparvarlik tamoyillariga sodiqligi hamda barcha ta’lim oluvchilarga teng va hurmat asosida yondasha olish salohiyatini ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlardan biridir. Mazkur madaniyatni o‘qituvchi shaxsida muvaffaqiyatli rivojlantirishning tizimli asoslarini o‘rganish jarayonida uning ustuvor (dominant) jihatlarini shartli ravishda uchta asosiy turga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. Axloqiy (qadriyatli) dominant tur

Bu tur o‘qituvchining shaxsiy qadriyatlari, insonparvarlik va bag‘rikenglik prinsiplariga asoslanadi.

Asosiy mazmun yo‘nalishlari:

Inson qadrini anglash va har bir bolaga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;

Bag‘rikenglik, hamdardlik va to‘g‘ri axloqiy pozitsiyani shakllantirish;

Ta’lim muhitida tenglik, adolat va hurmat tamoyillarini qaror toptirish.

Bu dominant tur pedagogning shaxsiy dunyoqarashi, insoniy fazilatlari va munosabat madaniyati orqali rivojlanadi.

2. Kognitiv (bilish) dominant tur

Bu tur o‘qituvchining inklyuziv ta’lim haqidagi nazariy va huquqiy bilimlarini qamrab oladi.

Asosiy yo‘nalishlar:

Normativ-huquqiy bazani o‘zlashtirish: Inklyuziv ta’lim tizimini tartibga soluvchi xalqaro va milliy qonunchilik asoslarini chuqur o‘rganish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish;

Ta’lim oluvchiga individual yondashuvni ta’minlash: har bir o‘quvchining shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari, imkoniyatlari va rivojlanish sur’atlarini hisobga olgan holda qulay hamda moslashtirilgan ta’lim muhitini tashkil etish;

Kasbiy salohiyatni rivojlantirish: maxsus pedagogika, inklyuziv psixologiya va defektologiya yo‘nalishlaridagi zamonaviy ilmiy yondashuvlar, ilg‘or tajribalar hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni muntazam o‘zlashtirish va amaliy faoliyatga tatbiq etish. Bu bilimlar o‘qituvchida ilmiy-nazariy fikrlash va amaliy yondashuvni uyg‘unlashtirishga yordam beradi.

3. Amaliy-tajribaviy dominant tur

Bu tur o‘qituvchining inklyuziv muhitda amaliy faoliyatini tashkil etish malakasini rivojlantiradi.

Asosiy yo‘nalishlar:

Dars jarayonida individual yondoshuv va differensial ta’lim usullarini qo‘llash;

Interfaol metodlar va guruhli faoliyat shakllaridan foydalanish;

Bolalar va ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash;

Multidissiplinar jamoa (psixolog, logoped, defektolog) bilan hamkorlik qilish.

Bu dominant tur amaliy tajriba orqali o‘qituvchining inklyuziv kompetensiyasini mustahkamlaydi. Ushbu dominant turlar bir-biridan ajralgan holda emas, o‘zaro bog‘liq va integratsiyalangan holda faoliyat yuritishi lozim.

Yuqorida amalga oshirilgan tahlillar asosida shunday yakuniy xulosaga kelish mumkinki, pedagoglarning inklyuziv madaniyatini yuksaltirish dinamik hamda ko‘p qirrali jarayon bo‘lib hisoblanadi. Mazkur tizimning amaliy samaradorligi uning tarkibidagi qadriyatli-axloqiy (aksiologik), kognitiv-bilib olish hamda amaliy-metodik dominant komponentlarning o‘zaro uzviy va uyg‘un tarzda integratsiyalashuvi orqali taminlanadi.

Tuzatish – maxsus ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilarning individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda, ulardagi hissiy-irodaviy, kognitiv va nutqiy sohalarda kuzatiladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish hamda rivojlanish dinamikasini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan pedagogik yordam tizimidir. U ta’lim-tarbiya jarayonida individual va differensial yondashuv, maxsus korreksion vositalar hamda maqsadli dasturlarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi.

Bizning fikrimizcha, imkoniyati cheklangan va alohida ehtiyojli bolalarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish jarayoni quyidagi muhim tarkibiy qismlarni qamrab oladi:

– Korreksion-tizimli reabilitatsiya faoliyati: Bu yo‘nalish bolaning organizmidagi qisman pasaygan yoki funksional jixatdan zaiflashgan imkoniyatlarini qayta tiklashga qaratilgan.

– Sotsial-animatsion faoliyat: Mazkur yo‘nalish bolalarning hayotiy faolligi va optimizmini oshirishga xizmat qiladigan o‘ziga xos rekreatsion tadbirlar tizimidir. U alohida ta’limga muhtoj yoshlarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishga yo‘naltiradi, turli o‘yinlar, madaniy va ko‘ngilochar tadbirlar orqali ularning ijtimoiy adaptatsiyasini ta’minlaydi.

– Inklyuziv ijtimoiy ish alohida ta’limiy ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni inklyuziv muhitga moslashtirish, ularning ijtimoiy faolligi va teng huquqli ishtirokini ta’minlashga qaratilgan kompleks faoliyatdir.

Pedagog xodimlarda inklyuziv ta’lim madaniyatini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi yetakchi xususiyatlar tizimi:

1. Kasbiy kompetensiyalar: pedagogning o‘qitayotgan faniga oid nazariy va amaliy bilimlarni chuqur egallashi, ta’lim jarayonini zamonaviy hamda interfaol yondashuvlar asosida tashkil eta olishi, pedagogik faoliyatni samarali rejalashtirish va boshqarish qobiliyati, o‘quvchilar bilan konstruktiv muloqot o‘rnatishi, shuningdek, kasbiy muomala madaniyati va pedagogik-axloqiy me’yorlarga amal qilishini ifodalovchi kompetensiyalar majmuasidir.

2. Uslubiy-metodik ko‘nikmalar: Ta’lim olishda oqsashayotgan yoki o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan o‘quvchilarning intellektual va ruhiy holatini diagnostika qilish. Muammolarning tub sabablarini aniqlash orqali ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish, umumiy va korreksion-rivojlantiruvchi ta’lim dasturlarini integratsiyalash.

3. Ijtimoiy-kasbiy yo‘naltirilganlik: Inklyuziv muhit talablariga mos keladigan ijtimoiy-pedagogik strategiyalarni qo‘llash, o‘z pedagogik faoliyati va uning oqibatlari uchun to‘liq javobgarlikni bo‘yniga olish. Inklyuziv ta’limning ma’naviy-axloqiy asoslarini qaror toptirish, shuningdek, turli nostandart va murakkab vaziyatlarda o‘z xatti-harakatlarini mustaqil boshqarish hamda muvofiqlashtirish qobiliyatini rivojlantirish.

4. Shaxsiy va individual xislatlar: Hissiy barqarorlik (emotsional intellekt), yuqori tolerantlik hissi, uzoq muddatli xotira va har tomonlama kuzatuvchanlik, mustahkam iroda kabi psixologik xususiyatlar. Ulardan tashqari, insonparvarlik, altruizm (saxiylik), o‘zganing dardini his qilish (empatiya), xayrixohlik, kasbiy intizom, talabchanlik va samimiylik. Pedagogning o‘zini adolatli baholashi, yuksak ma’naviy-madaniy saviyasi, notiqlik va badiiylik san’ati, keng qamrovli bilimdonlik, chidam, sabot hamda ijodiy fikrlash (kreativlik) qobiliyati.

O‘qituvchining inklyuziv madaniyatini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladigan fazilatlar: mas’uliyatsizlik, e’tiborsizlik, xudbinlik, ta’sirchanlik, impulsivlik, shafqatsizlik, qo‘pollik, yolg‘on gapirish, murosasizlik, e’tiborsizlik, gedonizm.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilarini inklyuziv muhitga kasbiy tayyorlashning ayrim jihatlariga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar mavjud, xususan: kasbiy va ilmiy “S.Alexina” [136], kichik

maktab o‘quvchilarining gumanistik munosabatlarini shakllantirish “I.Bogdanova” [140], inklyuziv faoliyat “O.Gordiychuk” [147], pedagogik improvizasiya “G.Davidenko” [148], interfaol texnologiyalardan foydalanish “E.Ketrish” [151], badiiy vositalar yordamida o‘quvchilarni milliy tarbiyalash “S.Litvinenko” [154], kasbiy aks ettirishni shakllantirish “N.malofeen” [157], maktabda tarbiyaviy ish “T.Orusbayeva” [161], ijtimoiy-pedagogik faoliyat “O.Budnik” [143, tarbiyaviy vaziyatlarni yaratish “O.Demchenko” [55], inklyuziv ta’lim sharoitida axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish “A.Kolupayeva” [63] va boshqalar.

Tadqiqotimiz jarayonida biz kuyidagilarni umumlashtirishni joiz deb topdik.Inklyuziv ta’limning muvaffaqiyati nafaqat ta’lim siyosati yoki infratuzilmaga, balki o‘qituvchining shaxsiy fazilatlariga ham bevosita bog‘liq.

Inklyuziv madaniyat – bu nafaqat bilim yoki malaka, balki insonparvarlikka asoslangan ichki dunyoqarash, axloqiy mas’uliyat, va hamdardlik hissidir.

Shu bois, o‘qituvchida muayyan ruhiy, axloqiy va ijtimoiy fazilatlarni shakllantirish inklyuziv muhitda faoliyat yuritishning asosiy sharti hisoblanadi.

1. Axloqiy-insonparvar fazilatlar

Inklyuziv madaniyatning ildizi – inson qadrini anglash va uni hurmat qilishdan boshlanadi.

Asosiy axloqiy fazilatlar:

Bag‘rikenglik (tolerantlik) – turli imkoniyat va ehtiyojga ega bolalarni qabul qilish, ularga teng munosabatda bo‘lish qobiliyati.

Hamdardlik (empatiya) – boshqalar hissiyotini his qilish va ular holatini tushunish qobiliyati.

Insonparvarlik va adolat – har bir bolaga teng imkoniyat yaratishga intilish, farqlarni qadrlash.

Sabr-toqat va muloyimlik – o‘quvchidagi rivojlanish sur’ati past bo‘lsa ham, unga nisbatan barqaror ishonch bilan yondashish.

Bu fazilatlar o‘qituvchida ijobiy psixoemotsional muhit yaratishga va barcha bolalarga “qadrli” ekanlik hissini berishga yordam beradi.

2. Kognitiv (bilish va anglash) fazilatlar

Inklyuziv madaniyat faqat hissiyot emas – bilim va ilmiy asosga tayangan holda shakllanadi.

Kognitiv fazilatlar quyidagilarni qamrab oladi:

Inklyuziv ta’lim nazariyalarini bilish (integratsiya, differensiatsiya, universal dizayn va h.k.);

Psixologik anglash qobiliyati – bolaning individual ehtiyojlarini to‘g‘ri baholay olish;

3.Refleksiya qobiliyati – o‘z faoliyatini tahlil qilish va xulosa chiqarish;

4.Innovatsion fikrlash – yangi usullarni sinab ko‘rishga tayyorlik;

5.Multidissiplinar bilimlar – defektologiya, psixologiya, sotsiologiyadan xabardor bo‘lish.

Bunday fazilatlar o‘qituvchiga inklyuziv muhitda muammolarni tizimli hal etish imkonini beradi.

6. Kommunikativ (aloqa va muloqot) fazilatlar – inklyuziv muhitda samarali muloqot – eng muhim kompetensiyalardan biri hisoblanadi.

Asosiy kommunikativ fazilatlar: faol tinglash va samimiy muloqot – bola va ota-ona fikrini tinglashga tayyorlik; ishonchli munosabat o‘rnatish – bola o‘zini xavfsiz his qilsin; muloqotda moslashuvchanlik – turli yosh, psixologik holat yoki nutq imkoniyatiga mos so‘zlash qobiliyati; jamoaviy ishlash mahorati – psixolog, logoped, defektolog, ota-onalar bilan samarali hamkorlik.

Kommunikativ madaniyati rivojlangan o‘qituvchi inklyuziv muhitda “birlashtiruvchi markaz” vazifasini bajaradi.

7. Psixologik-irodaviy fazilatlar

Inklyuziv ta’limda ishlash juda katta sabr, ruhiy barqarorlik va ijobiy fikrlashni talab qiladi. Asosiy irodaviy fazilatlarga:

Sabot va barqarorlik – qiyin vaziyatlarda ham motivatsiyani yo‘qotmaslik; stressga chidamlilik – turli muammolarni hissiy iztirobsiz qabul qilish;ijobiy motivatsiya – har bir kichik yutuqni katta natija sifatida baholash; mas’uliyat hissi – bolalar taqdiriga befarq bo‘lmaslik.

8.Ijtimoiy va madaniy fazilatlar

Inklyuziv ta’lim – ijtimoiy adolatni ta’minlashning amaliy ko‘rinishi. Shu bois o‘qituvchida ijtimoiy faollik va madaniy ong muhim ahamiyatga ega. Bunday fazilatlarga quyidagilar kiradi: jamoatchilik ongi – bolalar huquqlarini himoya qilishga intilish;madaniy xilma-xillikni qabul qilish – turli millat, dinga, irqqa mansub bolalarga teng munosabat; ijtimoiy sheriklik madaniyati – mahalla, NNT, sog‘liqni saqlash tizimi bilan hamkorlikda ishlash.

9. Kasbiy-pedagogik fazilatlar

O‘qituvchining inklyuziv madaniyati uning kasbiy kompetentligiga bevosita bog‘liq bo‘lib, bunda pedagogik kreativlik, tashabbuskorlik, metodik yetuklik va refleksiv yondashuv muhim o‘rin tutadi. Ushbu sifatlar o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, moslashuvchan ta’lim usullaridan foydalanish va pedagogik faoliyatni takomillashtirish imkonini beradi.

G‘arb va Sharq pedagogik tadqiqotlari ijtimoiy-pedagogik kompetensiyalar shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. “Xususan, ushbu ko‘nikmalar tarkibida subyektning shaxsiy mas’uliyati, ijtimoiy faolligi, emotsional barqarorligi, tolerantlik darajasi, o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchi, adekvat o‘z-o‘zini baholashi hamda xulq-atvorni irodaviy boshqarish (samonazorat) kabi komponentlar ustuvorlik qiladi” [187]. Mazkur sifatlar, eng avvalo, shaxslararo munosabatlar dinamikasini chuqur tahlil etish, kommunikatsiya jarayonida o‘z va o‘zgalar xatti-harakatlarining ehtimoliy oqibatlarini prognozlash hamda verbal va noverbal ifodalarni to‘g‘ri interpretatsiya qilishda namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, inklyuziv madaniyatning konseptual mohiyati, tarkibiy tuzilishi, funksional xususiyatlari hamda zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy aloqalarning qonuniyatlariga doir tizimli bilimlar mazkur jarayonning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Fenomenning ma’naviy-ekzistensial asosi esa shaxsning aniq hayotiy strategiyalari va maqsadlari mavjudligida, shuningdek, sog‘lom turmush tarzi tamoyillarini ongli ravishda qabul qilishida ko‘rinadi.

Ilmiy adabiyotlar “tahlili shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’limga ixtisoslashgan umumta’lim muassasalarida boshlang‘ich sinf

o‘qituvchisining tuzatish (korreksion) pedagogik layoqatlarini shakllantirish muammosi O.Gnoevska” [146] tomonidan tizimli o‘rganilgan. Olima ushbu jarayonni belgilovchi bir qancha muhim mezonlarni ko‘rsatib o‘tgan. Muallif fikricha, mazkur mezonlar korreksion-pedagogik faoliyat unumdorligini oshirishning asosiy omilidir. Shu nuqtai nazardan, A. Babienko har qanday soha mutaxassisi uchun universal hisoblangan, kasbiy muammolarni samarali bartaraf etishga zamin yaratuvchi tayanch vakolatlarni, ya’ni axborot tizimlari bilan ishlash, ijtimoiy moslashuvchanlik va o‘zaro kommunikativ aloqaga kirishish kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligini alohida ta’kidlaydi.

Inklyuziv ta’lim muhitida faoliyat yuritadigan pedagoglarning kasbiy mahorati va tayyorgarligi bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Empirik tarkibiy qism: mazkur bosqichda pedagog ta’lim jarayonida yuzaga keladigan o‘zaro ta’sir, ijtimoiy munosabatlar hamda pedagogik qonuniyatlarni amaliy faoliyat orqali anglaydi, egallagan nazariy bilimlarini real pedagogik tajriba bilan uyg‘unlashtirib, kasbiy faoliyatida qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Ongli shakllantiruvchi komponent: O‘qituvchining shaxsiy dunyoqarashi o‘z-o‘zini anglash orqali belgilanishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, pedagogda maxsus pedagogik fikrlash tizimini va inklyuziv muhitga moslashuvchanlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Empatik komponent: Ta’lim oluvchilarning ichki kechinmalari, ruhiy holati va ehtiyojlarini chuqur his qilish, ularni boricha qabul qilish va tushunish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.


Sensorli-kommunikativ tarkibiy qism: Pedagogning o‘z ichki his-tuyg‘ulari, professional g‘oyalari va fikr-mulohazalarini o‘quvchilarga hamda hamkasblariga aniq, ta’sirchan va tushunarli tarzda yetkazib bera olish qobiliyatini yuzaga chiqaradi.

Nazorat-tartibga solish hamda baholash-natijaviy komponent: Ta’lim jarayonini doimiy ravishda monitoring qilib borish, uni to‘g‘ri yo‘naltirish va erishilgan natijalarni xolisona baholash orqali pedagogik faoliyat samaradorligini ta’minlaydi.

Inklyuziv ta’lim tizimida pedagoglarning korreksion hamda shaxsni rivojlantiruvchi vazifalarni amalga oshirishi bugungi kun talabidir. Shunga qaramay, mazkur sohada izlanish olib borgan taniqli olimlar – “V.Bondar” [53], “Z. M Axmedova” [78], “U.Yu Fayzieva” [87], “N.Nazarova” [105] va “I.Murodovlar” [105] o‘z ishlarida muhim bir jihatni alohida ta’kidlaydilar: umumta’lim o‘qituvchisining ushbu funksiyalarni bajarish doirasi va uslubiyoti maxsus pedagoglar faoliyatidan ajratilgan bo‘lishi shart. O‘qituvchining asosiy maqsadi bolani jamiyatga integratsiya qilish va o‘quv dasturini o‘zlashtirishiga ko‘maklashishdan iborat bo‘lib qolishi lozim.

Bundan tashqari, “umumta’lim muassasasi doirasida umumiy o‘rta ta’lim darajasida inklyuziv ta’limga ixtisoslashgan o‘qituvchilar quyidagilarga ega bo‘lishlari kerak: rivojlanishdagi buzilishlarni psixologik-pedagogik baholash va bolaning kelajakdagi o‘sishini oldindan ko‘ra bilish qobiliyati; aniq tuzatish aralashuvlarini rejalashtirish qobiliyati; tegishli tuzatish strategiyalari va ta’lim resurslarini tanlash va amalga oshirish ko‘nikmasi; ta’lim va tarbiyadagi eng kichik ijobiy o‘zgarishlarni ham payqash qobiliyati. Ular “maxsus” bolani qo‘llab-quvvatlashlari va unga yordam berishlari; unga hamdardlik va tushunish bilan yondashishlari; qiyin vaziyatlarga moslashishlari; bolalarga ham, ularning ota-onalariga ham ta’sir ko‘rsatishlari; ushbu bolalarning ijobiy jihatlarini oshirishga e’tibor qaratishlari; optimizm va o‘z-o‘zini hurmat qilishni targ‘ib qilishlari va boshqalar” [116].

adqiqotlar natijasida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagoglarida inklyuziv madaniyatni shakllantiruvchi quyidagi asosiy komponentlar (tarkibiy qismlar) belgilab olindi (3.2-rasm):



3.2.-rasm Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining inklyuziv madaniyatining tuzilishi.

Kognitiv (bilish) komponenti. “Ushbu miqyos o‘qituvchining nazariy bilimlar bazasi, sub’ektlararo muloqot qonuniyatlari, shuningdek, imkoniyati cheklangan hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarning psixofizik rivojlanish xususiyatlariga doir tasavvurlari tizimini ifodalaydi. Mazkur tarkibiy jihat alohida ta’limiy ko‘makka ehtiyoj sezadigan bolalarning individual xususiyatlari va ta’limiy talablarini hisobga olib, o‘quv-tarbiya jarayonini maqsadli hamda samarali tashkil etish va loyihalashtirish kompetensiyasini ifodalaydi” [136].

Faoliyatga yo‘naltirilgan (amaliy) komponent – “pedagogning ta’lim jarayonini amaliy faoliyat asosida loyihalash va modellashtirish, ijtimoiy-pedagogik tajribasini samarali qo‘llash hamda alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida kasbiy bilim, ko‘nikma va imkoniyatlarini amaliy jihatdan namoyon etish qobiliyatini ifodalaydi” [146].

Shaxsiy-kasbiy va qadriyatli komponent pedagogning individual xususiyatlari, kasbiy faoliyatga munosabati, ish yuritish uslubi hamda o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish va baholash qobiliyatini ifodalaydi. “Mazkur komponent inklyuziv ta’lim sharoitida faoliyat yuritishga bo‘lgan ichki ehtiyoj va ijobiy munosabatni shakllantirish, barcha o‘quvchilarga teng imkoniyat va huquq asosida yondashish, shuningdek,

rivojlanishida individual xususiyatlari mavjud bo‘lgan bolalarni tushunish, qo‘llab-quvvatlash va qabul qilishga tayyorlikni ta’minlaydi” [174].

“Inklyuziv madaniyatning nomlari keltirilgan tarkibiy qismlari bir-biri bilan chambarchas bog‘langan va o‘zaro bog‘liqdir, bundan tashqari, ularning har birining shakllanishi yaxlit tizimning bir qismi sifatida o‘zining xususiyatlarining shakllanishi bilan bog‘liq. Ularni belgilashda ko‘p funksiyali faoliyat funksiyalarini va fanlarning vakolatlarini hisobga olish muhimdir” [105].

Shunday qilib, umumiy o‘rta ta’lim muassasasining inklyuziv muhitida o‘qituvchilarning turli yo‘nalishdagi kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishi va inklyuziv madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ta’lim mazmunining asosiy tarkibiy jihatlari quyidagi bilimlar majmui asosida shakllantirildi:

– “alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’limga jalb etishning huquqiy-me’yoriy asoslari va davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari; umumiy va maxsus pedagogika, korreksion pedagogika, umumiy hamda maxsus psixologiya va ijtimoiy ish sohalariga oid asosiy tushuncha va atamalarning mazmuni; turli rivojlanish xususiyatlariga ega bo‘lgan bolalarning psixologik va fiziologik rivojlanish qonuniyatlari, individual imkoniyatlari hamda ta’limiy ehtiyojlari; o‘quvchilarni kompleks psixologik-pedagogik diagnostika va kuzatuv asosida o‘rganish usullari; o‘quvchilarning individual xususiyatlari va ta’limiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda differensial hamda individual ta’lim metodlarini tanlash va qo‘llash; o‘quvchilarning ota-onalari bilan samarali pedagogik hamkorlikni yo‘lga qo‘yishning mazmuni, shakllari va amaliy usullari” [124].

Inklyuziv ta’lim muhitida ijtimoiy-pedagogik kompetensiyaning asosiy qobiliyat va ko‘nikmalari quyidagilardan iborat:

– “o‘quvchining individual ehtiyojlari va muammolarini anglash, faol tinglash va pedagogik qo‘llab-quvvatlash; ijtimoiy-pedagogik muammolarni tahlil qilish, zarur axborotni izlash, saralash va tegishli yechimlarni belgilash; o‘quvchining psixologik, ijtimoiy va ta’limiy rivojlanishini kompleks qo‘llab-quvvatlash; verbal va noverbal xatti-

harakatlarni kuzatish hamda pedagogik-psixologik diagnostika usullaridan foydalanish; o‘quvchini muammolarni mustaqil hal etishga yo‘naltirish va uning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash; individual ta’lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda differensial va inklyuziv yondashuvlarni amalga oshirish; korreksion-rivojlantiruvchi hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash; alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar uchun individual rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish; o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hurmat, hamkorlik va ijobiy ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish; ta’lim samaradorligi uchun zarur pedagogik, ijtimoiy va moddiy-texnik shart-sharoitlarni aniqlash hamda tashkil etish” [176].

Biz o‘z tadqiqotimizda yaxlit ta’lim muassasasining inklyuziv muhitida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining kasbiy faoliyati o‘qituvchining hissiy sohasi bilan chambarchas bog‘liqligini kuzatamiz. Bu, o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash, boshqalarning his-tuyg‘ularini anglash va tan olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, o‘zida va boshqalar bilan munosabatlarda his-tuyg‘ularini boshqarish va o‘z-o‘zini rag‘batlantirish qobiliyati ham muhimdir. Shu bois, biz shaxsiy fazilatlar tarkibida hissiy komponentni ajratib ko‘rsatamiz.

K.Platonovning fikricha, alohida shaxs sifatlari yagona shaxs strukturasiga birlashtirilgan: 1) orientasiya; 2) ijtimoiy tajriba; 3) psixik jarayonlarning individual xususiyatlari; 4) biologik aniqlangan quyi tuzilma .

M. Tkachenko tadqiqotlarida o‘rta maktab o‘qituvchilarining muhim kasbiy sifatlarini rivojlantirish tizimi quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

1) “Asosiy kasbiy sifatlarning tabiati va xususiyatlari - bu bo‘lim o‘qituvchilarning kasbiy rollariga tegishli standartlar va mezonlarni belgilaydi; Muayyan pedagogik kompetensiyalarni egallash usullari - o‘qituvchilarning ta’lim amaliyotida mukammal bo‘lishlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan amaliy yondashuv” [124].

3) “Shaxsiy ma’noni ifodalovchi ahamiyatlilik — bu jihat o‘qituvchilarning pedagog sifatida doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi va malakasini oshirishi zarurligini ta’kidlaydi” [124, b. 189].

“M. Fedorenkoning ta’kidlashicha, kasbiy kontekstda ahamiyatli bo‘lgan sifatlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: faollik, kasbiy-pedagogik yo‘nalganlik, kasbiy-qadriyatli yo‘nalganlik, refleksiya, pedagogik ijodkorlik, maqsadni belgilash, kasbiy-pedagogik vazifalarni samarali hal qilish” [110, B. 37-38].

Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati bevosita o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy xislatlariga bog‘liq. Bular qatoriga birinchi navbatda kasbiy yo‘naltirilganlik (pedagog bo‘lish istagi va motivatsiyasi), o‘z-o‘zini tahlil qila olish (refleksivlik) hamda stressli vaziyatlarda ruhiy muvozanatni saqlash (emotsional barqarorlik) kiradi. Shuningdek, zamonaviy ustozdan doimiy izlanuvchanlik (kreativlik), tashabbuskorlik (faollik), mustahkam ma’naviy-axloqiy tamoyillar (qadriyat yo‘nalishlari) hamda kutilmagan vaziyatlarda eng to‘g‘ri va samarali qarorlarni qabul qila olish mahorati talab etiladi.

Inklyuziv ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchining muhim shaxsiy sifatlari quyidagilardan iborat:

– ijtimoiy-pedagogik faoliyatga yo‘naltirilganlik;

– pedagogik faoliyat natijalari uchun mas’uliyatlilik;

– o‘quvchilarga insonparvar, hurmat va qabul qilishga asoslangan munosabat;

– o‘quvchilarning hissiy holatini anglash, hamdardlik va qo‘llab-quvvatlashga tayyorlik;

– o‘z faoliyatini tahlil qilish va kasbiy jihatdan rivojlanishga intilish.axloq, o‘z-o‘zini tartibga solish va o‘z-o‘zini tarbiyalash; xushmuomalalik; bag‘rikenglik - har qanday shaxsning o‘ziga xosligini tushunish va idrok etish qobiliyati;

– refleksivlik - o‘z kasbiy faoliyati natijalarini tushunish va o‘z-o‘zini anglash qobiliyati.

Mazkur sifatlar tahlili asosida inklyuziv ta’lim sharoitida faoliyat yurituvchi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ijtimoiy-pedagogik

kompetensiyasini shakllantiruvchi shaxsiy hamda kasbiy fazilatlar tizimi aniqlandi (rasm.3.2):

1) o‘quvchining ichki dunyosini tushunishga yordam berish, unga hamdard bo‘lish;

2) stressga chidamlilik va o‘z-o‘zini nazorat qilishni ta’minlash;

3) o‘quvchiga faol ta’sir ko‘rsatishga yordam berish;

4) ijtimoiy-pedagogik faoliyatning ahamiyati haqida tushuncha berish.

Kelajakda inklyuziv ta’lim tizimida faoliyat yuritadigan umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilarida ijtimoiy-pedagogik kompetensiyani tarkib toptirish jarayoni bevosita oliy ta’lim muassasasining ijtimoiy-madaniy muhiti bilan bog‘liqdir. Ushbu muhit o‘quv fanlari mazmunini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, ularni o‘zaro integratsiyalash hamda jarayonni maqsadli boshqarish tamoyillari asosida samarali samira beradi. Mazkur tizim orqali bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashni ta’minlash uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni izchil amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi:

– Ta’lim jarayonini yaxlit loyihalash: O‘quv mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini bo‘lajak o‘qituvchining ijtimoiy-pedagogik faoliyati hamda kasbiy kompetensiyalariga muvofiq holda o‘zaro uyg‘unlashtirish.

– Fan mazmuni va ta’lim natijalarini aniqlashtirish: Har bir fan bo‘yicha mazmuniy yo‘nalishlar, mantiqiy ketma-ketlik va kutilayotgan natijalarni belgilash orqali talabalarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan kasbiy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni aniq ifodalash.

– Motivatsion va qadriyatli pedagogik muhitni shakllantirish: Talabalarda kasbiy mas’uliyat, ijtimoiy faollik va pedagogik faoliyatga ijobiy munosabatni rivojlantirish, shuningdek, ularning shaxsiy hamda kasbiy salohiyatini muntazam takomillashtirishga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratish.

– Kasbiy vaziyatlarni modellashtirish va keys texnologiyalaridan foydalanish: Bo‘lajak o‘qituvchilarni amaliy faoliyatda uchrashi mumkin bo‘lgan murakkab pedagogik va ijtimoiy vaziyatlar bilan tanishtirish,

ularni tahlil qilish hamda mustaqil ravishda maqbul yechim ishlab chiqishga yo‘naltirish.

– Shaxsga yo‘naltirilgan va individual ta’limni tashkil etish: Ta’lim oluvchilarning individual imkoniyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularga mos pedagogik metod, texnologiya va ta’lim vositalarini tanlash hamda qo‘llash.

– Ta’lim shakllarini transformatsiya qilish: Auditoriyadagi o‘quv faoliyatini tashkil etish usullarini muntazam yangilab borish, darslarni bevosita bo‘lajak ijtimoiy-pedagogik faoliyatning yetakchi yo‘nalishlari va modellariga moslashtirilgan holda tashkil etish.

Ushbu tuzilmaning grafik tasviri inklyuziv ta’lim bilan shug‘ullanish uchun zarur bo‘lgan ilg‘or pedagogik ta’limning ahamiyatini ko‘rsatadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi ularning inklyuziv madaniyatini barqaror va samarali oshirish uchun juda muhimdir. Pedagogik ta’lim bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan bilim, amaliy ko‘nikma va shaxsiy-kasbiy fazilatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan yaxlit ta’lim jarayonini ifodalaydi. Shu joyda umumiy o‘rta ta’lim muassasasida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarimiz va inklyuziv maktablarda faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarimizning portretini qiyosiy tahlilini keltirib o‘tmoqchimiz: Tahlillar natijasida oddiy maktab o‘qituvchisining madaniyati qanday degan savolga javob berib o‘tamiz.

O‘qituvchining madaniyati – bu uning shaxsiy, kasbiy, axloqiy, estetik va ijtimoiy fazilatlarining uyg‘un yig‘indisidir.

Ya’ni o‘qituvchi madaniyati – bu o‘qituvchining ichki dunyosi, qadriyatlari, muloqot uslubi va faoliyatidagi insoniylik ko‘lamidir. O‘qituvchi madaniyatining asosiy tarkibiy qismlarini keltirib o‘tamiz:

Axloqiy madaniyat: odob-axloq, insoniy munosabat, bag‘rikenglik, mas’uliyatlilik.

Kasbiy madaniyat:pedagogik bilim, metodik yetuklik, innovatsion yondashuv.

Kommunikativ madaniyat: muloqot, tinglash, ta’sirli fikr bildirish, jamoa bilan ishlash mahorati

Intellektual madaniyat: tafakkur, tahlil qilish qobiliyati, bilimdonlik va fikrlash kengligi.

Estetik madaniyat: go‘zallikni his qilish, estetik muhit yaratish, nutq va kiyinish madaniyati

Informatsion madaniyat: zamonaviy axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri va madaniyatli foydalanish

O‘qituvchining madaniyati – bu uning insoniy qiyofasi, axloqiy qudrati, va kasbiy mohiyatini namoyon etuvchi ko‘rsatkichdir. Madaniyatli o‘qituvchi: faqat dars bermaydi, balki tarbiya qiladi; faqat bilim emas, balki qadriyat ulashadi; faqat o‘quvchilarga emas, butun jamiyatga namuna bo‘ladi.

Ilmiy-nazariy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarni inklyuziv ta’lim sharoitida faoliyat yuritishga tayyorlash oliy pedagogik ta’limning muhim yo‘nalishidir. Bu jarayonda bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik kompetensiyasi, maxsus bilimlari, kreativligi hamda o‘quvchilar bilan samarali hamkorlik qilish qobiliyati rivojlantiriladi. Shu bois inklyuziv madaniyatga ega pedagogga qo‘yiladigan kasbiy va shaxsiy mezonlarni belgilash muhimdir.

O‘qituvchining inklyuziv madaniyati – ta’lim jarayonida barcha o‘quvchilarning, jumladan, rivojlanishida turli xususiyatlarga ega va alohida ta’lim ehtiyojlari mavjud bo‘lgan bolalarning huquq va imkoniyatlarini teng ravishda ta’minlashga yo‘naltirilgan kasbiy qadriyatlar, qarashlar va pedagogik munosabatlar majmuasidir. Mazkur madaniyat pedagogning har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hurmat qilishi, xilma-xillikni tabiiy holat sifatida qabul qilishi hamda ularning ta’limiy va ijtimoiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan maqsadli pedagogik faoliyatida namoyon bo‘ladi.

Ya’ni, inklyuziv madaniyat – bu faqat bilim yoki metodika emas, balki insonparvarlikka asoslangan pedagogik ong va ichki ishonchdir.

O‘qituvchining inklyuziv madaniyati quyidagi asosiy jihatlarni qamrab oladi:

Qabul qilish (tolerantlik) – har bir bolani uning individual xususiyatlari bilan qabul qilish.

Teng imkoniyatlarga ishonch – “har bir bola o‘rgana oladi” degan g‘oyaga ishonish.

Inson qadrini anglash – bolaning qobiliyati, ruhiy holati va ehtiyojlariga hurmat bilan yondashish.

Jamoaviy hamkorlik madaniyati – psixolog, logoped, defektolog va ota-onalar bilan hamkorlik qilish.

Pozitiv muhit yaratish – barcha o‘quvchilar o‘zini xavfsiz va qadrli his qilgan sinf muhitini tashkil etish.

O‘qituvchining inklyuziv madaniyatining tarkibiy qismlari kuyidagilardan iborat:

Qadriyatlar tizimi: har bir inson teng va hurmatga sazovor ekanligini anglash;

Munosabat madaniyati:farqlarni qabul qilish, stereotiplardan xoli bo‘lish;

Bilim va kompetensiyalar: inklyuziv ta’lim usullari, individual yondashuv bilimlari;

Faoliyat uslubi: barcha bolalarni faol dars jarayoniga jalb etish usullari;

Hamkorlik madaniyati:jamoa, ota-ona, jamiyat bilan ijobiy muloqotda bo‘lish;

O‘qituvchining inklyuziv madaniyatini shakllantiruvchi ruhiy va axloqiy sifatlar quyidagilardir:

Hamdardlik (empatiya) – bolaning hissiyotini tushunish va uni qo‘llab-quvvatlash.

Bag‘rikenglik – turli qobiliyat, din, millat va ehtiyojdagi bolalarni teng qabul qilish.

Sabr-toqat va ruhiy barqarorlik – har bir o‘quvchining individual rivojlanish sur’atiga moslashish.

Adolatlilik va xolislik – barcha o‘quvchilarga bir xil talab qo‘yish.

Kreativlik – ta’lim jarayonida individual yondashuvni ta’minlash.

Javobgarlik va insonparvarlik – bolaning rivoji uchun mas’uliyat hissini his qilish.

Yuqoridagi mulohazalar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchining inklyuziv madaniyati uning pedagogik faoliyatida yaqqol namoyon

bo‘ladi. Xususan, u ta’lim oluvchilarning individual farqlarini hisobga olgan holda yagona ta’lim muhitini shakllantirish, alohida ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchilarning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash hamda mavjud pedagogik resurslardan maqsadli va samarali foydalanish qobiliyatida aks etadi. Bundan tashqari, u barcha bolalarni qo‘llab-quvvatlovchi muhitni barpo etish, moslashtirilgan o‘qitish metodlarini joriy qilish, ota-onalar va jamoat institutlari bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash hamda o‘z ishini muntazam ravishda tanqidiy-refleksiv tahlil qilib borish orqali shakllanadi.

Bugungi ta’lim sharoitida pedagogning inklyuziv kompetensiyasi va kasbiy madaniyatini rivojlantirishga bir qator tashkiliy-pedagogik hamda individual omillar ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan:

Uzluksiz kasbiy takomillashuv: Alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar bilan ishlashning zamonaviy shakl va metodlarini egallash, pedagogik bilim va amaliy ko‘nikmalarni muntazam yangilab borish;

Kasbiy hamkorlik va tajriba almashinuvi: Pedagoglar o‘rtasida samarali muloqot va metodik hamkorlikni rivojlantirish, inklyuziv ta’lim jarayonida qo‘llanilgan samarali tajribalarni o‘zaro ommalashtirish;

Kasbiy refleksiya: O‘qituvchining o‘z pedagogik faoliyatini muntazam tahlil qilishi, inklyuziv ta’lim jarayonida erishilgan natijalarni baholashi hamda aniqlangan muammolar asosida faoliyatini takomillashtirib borishi.

Insonparvarlik tamoyillari: Ta’lim siyosatining ijtimoiy tenglik, bag‘rikenglik va har bir ta’lim oluvchining huquqlarini himoya qilish g‘oyalariga asoslanishi;

Amaliy integratsiya: Bevosita inklyuziv o‘quv muhitida jonli pedagogik faoliyatni olib borish va tajriba orttirish.

O‘qituvchining inklyuziv madaniyati – bu zamonaviy pedagogning professional va insonparvar yuzidir. Bunday o‘qituvchi: har bir bolada imkoniyat ko‘radi; farqlarni muammo emas, boylik deb qabul qiladi; sinfda tenglik, hurmat va muhabbat muhitini yaratadi; jamiyatda inklyuziv qadriyatlarni ilgari suradi. Shunday o‘qituvchi – insonni anglaydigan, dunyoga mehr bilan qaraydigan va ta’limni hamdardlik asosida qurgan pedagogdir.

Inklyuziv muhitga tayyorgarlik tushunchasining zamonaviy ta’riflarida ilmiy manbalarni nazariy tahlil qilish natijasida aniqlaganimizdek, olimlarimizning ta’qidlashicha, tayyorgarlik sifatining natijasi va ko‘rsatkichi bo‘lib, faoliyatda amalga oshiriladi va tekshiriladi, kasbiy tayyorgarlik nafaqat natija, balki kasbiy tayyorgarlikning maqsadi, har bir shaxsning imkoniyatlarini samarali amalga oshirishning boshlang‘ich va asosiy shartidir. Muallif kasbiy tayyorgarlikning tarkibiy tuzilmasini quyidagi asosiy komponentlar orqali tavsiflaydi:

1) “Motivatsion komponent – pedagogik faoliyatga bo‘lgan kasbiy qiziqish, ehtiyoj, qadriyat va faoliyatni amalga oshirishga undovchi motivlarning shakllanganlik darajasini ifodalaydi” [94].

2) “Orientatsion-kognitiv-baholovchi komponent – pedagogik kasbning mazmuni, o‘qituvchiga qo‘yiladigan kasbiy talablar, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish hamda tegishli vazifalarni hal etish usullari haqidagi bilimlarni qamrab oladi” [94].

3) “Hissiy-irodaviy komponent – pedagogik faoliyat jarayonida mas’uliyatni his etish, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish, emotsional holatni boshqarish va kasbiy vazifalarni izchil amalga oshirish qobiliyatini aks ettiradi” [94].

4) “Operativ-amaliy komponent – mavjud kasbiy bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy-professional sifatlarni muayyan pedagogik vaziyatlarda safarbar etish, ulardan maqsadga muvofiq foydalanish hamda faoliyat sharoitiga moslashish imkoniyatini ifodalaydi” [94].

5) institutsional-xulq-atvor (vijdonli mehnatga moyillik) [94].

L. Kondrashova yondashuviga ko‘ra, bo‘lajak mutaxassisning pedagogik faoliyatga bo‘lgan tayyorgarligi o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan to‘rtta asosiy tizimli komponent orqali namoyon bo‘ladi:

– Motivatsion yo‘nalish: “Bu o‘qituvchining kasbiy sohaga nisbatan shakllangan ijobiy munosabati, ichki qiziqishlari, ta'lim-tarbiya jarayonida faol ishtirok etishga bo‘lgan intilishi hamda o‘z bilim salohiyatini amaliyotga tatbiq etish ehtiyojini qamrab oladi” [94].

– Orientatsion (mohiyatsal) komponent: “Mazkur tarkibiy qismning asosini shaxsning qadriyatlar tizimi tashkil etib, unga kasbiy etika, pedagogik ideallar, dunyoqarash va tamoyillar hamda amaliy

faoliyatda ushbu qoidalarga qat'iy rioya qilishga tayyorlik darajasi kiradi" [94].

– Kognitiv-operatsion imkoniyatlar: "Kasbiy majburiyatlarni samarali bajarishga xizmat qiladigan psixologik jarayonlar (idrok, diqqat, xotira), pedagogik fikrlash tarzi, maxsus qobiliyatlar hamda nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarning kasbiy maqsadlarga yo‘naltirilganligini ifodalaydi" [94].

– Hissiy-irodaviy muvozanat: Pedagogik jarayonning unumdorligini belgilovchi emotsional holatlar va irodaviy sifatlar majmuidir. Bunga hissiy barqarorlik, vaziyatni to‘g‘ri qabul qilish, o‘zini idora eta olish, tashabbuskorlik, mustaqillik, dadillik hamda refleksivlik (o‘z-o‘zini tanqidiy baholash) xususiyatlari kiradi.

– psixofiziologik (boshlangan ishni tirishqoqlik va yakunlash istagi, o‘z xatti-harakatlarini va boshqalarning xatti-harakatlarini erkin boshqarish qobiliyati, kasbiy samaradorlik, faollik va o‘zini o‘zi boshqarish, muvozanat va chidamlilik, tez ish sur’ati);

– baholovchi (o‘z kasbiy tayyorgarligini o‘z-o‘zini baholash va kasbiy vazifalarni hal qilish jarayonining optimal pedagogik modellarga muvofiqligi)[143].


Olimlarimizning asarlarida tayyorlik egallangan ko‘nikmalar kompetensiyalar tizimini faollashtirish va qo‘llash orqali universal (turli) ta’lim vazifalarini vaziyatli hal qilish imkoniyatiga adekvat munosabatda bo‘lishga qaratilgan shaxsning yaxlit sifati tarzida qaraladi. Ta’lim jarayonida, bunday sharoitlar differensial va o‘zgaruvchan modifikasiyalar bilan belgilanadi[78]. Ammo psixologik manbalarda ”tayyorlik” insonning faol faol holati, ma’lum bir xatti-harakatga munosabat, vazifani bajarish uchun kuchlarni safarbar qilish, deb ta’riflanadi. E. Zeer ushbu konsepsiyani ikki daraja bilan tavsiflangan murakkab shaxsiy ta’lim sifatida ko‘rib chiqadi. Birinchisi - qandaydir kasbiy mutaxassislikni o‘zlashtirish istagi, ikkinchisi - kasbiy faoliyatga qobiliyat, tayyorlik[78]

Mazkur faoliyat jarayoni o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘zaro uyg‘unlashuviga asoslanib, shaxsning muhim individual hamda kasbiy sifatlari bilan uzviy bog‘liq holda namoyon

bo‘ladi. “Uning samaradorligi mavjud bilim va ko‘nikmalarni amaliy vaziyatlarda maqsadga muvofiq qo‘llay olish qobiliyati bilan belgilanadi. Shuning uchun tayyorgarlik, birinchidan, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisidan; ikkinchidan, inklyuziv sharoitda ijtimoiy-pedagogik funksiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bir qator shaxsiy fazilatlardan iborat. Binobarin, mazkur tushuncha inklyuziv ta’lim sharoitida faoliyat yurituvchi o‘qituvchining kasbiy madaniyatini uning ichki kasbiy pozitsiyasi sifatida ifodalaydi. Bunday madaniyat pedagogning ta’lim jarayonini samarali tashkil etish salohiyati, o‘z faoliyati natijalariga mas’uliyat bilan yondashishi hamda kasbiy bilim va kompetensiyalarini muntazam ravishda takomillashtirib borishga bo‘lgan intilishida namoyon bo‘ladi” [78].

Tadqiqotimizda biz o‘qituvchilarining umumiy ta’lim muassasasi o‘qituvchilarni inklyuziv madaniyatini rivojlantirishning turli darajalariga xos xususiyat, deb hisoblaymiz. Ushbu darajalar nazariy va amaliy tarkibiy qismlarni, shuningdek, shaxsning muhim fazilatlarini, masalan, mas’uliyat, qadriyatlar, hayotiy ko‘rsatmalar, hissiyotlar, iroda, xulq-atvor, qobiliyat, xarakter va temperamentni o‘z ichiga oladi. Umumiy ta’lim muassasasida inklyuziv ta’limning yuqori, o‘rtacha va yetarli darajalar bilan belgilanadi. Shunday qilib, bizning tadqiqotimiz kontekstida umumiy ta’lim muassasasi o‘qituvchilarining inklyuziv muhitda ijtimoiy-pedagogik hamqorlik strategiyalarini ko‘llashda muhim bosqichlar orqali o‘tkaziladi. Ma’lumki, ijtimoiy-pedagogik strategiya – ta’lim jarayonida ijtimoiy muhit imkoniyatlari va pedagogik ta’sir vositalarini o‘zaro muvofiqlashtirish asosida shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiluvchi uzoq muddatli maqsadlar, ustuvor yo‘nalishlar hamda amaliy chora-tadbirlar majmuasidir.

Pedagogik ta’lim muassasasi birinchi navbatda ijtimoiy-pedagogik xamqorlik darajalariga qaratilgan bo‘lishi kerak (3.3-rasm).



3.3-rasm. Umumiy ta’lim muassasasi o‘qituvchisining inklyuziv muhitida ishlashga tayyorlik hamda qobiliyat ko‘rsatkichi sifatida

Bu jarayonda ijtimoiy-pedagogik ko‘nikmalarni rivojlantirish o‘qituvchilardan alohida mahoratni talab qiladi.

Olib borilgan tadqiqotlar doirasida umumiy o‘rta ta’lim maktablari pedagoglarida inklyuziv ta'lim sharoitida faoliyat yuritishga oid ijtimoiy-pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishning individual trayektoriyasi ishlab chiqildi hamda quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari surildi:

1) Maktab o‘qituvchilarini kasbiy qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi mazmunini davr talablariga mos ravishda modernizatsiya qilish;

2) Inklyuziv yo‘nalishdagi maxsus o‘quv modullarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish va ushbu kurslarning metodik ta’minotini takomillashtirish;

3) Pedagogik jarayonga interaktiv va innovatsion texnologiyalarni, xususan, keys-stadi (vaziyatli o‘rganish), "akvarium", braynstorming (g‘oyalar generatsiyasi) hamda davra suhbatlarini samarali joriy etish;

darslarda mantiqiy-tizimli sxemalar, vizual taqdimotlar hamda keys va rolli o‘yinlardan keng foydalanish;

4) o‘qituvchilarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish, bunda individual topshiriqlarni bajarish, insho va referatlar yozish, kurs ishlari, olimpiadalar, konferensiyalar va seminarlar, to‘garaklar va muammoli guruhlarga jalb etish;

5) inklyuziv umumta’lim maktabida har xil turdagi pedagogik amaliyotlarni bajarish;

6) ta’lim jarayonida teskari aloqani ta’minlash, o‘quvchining o‘zlashtirish natijalarini tahlil qilish, baholash va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish orqali uning keyingi faoliyatini takomillashtirishga yo‘naltiriladi.

Bir vaqtning o‘zida, yuqorida aytib o‘tilganidek, o‘qituvchining madaniy xabardorligiga, kasbiy xulq-atvoriga va o‘z ishiga o‘ziga xos yondashuviga ta’sir ko‘rsatadigan xususiyatlarini oshirish va rivojlantirishni nazarda tutishi kerak. Ijtimoiy-pedagogik ko‘nikmalarning asosi quyidagi maqsadlarni amalga oshirishda o‘z aksini topadi:

• o‘quvchilar va ularning oilalari bilan konstruktiv muloqotni rivojlantirish;

• ta’lim strategiyalari orqali ijtimoiy muammolarni hal qilish;

• jamoada yagona muhitni shakllantirish;

• bolaning shaxsiy rivojlanishi uchun ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish;

• ijobiy ijtimoiy qadriyatlarni targ‘ib qilish.

Asosiy turlari etib kuyidagilarni keltirib o‘tamiz:

Ko‘nikma turi	Mazmuni
Kommunikativ ko‘nikma	Bolalar, ota-onalar va hamkasblar bilan samimiy, ishonchli muloqot qilish qobiliyati
Empatik ko‘nikma	Boshqalar hissiyotini tushunish, hamdard bo‘lish, emotsional qo‘llab-quvvatlash
Tashkiliy ko‘nikma	Jamoada ishni to‘g‘ri tashkil etish, vazifalarni taqsimlash, hamkorlik muhitini yaratish
Diagnostik ko‘nikma	Bolaning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini aniqlay olish qobiliyati

Ijtimoiylashtirish ko‘nikmasi	Bolani jamoaga moslashtirish, unda ijtimoiy faollikni shakllantirish
Modellashtirish ko‘nikmasi	Pedagogik va ijtimoiy vaziyatlarga mos yechim modellarini ishlab chiqish
Tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish ko‘nikmasi	Axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni bolalar ongiga singdira olish mahorati

Ijtimoiy-pedagogik ko‘nikmalar ta’lim jarayonida shaxsning ijtimoiy muhitga samarali kirishuvini ta’minlash, o‘zaro hurmat va tenglikka asoslangan inklyuziv muhitni qaror toptirish, ota-onalar hamda ta’lim tashkilotlari o‘rtasidagi pedagogik hamkorlikni rivojlantirish, bolalarda ijtimoiy tashabbuskorlik va jamoa oldidagi mas’uliyatni kuchaytirish, shuningdek, yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni pedagogik yondashuvlar asosida konstruktiv hal etishga xizmat qiladi.

O‘qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik ko‘nikmalarni rivojlantirishning asosiy usullari:

1. Trening va trening-amaliyotlar – muloqot, tinglash, ishonch muhitini shakllantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar.
2. Interaktiv usullar – “rolli o‘yinlar”, “muloqot davrasi”, “jamoaviy muhokama”.
3. Keys-metod – hayotiy ijtimoiy vaziyatlarni tahlil qilish va yechim taklif etish.
4. Refleksiya mashqlari – o‘qituvchining o‘z hissiyoti va munosabatini tahlil qilishi.
5. Hamkorlikdagi ijtimoiy loyihalar – mahalla, NNT va ota-onalar bilan ijtimoiy aksiyalar o‘tkazish. Keng qamrovli (inklyuziv) ta’lim muhitida pedagogning ijtimoiy-pedagogik ko‘nikmalari alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Negaki, ushbu malakalar majmuasi o‘qituvchiga quyidagi tizimli vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi:

- Integratsion yondashuvni ta’minlash: har bir o‘quvchining individual imkoniyatlari, ehtiyojlari va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda, uni sinfning ijtimoiy hamda ta’limiy faoliyatiga faol jalb etish;

- Empatik yondashuvni rivojlantirish: maxsus ta’limiy ehtiyojga ega o‘quvchilarning psixologik holati, individual xususiyatlari va ehtiyojlarini anglash hamda ularga mos pedagogik yordam ko‘rsatish;
- Ijobiy ta’lim muhitini shakllantirish: ta’lim jarayonida o‘zaro hurmat, tenglik, bag‘rikenglik va hamkorlik tamoyillariga asoslangan inklyuziv pedagogik muhitni qaror toptirish.
- Hamkorlik ko‘prigi: O‘quvchilarning ota-onalari hamda qonuniy vakillari bilan konstruktiv va ishonchli muloqot tizimini yo‘lga qo‘yish;
- Tenglik prinsiplari: Ijtimoiy adolat hamda teng imkoniyatlar yaratish g‘oyalarini bevosita amaliyotga tatbiq etish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib zamonaviy ijtimoiy-pedagogik ko‘nikmalar o‘qituvchini shunchaki axborot uzatuvchi (translator) funksiyasidan olib chiqib, uni jamiyatda insonparvarlik tamoyillarini qaror toptiruvchi, shaxsni har tomonlama qo‘llab-quvvatlovchi va birlashtiruvchi yetakchi ijtimoiy mentorga aylantiradi.

Ijtimoiy-pedagogik kompetensiyaning mazmuni umumiy o‘rta ta’lim muassasasi o‘qituvchilari tomonidan nostandart (atipik) sharoitida bir vaqtning o‘zida ko‘p funksiyali (ijtimoiy-pedagogik) faoliyatni amalga oshiradigan asosiy funksiyalari, ish turlari va rollari bilan belgilanadi. Mazkur faoliyat umumta’lim maktablarining inklyuziv ta’lim muhiti doirasida amalga oshiriladi. Bunda pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik faoliyati imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning ta’lim olishi, ijtimoiylashuvi va jamoaga moslashuvini ta’minlashga yo‘naltiriladi. Shuningdek, o‘qituvchi tomonidan ularning individual ehtiyojlaridan kelib chiqib, korreksion-rivojlantiruvchi va reabilitatsion yordam ko‘rsatish ishlari ham amalga oshiriladi. Shu bilan birga, ular nafaqat o‘rta maktab o‘quvchilarining muammolari va ta’lim ehtiyojlarini aniqlay olishlari, balki ularni muvaffaqiyatli hal qilishga hissa qo‘shishlari kerak.

Hozirgi zamonda inklyuziv ta’lim nafaqat pedagogik jarayonlar, balki davlat siyosatida ham ustuvor yo‘nalishga aylanmoqda. Bugungi kunda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, har bir bolaning ta’lim olish huquqini ta’minlash va turli imkoniyatlarga ega o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish

strategiyasining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi (Abdullaeva, 2021; Axmedova, 2020)[93,78].

Pedagogik hamkorlik modeli esa mazkur jarayonni samarali tashkil etishda muhim vosita hisoblanadi. Bu model o‘qituvchilar, psixologlar, metodistlar va ota-onalar o‘rtasida hamkorlikni mustahkamlab, pedagogik tajribalar va bilimlarni almashishni tartibga soladi.

Mazkur modelning asosiy vazifasi inklyuziv ta’limga oid nazariy konsepsiyalarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, pedagoglarning kasbiy salohiyatini mustahkamlash hamda ta’lim muhitini izchil takomillashtirishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik hamkorlik mexanizmlarini samarali yo‘lga qo‘yish nafaqat maktabdagi ta’lim jarayonining sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash, balki o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlash, ularning individual imkoniyatlaridan kelib chiqib teng ta’lim olish sharoitlarini yaratish va inklyuziv ta’lim sohasidagi ustuvor strategik vazifalarni amaliyotga izchil tatbiq etishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim islohotlarida inklyuziv yondashuv ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu tuzilmaning samaradorligini ta’minlovchi asosiy bo‘g‘inlar va ularning funksional majburiyatlari quyidagi ilmiy mezonlarda aks etadi:

1. Pedagoglar. Pedagoglar mazkur hamkorlik tizimining yetakchi subyekti sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning faoliyati nafaqat ta’lim mazmunini yetkazish, balki inklyuziv ta’lim tamoyillarini amaliy jarayonga samarali tatbiq etish, shuningdek, turli ta’limiy ehtiyojlarga ega o‘quvchilar uchun individual yondashuv va moslashtirilgan pedagogik texnologiyalarni qo‘llashni ham qamrab oladi. Ushbu vazifalarning samarali amalga oshirilishi pedagogning kasbiy tayyorgarligi, pedagogik mahorati, shaxsiy qadriyatlari va inklyuziv yondashuviga bevosita bog‘liq.

Ilmiy tahlillar o‘qituvchining inklyuziv madaniyati nazariy bilim, psixologik-pedagogik tayyorgarlik va zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasiga asoslanishini ko‘rsatadi. Bunday bilimdonlik pedagogga ta’lim jarayonida asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Amaliy-metodik malaka hamda pedagogik mahorat. Mazkur tuzilma shaxsinga yo‘naltirilgan ta’lim strategiyalarini shakllantirish, tabaqalashtirilgan va moslashuvchan yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, o‘quvchilarning intellektual hamda ijtimoiylashuv qobiliyatlarini yuksaltirishni ko‘zda tutadi. O‘qituvchi faoliyatida ushbu kompetensiyalarning ustuvorligi ta’lim oluvchilarning dars jarayonidagi tashabbuskorligini oshirishga va yakuniy natijadorlikni tubdan yaxshilashga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta’lim muhitida o‘qituvchining ma’naviy-axloqiy fazilatlari hamda o‘quvchilarga bo‘lgan individual yondashuvi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Pedagogning insonparvarlik, bag‘rikenglik, empatiya va ijtimoiy tenglik tamoyillariga tayangan munosabati bolalarning ruhiy xotirjamligini ta'minlashda hamda ularning jamiyatga moslashuv jarayonini tezlashtirishda bosh omil bo‘lib xizmat qiladi (Axmedova, 2020)[78].

Inklyuziv ta’lim muhitida amalga oshiriladigan ishlar muvaffaqiyati bevosita o‘qituvchilarning professional salohiyati hamda mahorat darajasiga bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan, pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarining mazmuniga inklyuziv ta’lim tamoyillarini tizimli ravishda singdirish hamda ularni mazkur yondashuvni pedagogik amaliyotda samarali qo‘llashga tayyorlash muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

2. Psixologlar va metodistlar. Inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quvchilarning individual psixologik, fiziologik va ta’limiy ehtiyojlarini aniqlash hamda baholashda psixolog va metodistlarning faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ular har bir bolaning rivojlanish xususiyatlarini muntazam o‘rganish, pedagoglarga zarur metodik va maslahat yordamini ko‘rsatish, shuningdek, o‘quvchilarning imkoniyatlariga mos ta’lim mazmuni, individual yondashuv va metodik vositalarni shakllantirishni muvofiqlashtiradi.

G. Axmedova (2020)ning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, psixolog-pedagog hamkorlik inklyuziv muhitda bolalarning ijtimoiy adaptatsiyasini yaxshilashda samarali vosita hisoblanadi. Uning ta’kidlashicha,

metodistlar yordamida pedagoglar turli individual va topshiriqqa asoslangan pedagogik strategiyalarni samarali qo‘llay oladilar[78].

3. Psixolog va metodistlarning malakali ko‘magi pedagoglarning kasbiy faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish bilan bir qatorda, ta’lim jarayonini har bir bolaning individual ehtiyojlari, imkoniyatlari va rivojlanish dinamikasini inobatga olgan holda tashkil etishga xizmat qiladi. Ular inklyuziv ta’lim sharoitida har bir tarbiyalanuvchi uchun sifatli va natijali bilim olish muhitini yaratuvchi bosh bo‘g‘in hisoblanadi.

4. Ota-onalar va jamoatchilik. Bolaning rivojlanish jarayonida ota-onalarning va keng jamoatchilikning faol ishtiroki katta ahamiyatga ega. Ota-onalarning ta’lim jarayonidagi faol ishtiroki uy sharoitida qo‘llab-quvvatlash, inklyuziv qadriyatlarni shakllantirish hamda bolaning ijtimoiy va emotsional rivojlanishini ta’minlashda muhim omildir.

Jamoatchilikning, ayniqsa mahalla va maktab jamoalari faol ishtiroki bola uchun ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. N. Abdullaeva (2021) ta’kidlashicha, jamoatchilikning bolaning ijtimoiy muhitdagi faolligiga yo‘naltirilgan tadbirlari, masalan, madaniy va sport meroslariga oid faoliyatlar, bolaning ijtimoiy ko‘nikmalarini va liderlik salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, bolaning turli ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini anglab yetishini va mas’uliyatlilik hissini rivojlantirishda jamoatchilikning ishtiroki katta ahamiyatga ega[93].

Ota-onalarning faol ishtiroki va pedagoglar bilan hamkorligi bolaning psixologik barqarorligini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. G. Axmedova (2020) qaydicha, bola o‘zining ichki ehtiyojlari va qobiliyatlarini ota-onalar va pedagoglar bilan ochiq muhokama qilish imkoniga ega bo‘lganida, u o‘qishga va ijtimoiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishi ortishida sezilarli natijalarga erishadi. Shu bilan birga, bolaning ijtimoiy ko‘nikmalari, masalan, hamkorlik qilish, muammolarni hal etish va boshqalar bilan samarali munosabatda bo‘lish qobiliyati rivojlanadi[78].

Shu tariqa, ota-onalar va keng jamoatchilikning integratsiyalangan hamkorligi bolaning umumiy rivojlanishi uchun kompleks yondoshuvni ta’minlaydi. Bu nafaqat bolaning akademik ko‘nikmalarini, balki ijtimoiy,

emotsional va axloqiy salohiyatini ham mustahkamlaydi. Shu bilan bolani muvaffaqiyatli ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalashda ota-onalar va jamoatchilikning rolini alohida ta’kidlash mumkin (G. Axmedova[78], N. Abdullaeva[93]; Z. K. Ismailova[95], K. K. Mamedov[101]).

Tadqiqotlar hamda tahliliy hisobotlar shuni tasdiqlaydiki, ta’lim-tarbiya jarayonini tizimli integratsiyalashda pedagoglar bilan bir qatorda ota-onalar hamda keng jamoatchilikning faol ishtiroki hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mazkur ko‘p tomonlama hamkorlik o‘sib kelayotgan avlodning ijtimoiy moslashuvi, intellektual barqarorligi va komil shaxs bo‘lib shakllanishida poydevor vazifasini o‘taydi.

4. Tashkiliy-metodik qavat. Tashkiliy-metodik qavat pedagoglar va boshqa ta’lim ishtirokchilari uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni yaratishga yo‘naltirilgan pedagogik mexanizm hisoblanadi. Ushbu qavat orqali maktablarda qo‘llaniladigan maktubiy qo‘llanmalar, elektron ta’lim platformalari, treninglar va malaka oshirish kurslari faoliyat ko‘rsatadi.

Tashkiliy-metodik komponentning amaliy samaradorligi ilmiy yondashuvlar asosida quyidagi mezonlar orqali tavsiflanadi:

- Kasbiy salohiyat va ustuvor maqsadlarni izchil takomillashtirish: pedagoglarning zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni egallashi inklyuziv ta’lim sharoitida hamkorlikka asoslangan pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishning muhim omili hisoblanadi. M. Abdullaeva ta’kidlaganidek, pedagoglarni treninglar, seminarlar va malaka oshirish kurslari orqali qo‘llab-quvvatlash ularning amaliy va nazariy bilimlarini uyg‘unlashtirish imkonini beradi[93].
- Innovatsion texnologiyalardan foydalanish – elektron platformalar va raqamli resurslar pedagoglarning o‘quv jarayonida interaktiv va individual yondashuvlarni qo‘llashini osonlashtiradi (Qodirova, 2022). Bu turli ehtiyojga ega bolalar uchun moslashtirilgan ta’limni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi[114].
- Metodik qo‘llanmalar va yo‘riqnomalar – ular pedagoglarga inklyuziv metodikalarni to‘g‘ri va samarali qo‘llashda yo‘l-yo‘riq beradi. L. To‘xtaeva (2023) fikriga ko‘ra, pedagoglarni zarur qo‘llanmalar bilan ta’minlash ularning inklyuziv madaniyatini shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi[126].

- Ijodiy va innovatsion rivojlanish – “akademik tadqiqotlar ko‘rsatadiki, tashkiliy-metodik qavat nafaqat pedagoglarning kasbiy salohiyatini, balki ularning ijodiy va innovatsion qobiliyatlarini ham rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi (Sultonova, 2021). Bu pedagoglarga har bir talabaning individual ehtiyojlari va potensialini hisobga olish imkonini beradi” [126].

Tashkiliy-metodik yondashuv pedagoglarning kasbiy salohiyatini izchil rivojlantirish, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini amaliyotga samarali joriy etish hamda inklyuziv ta’lim uchun qulay pedagogik muhitni shakllantirishning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur bosqichda yo‘lga qo‘yiladigan tizimli pedagogik strategiyalar mutaxassislarning professional shakllanishiga zamin yaratadi va ta’lim jarayonida har bir ta’lim oluvchining shaxsiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Modelning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi pedagoglar, psixologlar, metodistlar, ota-onalar va jamoatchilikning uzviy hamkorligi, ilmiy asoslangan metodik yondoshuv va samarali tashkiliy mexanizmlarni talab qiladi.

“Ijtimoiy-pedagogik hamkorlik modeli bolaning har tomonlama rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, uning individual xususiyatlari va ta’limiy ehtiyojlarini inobatga olish tamoyillari asosida shakllantiriladi. Mazkur modelning muhim jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi” [126]:

Ijtimoiy va pedagogik hamkorlikka asoslanganlik. Modelda barcha ishtirokchilar – pedagoglar, psixologlar, metodistlar va ota-onalar – o‘zaro hamkorlikda ishlaydi. Ular masalalarni birgalikda hal qilish, bilim va tajriba almashish orqali bolalarning rivojlanishi uchun optimal pedagogik muhit yaratishadi. Vygotsky (1978) ijtimoiy hamkorlik bolaning kognitiv rivojlanishida asosiy omil ekanligini ta’kidlaydi. Bronfenbrenner (1979) bolaning rivojlanishi turli ijtimoiy muhitlarning o‘zara ta’sirida yuz berishiga e’tibor qaratgan. Shuningdek, Axmedova (2020) psixolog-pedagog hamkorlik bolalarning individual ehtiyojlariga mos ta’lim dasturlari ishlab chiqishda muhim vosita ekanligini ta’kidlaydi.

Qatlamli struktura. Mazkur modelda barcha ishtirokchilarning funksional vazifalari muayyan iyerarxik tizimda joylashtirilib, parallel ravishda o‘zaro uyg‘unlikda amalga oshiriladi. Chunonchi, o‘qituvchilar bevosita dars berish amaliyoti bilan shug‘ullansa, psixologlar tarbiyalanuvchilarning individual-ruhiy jihatlarini tahlil qiladi. Shu bilan birga, metodistlar o‘quv rejalari va metodologik manbalarni shakllantiradi, ota-onalar esa xonadonda zarur ijtimoiy-tarbiyaviy sharoitni yaratib beradi. M. Abdullaeva qayd etishicha, qatlamli va integratsiyalashgan yondashuv pedagoglar faoliyati samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

O‘zaro bog‘liqlik. Barcha ishtirokchilarning hamkorligi bolalarning individual ehtiyojlari va rivojlanish darajasiga muvofiq tartiblanadi. Bu konsepsiya shakllantiruvchi baholash (formative assessment) tamoyiliga asoslanadi. Hattie va Timperley (2007) ta’kidlaydilarki, pedagoglar, psixologlar va ota-onalar o‘rtasidagi doimiy fikr almashish bolalarning ijtimoiy va akademik rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

